

821.411.73/-32

K43

# STIVEN KING



## BO'RI-ODAM YILI

JAHON ADABIYOTI TURKUMIDAN



JAHON ADABIYOTI TURKUMIDAN

**STIVEN KING**

**BO‘RI-ODAM YILI**

*Hikoyalar*



**ZIYO NASHR**

Toshkent  
**2020**

UO'K: 821.111(73)-32  
KBK 84(7AQSh)  
K 43

Tahrir hay'ati:


**Naim Karimov, Umarali Normatov, Erkin A'zam,  
Xurshid Do'stmuhammad, Suvon Meliyev,  
Shuhrat Sirojiddinov, Dilmurod Quronov, Nurboy  
Jabborov, Uzoq Jo'raqulov, Ulug'bek Hamdamov,  
Abdurahmon Jo'rayev**

Tarjimonlar:

**Olim OTAXON va b.**

Taker Millz shaharchasida vahima boshlanadi. Shahar ahli yangi yil kayfiyati bilan yashayotgan kunlarda dahshatli qotillik yuz beradi. Bu qotilliklarning oy to'lishgan kunda sodir etilishi hammani qo'rquvga soladi. Shaharda bo'ri-odam haqida mish-mishlar tarqaladi...

Ushbu to'plamdan o'rin olgan hikoyalar sayqal topgan uslubi, kutilmagan voqealari bilan o'quvchini hayratga soladi.



ISBN 978-9943-6341-2-1

© Olim Otaxon va b. (tarj.).  
© „Ziyo nashr“ nashriyoti, 2020.

## NASHRIYOTDAN

Biz o'tgan mingyilliklar davomida jahon sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo'shgan, uni o'zgartira olgan xalqimiz. Madaniyat, san'at, axloq, falsafa, fan va adabiyot sohasida buyuk ajdodlarimiz qoldirgan ulkan meros hali-hamon dunyoning barcha rivojlangan mamlakatlari tomondan e'tirof etilib, o'rganib kelinadi. Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Burhoniddin Marg'iloniy, Ahmad Farg'oniy, Muso al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Bahouddin Naqshband, Abullays Samarqandiy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Mahmud Koshg'ariy, Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Boborahim Mashrab singari yuzlab ajdodlarimiz borki, biz ularni hech ikkilanmasdan jahon miqyosidagi mutafakkirlar deyishga haqlimiz. Ammo bugungi avlod ularning buyuk shaxsiyati, tarixi, jahonshumul shon-shuhrati bilangina cheklanib qolmasligi lozim. Ajdodlarning madaniy, ma'rifiy, ilmiy, ijtimoiy, adabiy faoliyati, hayot tarziga doimo hushyor nigoh va ibrat ko'zi bilan qarashimiz maqsadga muvofiq. Tarixiy manbalarni sinchiklab o'rganadigan bo'lsak, mutafakkir ajdodlarimiz jahon madaniyati, ilmiy va badiiy tafakkuri bilan doimiy tarzda hamqadam, hamnafas bo'lib kelganlar. Jahonda ro'y berayotgan birorta madaniy-intellektual o'zgarish, biror badiiy tafakkur namunasi bobolarimiz nazaridan chetda qolmagan. Ajdodlarimiz ularni o'qib, uqishar ekan, o'z milliy madaniyatlarini rivojlantirish, jahon xalqlaridan ortda qolmaslikni maqsad qilganlar. Ko'plab xorijiy tillarni bilganlari, xorij mutafakkirlari yozgan asarlarni tarjima qilganlari bu o'rinda qo'l kelgan. Eng muhimi, xorij madaniyati, badiiy-ilmiy tafakkuri namunalariga nisbatan shaxsiy to'xtamlari, xulosalari va tanqidiy nuqtayi nazarlari bo'lgan.

Bugun biz, mamlakatimiz Prezidenti kitobxonlik madaniyatini takomillashtirishni davlat siyosati darajasiga ko'targan bir paytda, o'tmishda yashab o'tgan buyuk ajdodlarimiz an'anasini izchil davom ettirishimiz, jahon madaniyati, san'ati, adabiyoti namunalari bilan izchil va tizimli tarzda tanishib borishimiz zarur.

Xalqimiz ijtimoiy-madaniy hayotidagi mana shunday ulkan ehtiyojni nazarda tutib „Ziyo nashr“ nashriyoti bir xayrli ishga qo'l urishga bel bog'ladi. Ya'ni joriy yildan e'tiboran jahon nasri namunalarining yuz jildligini chop etishga kirishdi.

Mazkur nashrda siz turk, rus, ingliz, italyan, fransuz, nemis, hind, xitoy, arab, eron, yapon, amerika adabiyoti namunalari bilan tanishasiz. Yuz jildlikda Ch. Dikens, L. N. Tolstoy, A. Dyuma, N. V. Gogol, O. de Balzak, A. P. Chexov, Gi de Mopassan, J. London, G. Flober, M. Sholoxov, G. G. Markes, A. Kuprin, V. Shukshin kabi siz muhtaram o'quvchiga nisbatan tanish yozuvchilar asarlari bilan birga, S. King, U. Folkner, V. Vulf, Mo Yang, Chan May Txyun, V. Losa Mario, T. Bug'ra, Alp Dundar, Dino Butssati, R. Akutagava, I. Bunin, K. Chandar, Abdul Muis, Y. Zamyatin singari jahon xalqlari tomonidan e'tirof etilgan-u, ammo o'zbek kitobxonlarining aksariyati ilk bor uchrashayotgan yozuvchilar asarlarini o'qishga muyassar bo'lasiz.

Mazkur yuz jildlik jahon nasrining deyarli barcha janrlarini qamrab oladi. Unda siz jahon o'quvchilarini hayratga solib kelayotgan romanlar, qissalar, novella va hikoyalardan bahramandlik hissini tuyasiz.

Tarjimalar ichida Abdulla Qahhor, Zumrad, Odil Rahimiy, Qodir Mirmuhamedov, Vahob Ro'zmatov, Ozod Sharafiddinov, Ibrohim G'afurovdek mashhur tarjimonlar tomonidan o'girilgan asarlar qatorida umidli yosh tarjimonlar ijod namunalari ham o'rin olgan. Albatta, tarjima asarlar tarkibida rus tili vositasida amalga oshirilganlari ko'proq. Bunda biz tajribali, mahoratli tarjimonlar o'girmalariga bo'lgan ishonch va hurmatni bosh mezon qilib oldik. Shu bilan birga, ingliz, fransuz, nemis, turk, arab, fors tillaridan qilingan original tarjimalarning mutaxassislar tomonidan tan olingan namunalari ham qamrab olishga urindik. Eng muhimi, bu o'rinda badiiy tarjimalar sifati, milliy tilimiz jozibasini qanchalik aks ettirganiga asosiy e'tiborni qaratdik. Yuz jildlikni tayyorlash jarayonida imkon darajasida xalqimiz ma'naviyati va axloqiy o'lchamlariga muvofiq keladigan asarlarni tanlashga harakat qildik.

Ammo shuni alohida ta'kidlashni istardikki, „Jahon nasri namunalari yuz jildligi“ni chop etish nashriyotimiz uchun ilk tajriba. Shunday bo'lgach, mazkur yirik loyihaning kamchiliklari, maromiga yetmagan jihatlari bo'lishi tabiiy. Bu jarayon muttasil davom etib, tajriba va mahorat, texnik imkoniyatlar oshgan sari kamchiliklar ham bartaraf bo'la borishiga ishonamiz. Va, umid qilamizki, xayrli niyat bilan boshlayotgan ishimizdagi juz'iy kamchiliklarni aziz kitobxonlarimiz ma'zur tutadilar. Muhtaram adabiyotshunolarimiz, adiblarimiz va adabiyot muallimlarimiz keyingi nashrlarni amalga oshirish jarayonida o'zlarining qimmatli maslahatlarini ayamaydilar.

Yaratgan Alloh ishimizni xayrli, ajr-mukofotlarga loyiq, jonajon xalqimiz uchun manfaatli qilsin!

## **BO‘RI-ODAM YILI**

*„Yarim vayrona saroydagi zulmat ichida  
u paxmoq boshini ko‘tardi.  
Uning sap-sariq ko‘zlari yonardi.  
– Men ochman, – irilladi u“  
„Bo‘ri“  
Genri Ellender*

### **Yanvar**

Ehtimol, qayerlardadir osmonda to‘lin oy charaqlab turgandir, lekin bu yerda, kichkinagina Taker Millz shaharchasida, injiq yanvar havosi butun osmonni qalin qor pardasi bilan to‘sib tashlagandi. Izg‘irin shamol quturganicha bo‘m-bo‘sh ko‘cha bo‘ylab kezar, shaharning sariq rangli qor suradagan mashinalari allaqachon qalin qor ostida qolgandi.

„GS&WM“ temiryo‘l kompaniyasi xodimi, egniga jun pidjak kiygan ozg‘in, uzun bo‘yli Arni Vestram labiga „Kemel“ sigaretini qistirib olganicha asbob-uskunalar saqlanadigan omborda tunni o‘tkazayotgandi. Uning mashinasi yo‘lda buzilib qolgan va u tong otishini kutib, o‘zi bilan o‘zi qarta o‘ynab o‘tirardi. Tashqarida shamolning uvullashi kuchaydi. Vestram boshini ko‘tardi va quloq soldi, keyin yana qarta o‘yiniga berildi. Bu bor-yo‘g‘i bir-shamol...

Lekin shamol eshikni tirmamaydi... va ichkariga kiritishlarini so‘ramaydi.

Arni qartasini yig'ishtirib, o'rnidan turdi. Uning ajin bosgan yuzida devorda osig'liq turgan kerosin lampaning shu'lasini jilvalanardi.

Eshik yana tirmaldi. Birortasining iti, o'yladi u, sovuqda qolib ketgan, endi isinmoqchi. Ammo uni nimadir to'xtatib turardi. Itni tashqarida, sovuqda qoldirish berahmlik, albatta, o'yladi u, biroq eshikni aslo ochmaslikka qaror qildi. Qo'rquvning sovuq panjalari uning yuragini g'ijimlab turardi.

Taker Millzda noqulay davr hukm surayotgandi. Obhavo qandaydir noxushlikdan darak berar, Vestramning tomirida oqayotgan Uels qoni esa uni bunday narsalarga jiddiy yondashishga majbur qilardi.

U chaqirilmagan mehmonni nima qilish kerakligini o'ylashga ulgurmay, kutilmaganda, shamolning ovozi yovuz o'kirish egalladi. Eshik og'ir tananing zarb bilan urilishidan titrab ketdi... so'ng yana zarba berildi. Yupqa eshik zarbalardan sinib ketguday bo'lar, uning yorig'idan qor parchalari otilib kirardi.

Arni Vestram talvasaga tushganicha eshikka tirash uchun biror buyum topish ilinjida alanglay boshladi. Ammo u siniq stul oldiga yetib borgunicha noma'lum mavjudot shunday kuchli zarba berdiki, eshik o'rtasidan yorilib ketdi.

Bir necha lahza u uzun yoriq orasida qisilib turdi, uning tumshug'i qahr bilan jiyirilgan, sap-sariq ko'zlari yonib turardi. Bunday ulkan bo'rini Arni umrida ko'rmandi...

Va uning irillashida uzuq-yuluq inson so'zlari qu-loqqa chalinardi.

Nihoyat, eshik ikkiga bo'linib ketdi. Maxluq xonaga kirgandi.



Arni burchakka otildi va qo'liga belkurakni oldi. Maxluq polga qapishgancha olovdek sariq ko'zlarini burchakdagi kishiga tikkandi. Uning katta ochilgan og'zidan tili osilib turar, qoziqdek kurak tishlari yaltirardi.

U irillagancha oldinga sakradi. Arni Vestram belkurakni siltadi.

Faqat bir marta.

Inson qichqirig'i eshitildi va shu zahoti o'chdi.

Xuddi to'lin oy qalin bulutlar orasiga yashiringanidek, Taker Millzga insonlar qalbini dahshatga soluvchi xavotir yashirincha kirib keldi. Hech qanday sabab va ogohlantirishlarsiz Meyn shtatidagi mo'jazgina shaharchada, qish tunlarining birida bo'ri-odam paydo bo'ldi. Mahalliy gazetada ilgari tabiat ishqibozlari klubining sayohatlari haqida maqolalar chop etilgan bo'lsa, endi qayg'uli mavzuda xabarlar berila boshlandi.

Bo'ri-odam davri shu tarzda boshlandi.

## Fevral

Avliyo Valentin kuni arafasida Stella Randolph karavotida yotganicha derazadan ko'rinib turgan oyni tomosha qilar va sevgi haqida o'y surardi.

O, sevgi, sevgi. Sen qandaysan o'zi?...

Bu safar Avliyo Valentin kuni munosabati bilan kamtarin chevar Stella sevgi izhori bitilgan naqt yigirmata tabriknoma olgan, ular orasida Jon Travolta, Robert Redford va Pol Nyumen... hatto mashhur „Kiss“ guruhi xonandasi Eys Frilidan kelgan tabriknomalarni ham bor edi. Ularning barchasi devordagi kitob tokchasiga tartib bilan terib qo'yilgandi. Har doimgidek, bu tabriknomalarni u o'ziga o'zi jo'natgandi.

Sevgi – bu tongdagi bo‘sa... yoki ishqiy romandagi so‘nggi xayrlashuv bo‘sasi... Sevgi... bu oqshomdagi atirgul...

Taker Millzda hamma uning ustidan kulsa ham mayli. Yosh bolalar uni mazax qilishsa ham, „semiz sigir“ deb atashsa ham mayli, baribir, u sevgi va to‘lin oyning nima ekanligini hammadan ko‘ra yaxshiroq biladi. Va hozir, u o‘zining beso‘naqayligini unutgancha sevgi kelishiga o‘zini ishontirardi.

Kutilmaganda kimdir derazani tirnaganga o‘xshadi.

U o‘rnidan turdi. Derazadan tushayotgan oy nurini erkak kishining sharpasi to‘sib turardi.

– Men uxlayapman, – o‘yladi qiz, – holbuki, bu tush ekan, men uning ichkariga kirishiga va men bilan suhbatlashishiga rozi bo‘laman... Mayli, odamlar sevgi iflos, taqiqlangan narsa deyaverishsin... Yo‘q, sevgi eng sof, eng to‘g‘ri... Sevgi – bu tuhfa...

Hali ham tush ko‘rayotganiga ishongan qiz ko‘zlarini yarim ochgancha deraza tomon yo‘naldi.

Biroq qo‘li sovuq oynaga tekqach, u tashqarida erkak kishini emas kattakon paxmoq bo‘rini ko‘rdi, u deraza rafiga panjalarini tiragancha uy ichiga qarab turardi.

„Yo‘q, Avliyo Valentin tunida albatta sevgim kelishi kerak“, – o‘yladi qiz. Uning ko‘zlari aldayapti, xolos. Albatta, bu erkak kishi, uning sevgisi.

Bu oydin tunda u qizning oldiga kelgan. U...

Qiz derazani ochdi va yuzlariga urilgan sovuq shamol uni bu tush emasligidan ogoh etdi. Hech qanday kishi yo‘q edi va u buni tushundi. U qo‘rquvdan qaltiragancha ortiga tisarildi va shu lahzada xona ichiga bo‘ri o‘qdek otilib kirdi.

Sevgi... bu...tungi faryod...

Yaqinda temiryo'lni ta'mirlash uskunalari saqlanadigan omborda Arni Vestramning nimalab tashlangan tanasi topilganligi qizning yodiga juda kech tushdi. Juda kech...

Ulkan maxluq u tomon qadam tashladi. Stella orqaga tisarildi, oyog'i karavotga urilib chalqanchasiga yiqildi.

Bo'ri uning ustiga engashdi. Qiz uning qaynoq nafasini his qildi. Bo'ringning sariq ko'zlari uning ko'zlariga tikildi.

– Mening sevgim, – pichirladi qiz va ko'zlarini yumdi.  
Sevgi – bu o'lim...

## **Mart**

Bu yil oxirgi yog'gan og'ir, ho'l qor Taker Millzdagi barcha yo'llarni daraxtlarning singan shoxlariga to'ldirib tashladi.

– Ona tabiat o'z mulkini tartibga solyapti, – dedi shahar kutubxonachisi Milt Shturmfyuller o'ziga o'zi. U xotini bilan stol yonida o'tirgan qahva ho'plardi. Oriq, ko'zlari ko'k o'rta bo'yli bu kishi o'n ikki yildirki xotini ni xo'rlab kelardi. Lekin buni hech kim bilmasdi.

Miltga o'zi topgan ibora shunchalik yoqib tushdiki, u so'zlarini yana takrorladi: „Ha, ona tabiat o'z mulkini tartibga solyapti...“ Shu payt chiroq bir lipilladi-yu, o'chdi. Bunday bo'lishini kutmagan Donna Li Shturmfyuller qichqirib yuborarkan, qahvasini to'kib yubordi.

– Tezda lattani olda, artib tashla, – dedi sovuq ohangda Milt. – Hoziroq.

– Ha, jonim, albatta.

Qorong'ilikda sochiqni izlayotgan ayol oyog'ini stol qirrasiga urib olib yana qichqirdi. Eri ko'zidan yosh chiqquncha kuldi. Uning eng sevimli mashg'uloti xotini-ga ozor yetkazish va „Riderz Dayjest“ jurnalida chiqadigan latifalarni o'qish edi.

O'z mulkini tartibga solayotgan ona tabiat qurigan shoxlar bilan birga adashib elektr uzatish simlarini ham uzib yuborgandi. Og'ir, ho'l qor simlar ustiga yog'averdi, yogaverdi, natijada simlar uzilib ketdi.

Butun shaharcha zulmat ichida qoldi.

O'z ishidan qanoatlangan qor asta-sekin tindi. Harorat o'n olti daraja sovuq edi. Yo'llar qahraton sovuqdan xok-key maydoni singari yaxmalakka aylangandi. Uylar hali ham zulmat ichida edi. Yaxmalak yo'ldan yurib simlarni ulashga hozircha mahalliy montyor o'zida jur'at topolmayotgandi.

Bulutlar sezilarli darajada siyraklashdi va ular orasidan to'lin oy mo'raladi.

Tunda osuda jimjitlikni bo'rining uvullashi buzdi.

Qotib uxlayotgan erining yonida yotgan Donna Di bu uvullashni jimgina tinglardi. Konstebel O'Niri ham Laurel Stritdagi uyi derazasi oldida turganicha bu ovozga quloq soldi. Uvullashni boshqalar ham eshitishdi.

Lekin ovoz egasi kimligini hech kim bilmasdi. Shuningdek, ertalab simlarni ulash uchun Tarker Bruokka borgan mahalliy montyor ko'rib qolgan ko'chada yotgan sayoq kishining ismini ham hech kim bilmadi. Muzlab qolgan jasad chalqanchasiga yotar, eski palto va ko'ylagi burda-burda qilib tashlangandi. Uning dahshatdan qotib qolgan ko'zlari osmonga tikilgandi.

Jasad atrofi izlarga to'lib ketgandi.

Bo'ri panjasining izlariga.

## **Aprel**

Oy o'rtalariga kelib, qor o'rmini surunkali yomg'irlar egallagan pallada Taker Millz yashillikka burkana boshlaydi.

Matti Tellingemning hovuzidagi muz va odamlar „katta o'rmon“ deb ataydigan o'rmondagi qorlar erib, yo'qola boradi. Bahor kelayotganini his qiladi kishi.

Shaharcha uzra vahima ko'lankasi paydo bo'lganiga qaramasdan bu bayramni har bir shaharlik o'zicha nishonlaydi. Xeyg buvi piroglar pishiradi va sovitish uchun deraza tokchasiga terib qo'yadi. Yakshanba kunlari ruhoniy Lester Lou „Sulaymon podsho qo'shiqlari“ dan parchalar o'qiydi va „Tangri muhabbatining tirik bulog'i“ mavzusida chiqishlar qiladi. Dunyoviy maktab tarafdori, ateist va piyonista Kris Raytson bo'kib aroq ichadi. Taker Millzdagi yagona qovoqxona egasi Billi Robertson Kris Raytsonni kuzatib qo'yarkan, oshpaz ayolga, agar bugun tunda bo'ri-odam birortasini o'ldiradigan bo'lsa, bu qurbon, albatta, Kris bo'lishini aytib ming'irlyadi.

– Xudo haqi, menga uni eslatma, – deb uning gapini bo'ladi oshpaz ayol.

Uning ismi Elayza Furne bo'lib, yigirma to'rt yashar bu ayol cherkovga har hafta borar va ruhoniy Lester Louga bo'lgan yashirin muhabbati tufayli cherkov xorida berilib kuylardi. Ammo bu muhabbatiga qaramasdan u Taker Millzni tark etib, boshqa xotirjamroq joyga ketmoqchi edi, chunki bo'ri-odam bilan bog'liq dahshatli voqealar uni xavotirga solayotgandi. U Portsmutda ham yaxshigina pul topish mumkinligini va u yerda bo'ri-lar bo'lsa ham, ular harbiy flot dengizchilari bo'lishini o'ylard.

Haqiqatan ham, oy to'lishgan paytda Taker Millzda tunlar dahshatli tus olardi. Kunduzi esa har holda yaxshi edi. Kutilmaganda, shaharcha osmonida varraklar paydo bo'lar, ular kundan kunga ko'payib borardi.

Kecha o'zining o'n birinchi bahorini qarshilagan Bredi Kinkeidga varrak sovg'a qilishgandi. U bugun olamdagi hamma narsani unutganча kuni bilan varrak uchirdi. U kechki ovqatgacha uyga qaytishi haqida bergan va'dasini ham unutib qo'ygandi. U hatto bolalarning allaqachon uy-uylariga tarqalib ketishganini, bog'da yolg'iz o'zi qolganligini ham sezmagandi. Faqatgina g'ira-shira qorong'ilik atrofni qoplay boshlagani uning bog'da uzoq vaqt qolib ketganligini anglashga majbur qildi. O'rmon ortidan to'lin oy ko'tarilib borardi. Bredi kechki ovqatga kech qolganidan, otasi endi uni jazolashidan yoki qorong'ilikdan qo'rqmayotgandi.

Maktabda u bo'ri-odam haqida shivirlab gaplashadigan o'rtoqlarini masxara qilardi. Ammo endi u qo'rquvdan qaltiray boshladi. Bolalarning qo'rqinchli hikoyalari endi unga haqiqatdek tuyulayotgandi.

U shoshib-pishib g'altagini o'ray boshladi. Varrak havoda chirpirak bo'lib aylandi va boladan o'nlab qadam nariga tushdi.

Bredi varragi tushgan tomonga qadam tashlarkan, yo'l-yo'lakay g'altagini o'rab borardi... bir payt uning qo'lidagi g'altak xuddi baliq ilingan qarmoq ipidek qattiq tortildi.

Tungi sukunatni momaqaldiroqdek o'kirik buzdi va Bredi Kinkeyd qichqirib yubordi. U ishonadi, endi u bolalarning cho'pchaklari rost ekanligiga ishonadi, lekin endi kech. Uning qichqirig'ini bo'ringning etni seskanti-radigan, uvullashga aylanayotgan irillashi bosib ketdi.

Bo‘ri bola tomon qadam tashlardi. U xuddi odamlardek ikki oyoqlab yugurar, qalin juni oy nurida yaltirar, ko‘zlari esa chiroq singari yonib turardi. Uning odamlarnikidek uzun tirnoqli qo‘lida varrak hilpirardi.

Bredi burilib qochishga shaylandi, lekin kuchli qo‘llar uning yelkasidan tutdi. U qon isini tuydi.

Bredini ertalab bog‘ ichidan topishdi. Bolaning boshsiz tanasi urush qahramonlariga atab tiklangan haykalga suyab qo‘yilgan, barmoqlari orasiga qistirilgan varrak esa shamolda o‘ynardi.

## May

Yakshanbaga o‘tar kechasi ruhoniylar Lester Lou dahshatli tushdan terga botgan va qaltiroq bosgan holda uyg‘onib ketdi. U katta ochilgan ko‘zlarini cherkov hovlisiga qaragan derazaga qadadi. Derazadan ko‘rinib turgan to‘lin oyning kumushrang nurlari polni yoritardi va ruhoniylar hatto bo‘ri-odamni ko‘rishga ham tayyor edi. U ko‘zlarini chirt yumdi va yovuz kuchni eslagani uchun Xudodan kechirishini so‘rab iltijo qildi. Yaratganga iltijosini u har doimgidek „... Iso Masih nomi bilan. Omin“ deb tugatdi.

Agar bu la‘nati tush bo‘lmaganida edi...

U tushida, cherkovda adashganlarning qaytishi haqida ma‘ruza o‘qiyotgan emish. Cherkov odatdagidan farqli ravishda ibodatga kelganlar bilan to‘la ekan.

Tushida u shunchalik ehtiros bilan ma‘ruza o‘qirdiki, o‘ngida hech qachon bunday qilmasdi. U „Yirtqich bizning oramizda yuribdi“ degan mavzuda ma‘ruza qilayotgandi.

– Yirtqich, – dedi u, – har doim bizning oramizda yashirinib yuradi. Shayton uchun chegara yo‘q. U maktabda

bitiruv kechasida raqs tushishi mumkin. U sizdan bir quti sigaret va gugurt sotib olishi mumkin. U sosiska chaynagancha Bangordan keladigan avtobusni kutib, Braytonning dorixonasi ro'parasidagi bekatda siz bilan birga o'tirishi mumkin. Yirtqich konsert zalida sizning yoningizda o'tirishi yoki Meyn Stritdagi Chet va Chou barida olmali pirog yeyishi mumkin.

– Yirtqich, – davom etdi u, ovozi pasaytirib. – Yirtqichdan ko'zingizni uzming. Chunki u sizga jilmayib, qo'shningiz ekanligini aytishi mumkin, lekin unga ishonmang, inilarim va singillarim, zero uning tishlari, o'tkir va agar unga diqqat bilan qarasangiz, uning ko'zlari o'ynayotganligini ko'rasiz. U Yirtqichdir, u hozir shu yerda, Taker Millzda. U...

Shu payt u jim bo'lib qoldi, uning notiqlik san'ati nihoyasiga yetdi, chunki bu yerda, cherkovda, uning ko'z o'ngida dahshatli voqea yuz berayotgandi. Cherkovga tashrif buyurganlarning yuzlari va badanlari o'zgarib boshladi va u bu yerga yig'ilgan uch yuz nafar kishining bo'ri-odamlarga aylanishayotganini ko'rdi. Shahar boshqaruvi raisi oppoq va semiz Viktor Boulning rangi qoraya boshladi, so'ng yuzlarini qalin tuk qopladi. Musiqa o'qituvchisi Vayolet Makkenzi... uning ozg'in tanasi kutilmaganda semirdi, burni esa uzun va tekis ko'rinishga keldi. Tabiatshunoslik o'qituvchisi Elbert Frimanning tanasi semirib, kastumi yirtilib ketdi va kiyimlari orasidan qop-qora qalin junlar o'sib chiqdi. Uning qalin lablari ochilib, kurak tishlari ko'rindi.

– Yirtqich... – qichqirishga urindi ruhoniyy Lou, ammo tili. Unga bo'ysunmasdi va u dahshat ichra ortiga tisarildi. Cherkov xodimi Kel Bladvin tishlarini irjaytirgancha oldinga otilib chiqdi. Uning ortidan Vayolet



Makkenzi tashlandi va ular bir-birlarini tishlab-tirnay ketishdi.

Ularga boshqalar ham qo‘shilishdi. Cherkov xuddi hayvonot bog‘ida ovqat berilayotgan paytni eslatardi. Bu safar umumiy shovqinga ruhoniy Louning „Yirtqichlar! Yirtqichlar biz bilan! Ular hamma joyda bor! Yirtqichlar!!!“ degan chiyildoq ovozi ham qo‘shildi. Birdan u ovozi boshqacha chiqayotganini, gapirish o‘rniga irillayotganini sezib qoldi. Qora ridosining yenglaridan ham qo‘l emas, uzun tirnoqli panjalar chiqib turardi...

Shu payt u uyg‘onib ketdi.

– Bu bor-yo‘g‘i tush, – o‘yladi u o‘zini o‘zi tinchlantirishga urinarkan. – Xudoga shukur, bu bor-yo‘g‘i tush.

Lekin ertalab cherkov eshigini ocharkan, uning ko‘zi birinchi bo‘lib tushgan narsa cherkov qorovuli Klayd Korlissning boshsiz tanasi bo‘ldi. Ruhoniy Lou shuncha duo-iltijo qilsa-da, bu tush emasdi va u dahshatga tushganча dod soldi.

Ha, Taker Millzga yana bahor keldi – u o‘zi bilan birga dahshat olib kelgandi.

## Iyun

Yilning eng qisqa bu tunida Taker Millzdagi bar xo‘jayini Alfi Nopfler barning plastik qoplama qoplangan ustunini yaraqlatib artayotgandi. Qahvaxona bo‘m-bo‘sh bo‘lib, Alfi qorong‘i ko‘chaga tikilganча mana shunday yoz tunida o‘tkazgan ilk ishqiy uchrashuvini xotirlardi. Qizning ismi Arlena Mak Kyun edi. Hozir u Bangordagi advokatga turmushga chiqqan. Qanday ajoyib tun bo‘lgandi!

Kutilmaganda eshik ochilib ichkariga oy nuri tushdi. Hozir to‘lin oy bo‘lgani uchun Alfi qahvaxonaga hech

kim kelmasligiga ishonardi. Odamlarning aytishlaricha, oy to'lgan tunda Taker Millz ko'chalarida Yirtqich paydo bo'lardi. Ammo Alfi bunday ertaknamo mish-mishlardan cho'chimasdi, uning og'irligi yuz kiloga yaqin bo'lib, flotda xizmat qilgan chog'ida chiniqqan muskullari hozir ham ancha-muncha odamni cho'chitardi.

– Ehtimol, – o'yladi u, – barni ertaroq yopish kerakdir. Qahva qaynatkichni o'chirib, muzlatkichdan pivo olaman-da, kinoga boraman. Bunday tunda pivo ichib, film tomosha qilganga nima yetsin.

Ayni shu lahzada eshik ochildi va u ichkariga kirib kelgan mijozga o'girildi.

– Salom, ishlar qalay? – dedi u o'zining doimiy mijozlaridan biriga... uning bunday tunda kirib kelishi ajablanarli edi. Odatda, u barga ertalab soat o'nda kelardi.

Mijoz u bilan so'rashdi.

– Qahva quyaymi? – so'radi Atfi.

– Agar mumkin bo'lsa.

„Ko'rinishidan, u bu yerda uzoq o'tirmasa kerak. Kasal bo'lib qoldimikin?“ o'yladi Alfi.

Kutilmagan manzaradan uning fikri bo'lindi. Yaltiroq qahva qaynatkichga tikilib turarkan, u dahshatli va g'ayritabiiy manzaraning guvohi bo'ldi. Taker Millzdagi har bir kishi yaxshi taniydigan bu mijozning tashqi ko'rinishi asta-sekin o'zgara boshladi. Uning yuzi xuddi rezina niqobdek cho'zila boshladi. Ko'ylagi chok-chokidan so'kildi va Alfining yodiga jiyani sevib tomosha qiladigan fantastik film tushdi. Bir necha soniya ichida mijozning yuzi vaxshiy hayvonning tumshug'iga aylandi, uning jigarrang ko'zlarida esa sariq-yashil uchqun chaqnadi.

Kutilmaganda eshitilgan yovvoyi o'kirish qahrli g'ijillashga aylandi. U maxluq yirtqich yoki bo'ri-odam,

kimligining ahamiyati yo‘q, panjalarini peshtaxta ustidagi qanddonga uzatdi va uni devorga qaratib otdi.

Alfi qochaman deb qahva qaynatkichni ag‘darib yubordi, qaynoq ichimlik uning oyog‘ini kuydirdi. Dahshat va og‘riqdan o‘zini yo‘qotib qo‘ygan Alfi ovozinig bo‘richa qichqirdi.

Yirtqich hayvonlarga xos epchillik bilan peshtaxta ustiga sakrab chiqdi. Uning ustida hali ham so‘kilib ketgan ko‘ylak va shimining parchalari osilib turardi.

Yirtqich irillagancha Alfiga tashlandi. Yirtqichning uzun kurak tishlari uning yelkasiga botdi. Favvora bo‘lib otilgan qon hamma yoqni qip-qizil qilib tashladi.

Alfi emaklaganicha qochishga urindi, qichqirmoqchi ham bo‘ldi, lekin uning ko‘zlari to‘lin oy nuridan qamashib ketdi. Yirtqich yana unga tashlandi va Alfining ko‘zlaridagi oy shu‘lasi butunlay so‘ndi.

## Iyul


Ular Mustaqillik kunini nishonlashni taqiqlashibdi!

Mana shu so‘zlardan so‘ng Martin Koslav yaqinlarining noroziliklarini ko‘rdi.

– Bunchalik ahmoq bo‘lma, – dedi onasi. Onasi unga ko‘pincha qo‘pol muomala qilar, uning nogironligi va bir umr nogironlar aravachasida o‘tirishga mahkum ekanligi uchun achinayotganligini bildirmaslikka urinardi.

– Kelasi yilgacha kutib tur! – dedi otasi uning yelkasiga shapatilarkan. – Keyinga bayram zo‘r bo‘ladi! Ikki baravar zo‘r bo‘ladi, jin ursin! Ey-ey, o‘zing ko‘rasan hali, kichkintoy!

German Koslav Taker Millzdagi o‘rta maktabda jismoniy tarbiyadan dars berar va o‘g‘liga doimo soxta sa-  
mimiyat bilan muomala qilardi.



ikki gapining birida „ey-ey!“ degan soʻzni ishlatardi. Gap shundaki, German Koslav toʻp ortidan quvadigan, yugurib yuradigan, koʻkarib ketguncha suvda choʻmiladigan sogʻlom bolalar dunyosiga oʻrgangan, Martinni koʻrganda esa asabiylasha boshlardi. Har safar Martinga koʻzi tushganda uning asabi qoʻzirdi. Asabiylashganda esa „ey-ey!“, „jin ursin!“ degan soʻzlarni oʻrni kelsa-kelmasa ishlataverardi.

– Ha-ha! Nihoyat sen oʻzing istagan narsani ololmadingmi?! – dedi opasi, Martin hokimiyat binosi oldida yilda bir marta boʻladigan mushakbozlikni qanday orziqib kutganligini aytganida.

Opasi Keyt oʻn uch yoshda, u esa oʻn yoshda boʻlib, opasi Martin yura olmaganı uchungina uni hamma yaxshi koʻrishiga ishonardi. Shuning uchun mushakbozlik bekor qilinganidan Keyt juda xursand edi.

Hattoki, doim Martinning tarafini oladigan bobosi ham unchalik jon kuydirmadi.

– Bayramni hech kim taqiqlagani yoʻq, bolaginam, – dedi u oʻziyurar nogironlar aravachasida oʻtirgan Martinga. Bu suhbat ikki kun ilgari, ikkinchi iyulda boʻlib oʻtgandi. – Ular bor-yoʻgʻi mushakbozlik va sayilni bekor qilishgan, xolos. Sababini oʻzing bilasan-ku.

Martin buning sababini bilardi. Hammasiga gazetalari „Toʻlin oy qotili“ deb nomlashgan qotil sababchi edi. Martin bolalardan ham u haqida koʻplab mish-mishlarni eshitgandi. Ularning aytishlaricha qotil odam emas, qandaydir maxluq. Ehtimol, boʻri-odamdir. Martinning oʻzi bunga ishonmasdi – boʻri-odamlar faqat dahshatli filmlarda boʻladi – balki, u oy toʻlishgan tunda odam oʻldirish istagi kuchayadigan qotildir. Mushakbozlik aynan ana shu qotil sababli bekor qilingandi.

Hattoki yanvarda ham, aravachada o'tirgancha dera-zadan bolalarning chana tortqilashlarini kuzatgan Martin mushakbozlikni o'ylaganida hamma narsani unutardi. Uning miyasini issiq yoz, muzday koka-kola, mushakbozlik o'tkaziladigan tun haqidagi xayollar band etardi.

Endi esa bayram mushakbozligini bekor qilishib-di... Odamlar nima desa deyaverishsin, lekin Martin ular Mustaqillik kunini – uning bayramini taqiqlashganini his qilardi.

Uni tushunadigan yagona odam bugun ertalab ularni-kiga kelgan Al tog'asi edi. U ayvonda bolaning yoni-da turgancha uning so'zlarini tinglardi. Oilaning barcha a'zolari hovli o'rtasidagi hovuzda qiyqirib cho'milishardi.

Martin Al tog'asiga dilidagi gaplarni hayajon bilan to'kib soldi.

– Nimani nazarda tutayotganimni tushunyapsizmi? Bu onam o'ylaganidek, mening nogironligim yoki bobom aytganidek, Mustaqillik kuni va mushakbozlikni aralashtirib yuborayotganim bilan bog'liq emas. Faqat, sabrsizlik bilan bir narsani uzoq vaqt davomida kutsang... keyin esa shahar kengashidagi janob Boul paydo bo'lib, hammasini yo'qqa chiqarsa. Bu adolatdan emas. Ayniqsa, bu sen uchun juda muhim narsa bo'lsa, tushunyapsizmi?

Al tog'a Martinning kuyib-pishib aytgan so'zlaridan keyin uzoq sukutga cho'mdi. Sukunat shunchalik uzoqqa cho'zildiki, Martin hovuz tomonda kimningdir suvga sakraganini va otasining „Zo'r sakrading, Keyt! Ey-ey, gap yo'q!“ deganini eshitdi.

So'ng Al tog'a xotirjamlik bilan javob qaytardi:

– Albatta tushunaman. Bilasanmi, senga bir sovg'a tayyorlab qo'yanman. Ehtimol, bu senga o'z Mustaqillik kuningni nishonlash imkonini berar.

– O‘z Mustaqillik kunim? Nimani nazarda tutyapsiz?

– Mashinam oldiga boraylik. Senga bir narsa bera-man. – U; Martin og‘iz ochishga ulgurmay beton yo‘lak bo‘ylab qadam tashladi.

Martin aravachasini yurg‘izdi. Hovuzdan uzoqlashgani sari u endi oila a‘zolarining shodon qiyqiriqlarini emas, aravacha g‘ildiraklarining taraqlashini eshita boshladi.

Al tog‘aning tomi ochiladigan „Mercedes“i bor edi. Ota-onasi bu mashinani yoqtirishmas, Martin esa uni ko‘rganda aqldan ozguday quvonardi. Bir marta Al tog‘asi uni mashinasiga o‘tqizib, shahar tashqarisida sayr qildirib ham kelgandi.

Al tog‘a mashina ichidan nimadir oldi va Martin mashina oldiga yetib kelgach qo‘lidagi tugunni unga uzatdi.

– Mana, ol, – dedi Al tog‘a. – Mustaqillik kuni bilan!

Dastlab Martinning ko‘zi xitoycha yozuvlarga tushdi. Keyin tugunni ochdi. Tugun turli xil o‘lchamdagi mushaklarga to‘la edi.

– Ostidagi ipni tortib yerga tashlasang juda ajoyib kamalakni ko‘rasan. Mana bularini esa bo‘sh shisha idishga solib yondirasan.

Al tog‘a qiyqiriqlar ovozi kelayotgan hovuz tomonga ko‘z tashladi.

– Rahmat! – Nihoyat Martin o‘ziga keldi. – Rahmat, Al tog‘a!

– Faqat onangga ularni qayerdan olganligingni aytm, – ogohlantirdi tog‘asi. – Aytishadi-ku, ko‘r otga ko‘z qisishning nima hojati bor? Kelishdikmi?

– Albatta, albatta, – dedi Martin shoshib-pishib, otga ko‘z qisish bilan mushakbozlik orasida qanday umumiy-

lik borligini tushunmasa-da. – Ishqilib, bular sizga kerak-masmidi, Al tog‘a?

– Kerak bo‘lsa yana topishim mumkin, – javob qaytardi Al tog‘a. – Brijtaunda bir tanishim shunaqa narsalar bilan savdo qiladi. – U Martinning boshini siladi. – Mustaqillik kunini bemalol nishonlashing mumkin, faqat hamma uxlaganidan keyin. Baland ovoz chiqaradigan mushaklarni otmay qo‘yaqol, hammani uyg‘otib yuborasan.

Tog‘asi mashinasiga o‘tirdi va kalitni buradi. Mashina o‘rnidan qo‘zg‘aldi. Martin mashina ko‘zdan yo‘qol-guncha minnatdorchilik ma’nosida qaddini egib turdi va tomog‘iga tiqilib qolgan tupukni yutishga urinarkan, bor kuchi bilan yig‘lab yubormaslikka tirishdi. So‘ng tugunni yashirib, aravachasini xonasi tomon yurgizdi. U tezroq qorong‘i tushib hamma uxlashini sabrsizlik bilan kuta boshladi.

Bu oqshom u hammadan avval uxlashga yotdi. Uning oldiga onasi kirdi va (uning adyol orasidan ingichka yog‘ochdek chiqib turgan ozg‘in oyoqlariga qaramaslikka urinarkan) xayrli tun tilab uni o‘pdi. – Tuzukmisan?

– Ha, oyi.

Onasi nimadir demoqchi bo‘ldi, lekin so‘z topolmay boshini sarak-sarak qilganicha chiqib ketdi.

So‘ngra opasi yugurib kirib uning ustiga engashdi va shivirladi:

– Xo‘sh, qalay? Sen nogiron bo‘lganing uchungina istagan narsangni olavermaysan.

– Agar menda nima borligini bilganingda og‘zing ochilib qolardi, – dedi Martin yumshoqlik bilan. Keyt xonadan chiqib ketish oldidan unga shubhali nazar tashladi.

Oxirida otasi kirib karavot chetiga o‘tirdi.

– Tuzukmisan, oshna? – dedi u soxta quvonch bilan. – Negadir erta kunda yotib olibsan. Judda erta.

– Charchadim, dada.

– Okey, – u Martinning yog‘ochdek oyoqlariga shapatiladi va o‘rnidan turdi. – Afsus, mushakbozlikni bekor qilishibdi. Hechqisi yo‘q, kelasi yili hammasi yaxshi bo‘ladi. Ey-ey! Xafa bo‘lma! – U xonani tark etdi.

Martin javob o‘rniga sezilar-sezilmas jilmaydi.

Uydagilarning joy-joylariga tarqalishlarini uzoq kutishga to‘g‘ri keldi. Mehmonxonadagi televizor ishlashda davom etar va ekrandagi ommaning soxta kulgilarini tez-tez opasining xiringlashi bosib ketardi. Onasining telefonida kimnidir tabriklayotgani eshitildi. „Ha, – derdi u, – afsus mushakbozlikni bekor qilishibdi. Menimcha, hozirgi vaziyatni hisobga oladigan bo‘lsak, bu juda to‘g‘ri qaror. Ha, albatta, Martin qattiq xafa bo‘ldi“. Suhbat so‘ngida u kuldi, Martinning oldida u hech qachon bunaqa kulmasdi.

Soat millari yetti yarimdan sakkizga, keyin to‘qqizga keldi, u xaltaning joyida turganligiga ishonch hosil qilish uchun tez-tez qo‘lini yostiq ostiga suqardi. To‘qqiz yarimda, oy ancha balandga ko‘tarilgandagina uy asta-sekin sukutga cho‘ma boshladi. Televizorning o‘chirilgani va Keytning boshqa dugonalari kech yotishlari haqida to‘ng‘illagancha yotoqxonaga kirib ketgani eshitildi. Keyin esa ota-onasining past ovozda gaplashayotgani eshitildi. Va...

...Va u baribir uxlab qolibdi, chunki qo‘lini yostiq ostiga tiqqanida uyda sukunat hukmron ekanligini, oy esa ancha yorqin nur sochayotganligini angladi. U shoshib-pishib xaltani va oldindan tayyorlab qo‘yilgan bir quti gugurtni olib cho‘ntagiga soldi. U endi karavotdan tushishga tayyor edi.



Martin uchun bu qiyin ish bo'lsa-da, lekin atrofidagilari, o'ylashganidek og'riqli emasdi. Uning oyoqlari sezish qobiliyatidan mahrum edi, shuning uchun u hech qanday og'riqni his qilmasdi. U ikkala qo'li bilan karavot chetini ushladi va bir amallab oyoqlarini pastga tushirdi. So'ng karavotidan boshlanib, butun xonani aylantirib bog'langan tutqichni ushladi. Martin tutqichga tayangancha aravachasiga o'zini tashadi.

Biroz nafasini rostlagach, u diqqat bilan atrofga quloq soldi, „Baland ovoz chiqaradigan mushaklarni otmay qo'yaqol, hammani uyg'otib yuborasan“, degandi Al tog'a. Uydagi chuqur sukunatga quloq tutgan Martin tog'asining haq ekanligini tushundi. U o'z bayramini yakka o'zi nishonlaydi va buni hech kim bilmaydi. Erta-ga mushak qoldiqlarini ko'rishsa ko'rishar. Buning ahamiyati yo'q.

U tepkini bosdi. O'ziyurar aravachaning chiroqchasi yondi. Martin o'ngga burilish tugmasini bosdi va aravacha o'ngga burildi. Tashqariga chiqadigan eshikka yuzlangach, Martin „Oldinga“ deb yozilgan tugmani bosdi, aravacha oldinga yurdi.

Martin eshik zulfinini sekin tushirdi va tashqariga chiqdi. Ayvonda u xaltani yirdi va yozning sehrli tuni, chigirtkalarining bir maromda chirillashi, bilinar-bilinmas shabada, barglarning shitirlashi va oy yog'dusi oldida maftun bo'lib turib qoldi.

U ortiq kuta olmasdi. Martin dastlabki mushakni olib gugurt chaqdi, mushak ko'k va yashil uchqunlar sachratib yuqoriga ko'tarildi.

To'rtinchi iyul, – o'yladi u va uning ko'zlari chaqnab ketdi. – Bu mening, faqat mening bayramim, mening eng quvonchli bayramim!

Martin vaqtini o'tkazmasdan navbatdagi mushakni yondirdi va sap-sariq rangli olovdan ko'z uzolmay qoldi. Mushak yonib tugashini kutmasdan u yana navbatdavisini yondirdi, bu safar qip-qizil ranglar shu'lasini atrofni yoritdi.

U qo'li bilan paypaslab xalta ichidan bir bog'lam mushakni oldi. Lekin Al tog'asining so'zlari yodiga tushib, uni hozir otish dahshatli hodisa bo'lishini – mushakning ovozi hammani uyg'otib yuborishi mumkinligini o'yladi.

U mushakni tizzasiga qo'ydi va xaltani titkilab boshqa mushakni oldi. Martin pilikni tutashtirib mushakni osmonga otdi.

Qondek qip-qizil shu'la o'tloqni yoritdi... va bu yorug'lik ichida Martin butalar orasidan yarim irillab-yarim yo'talib chiqib kelayotgan ulkan maxluqni ko'rdi.

U bir necha soniya o'tloq chetida havoni hidlab turib qoldi, so'ng nogironlar aravachasida qo'rquvdan ko'zi qinidan chiqib ketay deb o'tirgan Martin tomon qadam tashladi. U bukchaygancha aravachasi suyanchig'iga qapishdi. Maxluq xuddi odamlardek ikki oyoqda tik turib kelardi. Uning yashil ko'zlari o'rtasida qip-qizil cho'g' yonardi. U asta-sekin yaqinlasharkan, vaqti-vaqti bilan to'xtab, havoni hidlardi. Yirtqich uzun kurak tishlarini ko'rsatib irilladi.

Xuddi odamning qo'liga o'xshaydigan tirnokli panjalar bolaning tomog'i tomon cho'zildi. Bolakay shu onda hali ham qo'lida bir bog'lam mushakni ushlab o'tirganini angladi. Martin beixtiyor gugurt chaqib, pilikni yondirdi. Pilik atrofga uchqun sachratgancha vishillab yona boshladi. Bo'ri-odam o'zini orqaga tashladi va xuddi odamlardek ovoz chiqardi.

Shu onda Martin qo'lidagi mushakni xaltaga solib, xaltani bo'ri-odamning tumshug'iga otdi va mushaklar bi-

rin-ketin otila boshladi. Maxluq etni junjiktiradigan ovozdada o'kirdi, og'riq va g'azabdan o'zini yo'qotgancha kuyib qolgan tumshug'ini ushladi. Birdaniga to'rtta mushakning otilishidan keyin Martinning ko'z oldida maxluqning cho'g'dek yonayotgan ko'zlaridan biri oqib tushdi. U yana o'kirdi, bu safar og'riqqa chidolmay panjalarini yuziga bosdi. Uyda birin-ketin chiroqlar yona boshladi, maxluq ortiga o'girildi va o'kiringancha o'rmon tomonga otildi.

– Nima bo'ldi?! – hayajonlanib so'radi Martinning onasi. Bu safar uning ovozi ilgarigidek hissiz emasdi.

– Kim u, jin urgur? – baqirdi otasi.

– Martin? – dedi qaltiroq ovozda Keyt. – Martin, tuzukmisan? Uning ovozida ham odatdagi nafrat yo'q edi.

Faqat Koslo bobogina dong qotib uxlab yotardi.

Martin aravachasiga holsizgina suyangancha, mushakning asta-sekin so'nayotganini kuzatardi. U shunday dahshatga tushgandiki, hattoki yig'lashga ham holi qolmagandi. Ertasiga uni Vermont shtatiga, Jim tog'a va Ida xolalarnikiga butun yozgi ta'tilni o'tkazib kelish uchun jo'natib yuborishdi (Bu politsiyaning maslahati bilan qilindi, chunki to'lin oy qotili Martinni xavfli guvoh sifatida o'ldirishga urinishi mumkin edi).

U bo'ri-odamning qo'rqinchli qiyofasini ko'rgan va tirik qolgan ilk guvoh. Va uning ko'nglida hech kim bilan, hattoki uni tushunadigan Al tog'asi bilan ham baham ko'rmaydigan bolalarcha quvonch bor edi. U mushakbozlik bo'lganidan baxtiyor edi...

## **Avgust**

– Bo'ri-odam bo'lganiga mutlaqo ishonmayman, – dedi konstabl O'Niri ovozining boricha. Stanning sarta-roshxonasidagi hamma mijozlar jim bo'lishdi. Taker

Millzda keyingi o'n yillikdagi eng issiq avgustning ikkinchi yarmi edi. Ikki kundirki, to'lin oy nur sohib turar va butun shahar nafasini ichiga yutganча navbatdagi qotillikni kutardi.

Konstabl O'Niri yig'ilganlarga bir-bir ko'z yugurtirdi va o'z fikrini davom ettirdi.

– Shunday kishilar bo'ladiki, – dedi u, – xuddi ikkita odamga o'xshashadi. Shaxs ikkilanishiga o'xshagan narsa, tushunyapsizlarmi?

U yig'ilganlarning o'ziga hurmat bilan qarashayotganidan huzurlanib biroz sukut saqladi, so'ng gapida davom etdi.

– Bu odam ham oy to'lganda ko'chaga chiqib odam o'ldiradigan, lekin nima qilayotganini o'zi bilmaydiganlar toifasidan bo'lishi kerak. Aslida u har kim bo'lishi mumkin – bank kassiri, yonilg'i quyish shoxobchasi mexanigi. Ehtimol, u hozir oramizda o'tirgandir. Garov o'ynashim mumkinki, u qalban yirtqich, tashqi ko'rinishidan esa oddiy odam. Lekin bo'riga aylanadigan odam yo'q, bu bolalar uchun ertak, xolos.

– Koslavlarning o'g'li to'g'risida nima deysan? – so'radi Stan.

– Bu aynan mening fikrimni tasdiqlaydi, – dedi O'Niri. – Bunday bema'nilikka faqat bolalargina ishonishadi.

Martin Koslavning shaharchada olti kishini o'ldirgan qotilni ko'rgan birinchi guvoh bo'lganligi konstablning asabini qo'zigandi. Buning ustiga, unga bolani so'roq qilishga ruxsat berishdimi? Yo'q. Bolaning qayerdaligini biladimi? Yo'q! Chunki u oddiygina qishloqi bir politsiyachi-da! U faqat tirmizakning ko'rsatmalarini o'qiy oldi, xolos. Agar uning gapiga ishonadigan bo'lsa, „yirtqich“ning bo'yi yetti futdan ortiq, butun tanasi jun

bilan qoplangan. Uning tishlari uzun-uzun, ko'zlari yashil. Bu hali hammasi emas. Uning odam qo'llariga o'xshagan qo'llarida uzun tirnoqlari bor. Dum ham bor. Dum! Qanday bema'nilik!

– Balki, – dedi Kenni Franklin, – balki, qotil butun a'zoyi badanini bo'yab olgan odamdir? Niqob taqqanmi?

– Bunga ishonmayman, – e'tiroz bildirdi O'Niri qizishganча.

– Yo'q, janob! Bunga hech qachon ishonmayman! Mishiқи bola maktabda bo'ri-odam haqidagi hikoyalarni eshitib olgan va kuni bilan aravasida o'tirganча u haqida o'ylagan. Bu mantiqqa mos keladi, to'g'rimi? Agar o'sha tunda butalar orasidan sen chiqib kelganingda ham u, baribir, bo'ri deb o'ylagan bo'lardi!

Kenni iljaydi.

– Yo'q, – ming'irladi O'Niri. – Bu bolakayning ko'rsatmalari hech narsaga arzimaydi.

Martin Koslavning ko'rsatmalaridan norozi bo'lgan konstebel O'Niri boshqa bir taxminini aytib yuborishiga sal qoldi.

– To'rtala mushak ham uning yuzi oldida portlagan, hammasi bir vaqtda. Agar uning bir ko'zi, aniqrog'i, chap ko'zi ko'r bo'lib qolgan bo'lsa ham ajablanmayman.

Agar konstebel O'Niri bu fikrida qat'iy turganida ham, 1984-yilning bu jazirama avgustida, shaharchada faqat bir kishi ko'zini bog'lab yurganini ko'rib, o'z taxminidan kulgan bo'lardi: shaharchadagi barcha odamlar ichida, eng oxirida o'sha kishidan gumon qilinishi mumkin edi. O'Niri qotil o'z onasi bo'lishi mumkinligiga ishonishi ehtimol, lekin bu kishining qotil ekanligiga o'laqolsa ishonmasdi.

– Bu ishni ochishning bitta yo‘li bor, – dedi O‘Niri, devor yonidagi kursida navbat kutib o‘tirgan to‘rt-besh kishiga qarata semiz barmog‘ini niqtarkan. – Bu vijdonli politsiyachi tekshiruvi. Va bu ishni men o‘z zimmamga olmoqchiman. Men qotilni tutib keltirganimda shtat federal politsiyasidagi oliftalar ahmoqona fikrlarini bas qilishadi.

O‘Nirining yuzida orzu ifodasi aks etdi.

– U har kim bo‘lishi mumkin, – ming‘irladi u. – Bank kassiri... yonilg‘i qo‘yish shoxobchasi xizmatchisi... kecha barda sen bilan birga pivo ichgan yigit. Haqiqiy politsiyachi bu jumboqni yechadi. So‘zlarimni yodda tutinglar.

Oy shu‘lasida kumushdek tovlangan, ulkan bo‘ri Taker Millzga chiqish yo‘lidagi chorrahada turgan „dodj-pikap“ mashinasi ichiga kirib olgach, O‘Nirining politsiyachilik faoliyati barham topdi.

U irillashni eshitdi va xuddi hayvonot bog‘idagi sherining qafasidan keladigan hidga o‘xshash hidni tuydi. Orqasiga o‘girilarkan, u yam-yashil ko‘zni ko‘rdi. Katta jag‘lar ochilgach, uning ko‘zi uzun tishlarga tushdi. Yirtqich mazax qilgandek o‘tkir tirnoqlari bilan uning yuzini tirnadi. Qon tizillab otildi. O‘Niri yelkasida qaynoq qonni his qildi. U qichqirib yubordi. Yirtqichning ortida to‘lin oy xira nur sochardi.

O‘Niri kamariga qadalgan to‘pponchasini unutilib qo‘ygandi. Vijdonli politsiyachi tekshiruvi ham uning esidan chiqib ketgandi. Buning o‘rniga uning xayoliga ertalab sartaroshxonada Kenni Franklin aytgan so‘zlar keldi. „Balki, qotil butun a‘zoyi badanini bo‘yab olgan odamdir? Niqob taqqanmi?“.

Bo‘ri-odam uning tomog‘iga chang solayotganda O‘Niri niqobning yirtilgan ovozini eshitish va qotilning

yuzini ko‘rish umidida jonholatda yirtqichning tumshug‘idan changallab tortdi.

Lekin g‘azab va og‘riqqa to‘la yirtqich o‘kirig‘idan boshqa hech narsa yuz bermadi. Tirmoqli qo‘l – ha, u aynan qo‘lni ko‘rdi, qanday g‘ayritabiiy bo‘lmasin bolakay haq ekan – uning tomog‘ini yirtib tashladi. Mashina oynasi qonga bo‘yaladi.

Bo‘ri-odam O‘Nirining yangi qirtishlangan boshidan tortib mashina ichidan chiqardi. So‘ngra tantanavor irilladi va politsiyachining bo‘yniga tishini botirdi.

### **Sentabr**

Oy oxirlab borar, to‘lin oy kechasi yaqinlashib kelmoqda edi va Taker Millzning sarosimaga tushgan aholisi qo‘rquv bilan oy to‘lishini kutardi, lekin hech narsa yuz bermadi. Dunyoning qayeridadir birin-ketin beysbol musobaqalari o‘tar va futbol mavsumi boshlangandi. Kanada tog‘larida esa qalinligi bir fut qor yog‘gandi. Lekin yer sharining bu burchagida hali ham yoz o‘z huquqini talab qilayotgandi. Uch hafta ilgari bolalar maktabga qaytishgandi. Zerikarli sinf xonalarida kuyib-pishib o‘tirishga mahkum bu bolalar o‘zlaricha baxtsiz edilar. Er va xotinlar hech qanday sabablarsiz janjallashishardi. Shaharchaga kiraverishda joylashgan O‘Nilning yonilg‘i quyish shoxobchasida qandaydir sayyoh Paki O‘Nil bilan benzin narxi masalasida janjallashib qoldi va Paki uni benzin shlangi bilan bir soldi. Oqibatda, Nyujersilik yigitchaning yuqori labi yirtildi. U tishlarini g‘ijirlatib allaqanday sud jarayonlari haqida g‘o‘ldiragancha uzoqlashdi.

– Bilmadim, unga yana nima kerak ekan, – dedi Paki kechqurun qovoqxonada. – Men uni sal turtib qo‘ydim,

xolos, tushundingmi? Agar uni bor kuchim bilan urganimda uning og‘zini butunlay qiyshaytirib qo‘yardim, tushundingmi?

– Albatta, – dedi Billi Robertson, xuddi agar uning so‘zini ma’qullamasa Paki uni ham uradigandek. – Yana pivo ichasanmi, Pak?

Milt Shturmfyuller xotinini idish yuvish mashinasi yuvgan likopda tuxum qoldig‘i qolganligi uchun kaltaklagandi. U likobdagi sariq dog‘ga qaradi va xotinini boplab tushirdi. Paki O‘Nil aytganidek, Milt uni „bor kuchi bilan“ urdi.

– La’nati, – dedi u burni qonab yerda yotgan Donna Lining tepasida turarkan. – Onamning idish yuvish mashinasi bo‘lmasa ham idish-tovoqlar doim toza turardi. Sen nima qilyapsan?!

Keyinroq Milt Portlend kasalxonasidagi shifokorga Donna Li zinadan yiqilib tushganligini aytadi. To‘qqiz yildan buyon oilaviy konslagerda yashayotgan Donna Li buni tasdiqlaydi.

Kech soat yettilarda to‘lin oy ko‘tarildi, shamol turdi – uzundan uzoq davom etgan ushbu mavsumdagi dastlabki sovuq shamol. U shimol tomondan bulutlarni haydab keldi va oy goh ularning ortiga o‘tib, goh yana paydo bo‘lib bulutlar bilan biroz berkinmachoq o‘ynadi. So‘ngra, bulutlar qalinlashdi va oy g‘oyib bo‘ldi. Havo tundlashdi. Hamma uyiga shoshilardi.

Tungi soat ikkilarda, shahardan yigirma mil narida joylashgan Vesi Stedj Rouddagi Almer Sinnemanning cho‘chqaxonasida dahshatli chiyillash eshitildi. Almer pijamasini yelkasiga tashladi, shippagini kiydi va qurolini olish uchun o‘rnidan turdi. Xotini Almerdan uning tashqariga chiqmasligini o‘tinib so‘ray boshladi.



Almer uni itarib yubordi va eshik yonida turgan miltig'ini qo'liga oldi. Uning cho'chqalari nafaqat chiyil-lashar, balki, xuddi tushida odamxo'r qotilni ko'rgan yosh qizchalardek yurakni larzaga solib qichqirishardi.

U miltiq tepkisini tushirmoqchi bo'ldi va dahshatli ovozni eshitib, turgan joyida qotib qoldi. Bu bo'ring uvullashi edi, lekin unda qandaydir insoniy ovoz bor edi va bu ovoz Almer Sinnemanni ortiga, oshxonaga qaytish-ga majbur qildi. Almer xotini quchoqladi, ular divanga o'tirishdi va xuddi yosh go'daklardek qaltiray boshlashdi.

Cho'chqalarning chiyillashi asta-sekin tina boshladi va tez orada butunlay to'xtadi. Ha, ular chiyillamay qo'yishdi. Ularning ovozi birin-ketin o'chdi. Yirtqich yana uvulladi. Uning ovozi qo'rqinchli edi.

Almer derazaga yaqinlashdi va nimaningdir – aynan nima ekanligini anglolmadi – bir sakrab qorong'ilikka singib ketganini ko'rdi.

So'ngra deraza oynalarini yuvganicha yomg'ir yog'di. Bu ilk, haqiqiy kuz yomg'iri edi.

Ertalab Almer cho'chqaxonasida o'zi taxmin qilgan manzaraning guvohi bo'ldi. To'qqizta cho'chqaning bar-chasi va ikkita sigiri o'lib yotar, ularning tanasi bo'lib tashlangan, yarim yeyilgan holatda edi. Ularning chano-g'idan chiqib ketgan ko'zlari kuzning sovuq osmoniga tikilganicha qotib qolgandi.

Almerning Minodan yetib kelgan ukasi Pit uning yo-nida turardi. Ular uzoq jim turishdi. Keyin Almer anchadan buyon o'ylayotgan gapini gapirdi.

– Sug'urta ayrim narsalarni qoplaydi. Hammasini emas, ayrimlarini. Qolganiga men zarar ko'radigan bo'ldim. Harqalay, odamlardan ko'ra cho'chqalarning o'lgani yaxshiroq.

Pit bosh irg'adi va keskin dedi:

– Balki, yetar!

– Nimani nazarda tutyapsan?

– Nimani nazarda tutayotganimni bilasan. Kelasi to'lin oy kechasida 40 kishi o'ladi, yoki 60, yoki 160... Ahmoq ham tushunib turgan narsani tushunmaslikka olishning keragi yo'q. Buni qara, Xudo haqi!

Pit yerga imo qildi, cho'chqalarning nimtalangan tanalari yonida katta-katta izlar bor edi.

Ular bo'ri iziga o'xshardi va ayni paytda hayratlanarli tarzda inson oyoq izlarini eslatardi.

– Mana bu la'nati izlarni ko'ryapsanmi?

– Ha, – javob berdi Almer.

– Bular bo'ri-odamning izlari, – dedi Pit. – Sen buni bilasan, Alis ham biladi, shahardagi deyarli barcha odamlar buni bilishadi. Jin ursin, hatto men ham bilaman!

U akasiga qaradi. So'ng yana gapida davom etdi.

– Bas, bunga chek qo'yish kerak.

Almer uzoq o'ylandi va javob qaytardi:

– Roziman, lekin kelasi to'lin oyda emas.

– Noyabrgacha kutmoqchimisani?

Almer bosh silkidi.

– O'rmon siyraklashadi va izlarni topish oson bo'ladi.

– Kelasi oy bo'lmaydimi?

Almer Sinneman nimtalangan cho'chqalariga, so'ngra ukasiga qaradi.

– Odamlar yana-da ehtiyotkorroq bo'lishlari lozim, – dedi u.

## **Oktabr**

Martin Koslav Xellouin bayramida sovg'alar olib uyga qaytganida, uy bo'm-bo'sh edi. U aravachasida

to'g'ri yotoqxonasiga kirdi va yarim oyning yulduzlar bilan burkangan sovuq osmonga ko'tarilishini tomosha qilib o'tirdi. Tashqarida, ayvonda sovuq shamol xazonlarni chirpirak qilib aylantirardi. Taker Millzda oktabrdagi to'lin oy kechasi hech qanday qotilliksiz o'tdi. Ayrimlar – ulardan birinchisi Stenli Pelki – sartarosh va yana biri – Kel Bolduin – bu yerdagi yagona avto-do'kon sohibi, dahshat tamom bo'lganiga ishonishardi: qotil o'rmonda yashab yurgan biror daydi bo'lsa kerak, endi u bu yerdan ketgan va qaytib kelmaydi. Boshqalar esa bunday fikrda emasdilar. Ular hisoblab yurishardi: oy to'lgan tunning ertasiga o'rmondan nimtalab tashlangan to'rtta bug'u topilgandi. Uzun kuz oqshomlarida, qovoqxonada pivo ichishar, bahonada qaynoq bahs-munozaralar avjiga chiqardi.

Martin Koslav esa bilardi.

O'sha Xellouin oqshomida ko'chaga chiqishganida, otasi unga rezina niqob olib berdi. Martin niqobni taqib oldi. U aravachasida o'tirar, jonsiz oyoqlarini shol ro'mol yopib turardi.

Martinni otasi furgon mashinada olib yurardi: unda maxsus rels bo'lib, Martin aravachasida mashinadan birovning yordamisiz tusha olardi. U tizzasiga xalta qo'yib olgandi va ular yo'l bo'yidagi barcha uylarga kirib chiqishdi. Qovoqxona, Snikers bari, katolik ruhoniysi uyi, Chanki bary va baptist ruhoniysi uyida uning xaltasi to'ldi. Keyin ular Rendolflarnikiga, Kuinlarnikiga, Diksonlarnikiga va yana o'nlab uylarga borishdi. Martin uyiga bir xalta shirinlik va kutilmagan hodisadan qo'rquv bilan qaytardi.

U bilardi.

U bo'ri-odamning kimligini bilardi.

Martin borgan uylardan birida, Yirtqichning shaxsan o‘zi, to‘g‘ri, to‘lin oy bo‘lmaganligi uchun u odam qiyofasida edi, Martinning niqob ostidagi yuzi devorday oqarib ketganini va qo‘lqop ichidagi barmoqlari mahkam siqilganini sezmagani holda uning xaltasiga qand tashladi. Bo‘ri-odam Martinga qarab jilmaydi va uning boshini siladi.

Ha, u bo‘ri-odam edi. Martin buni bildi. Martin uning ko‘zida tasma borligi uchungina bilgani yo‘q. Bu inson qiyofasi bilan bundan to‘rt oy ilgari yoz tunida, ko‘zidan ajralgan yirtqich tumshug‘i orasida sezilar-sezilmas umumiylik bor edi.

Vermontdan Taker Millzga qaytganidan beri Martin hushyor yurar, ertami-kechmi bo‘ri-odamni uchratishiga va uni tanishiga ishonardi, chunki u bir ko‘zli odam bo‘lishi kerak edi.

U politsiyaga bo‘ri-odamning bir ko‘zi oqib tushganligini aytganida, ular Martinning bu so‘zlariga bosh irg‘ab qo‘yishdi, lekin unga politsiyachilar ishonishmaganday tuyuldi. Ehtimol, uni yosh bola deyishgandir yoki o‘sha tunda ular bu voqeani o‘z ko‘zlari bilan ko‘rmaganliklari uchundir. Nima bo‘lganda ham buning ahamiyati yo‘q edi – Martin uning kimligini bilardi.

Taker Millz – kichkina shaharcha, lekin shu kungacha Martin bir ko‘zli kishini uchratmadi, so‘rab-surishtirishga esa botinmadi. Baribir Taker Millz – kichkina shaharcha. Ertami-kechmi u Yirtqichni o‘z insoniy qiyofasida ko‘radi. Uyga qaytarkan, janob Koslav Martin bugungi bayramda charchaganligi uchun jim bo‘lib qoldi, deb o‘ylayotgandi. Aslida bunday emasdi. Martin o‘sha mushak otilgan tundan beri hech qachon o‘zini bunchalik tetik va bardam his qilmagandi. U bo‘ri-odamni topish

uchun oltmish kun kerak bo'lganligini o'ylardi. Axir Martin katolik edi va shahar chetidagi cherkovga qatnardi.

Uning xaltasiga shirinlik tashlagan va boshini silab qo'ygan bir ko'zi bog'liq kishi katolik emasdi. Yirtqich Lester Lou – baptist cherkovining ruhoniysi edi.

U eshik kesakisiga suyanib, jilmaydi. Martin sariq rangli tasmani aniq ko'rdi. Tasma ruhoniy otaga qaroqchi qiyofasini bergandi.

– Ko'zingizga nima bo'ldi, hazrat Lou? – dedi janob Koslav. – Umid qilamanki, bu jiddiy emas.

Hazrat Lou ma'yus jilmaydi. U bir ko'zidan ajralgandi, lekin hammasi Xudoning irodasi. U yana Martinning boshini silab qo'ydi.

Shunday qilib, Martin oktabr shamolining qo'shig'i, so'nggi barglarning shitirlashiga quloq solib, yarim oyga tikilganicha karavotida yotardi.

U bitta narsani o'ylardi: endi nima qilish kerak?

U hozircha nima qilishni bilmas, lekin bu savolga albatta javob topishini his qilardi.

Bolakay uxlab qoldi, Taker Millzda esa shamol g'uvullagancha oktabrni quvib, o'zi bilan kuzning so'nggi oyini olib kelmoqda edi.

## **Noyabr**

Taker Millzga tund noyabr kirib keldi.

Ruhoniy Lester Lou eshigi oldida turgancha ko'chada yuz berayotgan voqealarni kuzatayotgandi. U hozirgina pochta orqali oltita kitobcha va bitta xat olgandi.

Ko'chada mashinalar tizilib ketgandi. Ular shahardan chiqib ketayotgandi.

Ob-havo ma'lumotiga ko'ra qor yog'ishi kerak edi. Lekin mashinalardagi kishilarni bu narsa qo'rqitolmas-

Martin borgan uylardan birida, Yirtqichning shaxsan o‘zi, to‘g‘ri, to‘lin oy bo‘lmaganligi uchun u odam qiyofasida edi, Martinning niqob ostidagi yuzi devorday oqarib ketganini va qo‘lqop ichidagi barmoqlari mahkam siqilganini sezmaganda uning xaltasiga qand tashladi. Bo‘ri-odam Martinga qarab jilmaydi va uning boshini siladi.

Ha, u bo‘ri-odam edi. Martin buni bildi. Martin uning ko‘zida tasma borligi uchungina bilgani yo‘q. Bu inson qiyofasi bilan bundan to‘rt oy ilgari yoz tunida, ko‘zidan ajralgan yirtqich tumshug‘i orasida sezilar-sezilmas umumiylik bor edi.

Vermontdan Taker Millzga qaytganidan beri Martin hushyor yurar, ertami-kechmi bo‘ri-odamni uchratishiga va uni tanishiga ishonardi, chunki u bir ko‘zli odam bo‘lishi kerak edi.

U politsiyaga bo‘ri-odamning bir ko‘zi oqib tushganligini aytganida, ular Martinning bu so‘zlariga bosh irg‘ab qo‘yishdi, lekin unga politsiyachilar ishonishmaganday tuyuldi. Ehtimol, uni yosh bola deyishgandir yoki o‘sha tunda ular bu voqeani o‘z ko‘zlari bilan ko‘rmaganliklari uchundir. Nima bo‘lganda ham buning ahamiyati yo‘q edi – Martin uning kimligini bilardi.

Taker Millz – kichkina shaharcha, lekin shu kungacha Martin bir ko‘zli kishini uchratmadi, so‘rab-surishtirishga esa botinmadi. Baribir Taker Millz – kichkina shaharcha. Ertami-kechmi u Yirtqichni o‘z insoniy qiyofasida ko‘radi. Uyga qaytarkan, janob Koslav Martin bugungi bayramda charchaganligi uchun jim bo‘lib qoldi, deb o‘ylayotgandi. Aslida bunday emasdi. Martin o‘sha mushak otilgan tundan beri hech qachon o‘zini bunchalik tetik va bardam his qilmagandi. U bo‘ri-odamni topish

uchun oltmish kun kerak bo'lganligini o'ylardi. Axir Martin katolik edi va shahar chetidagi cherkovga qatnardi.

Uning xaltasiga shirinlik tashlagan va boshini silab qo'ygan bir ko'zi bog'liq kishi katolik emasdi. Yirtqich Lester Lou – baptist cherkovining ruhoniysi edi.

U eshik kesakisiga suyanib, jilmaydi. Martin sariq rangli tasmani aniq ko'rdi. Tasma ruhoniy otaga qaroqchi qiyofasini bergandi.

Ko'zingizga nima bo'ldi, hazrat Lou? – dedi janob Koslav. – Umid qilamanki, bu jiddiy emas.

Hazrat Lou ma'yus jilmaydi. U bir ko'zidan ajralgandi, lekin hammasi Xudoning irodasi. U yana Martinning boshini silab qo'ydi.

Shunday qilib, Martin oktabr shamolining qo'shig'i, so'nggi barglarning shitirlashiga quloq solib, yarim oyga tikilganicha karavotida yotardi.

U bitta narsani o'ylardi: endi nima qilish kerak?

U hozircha nima qilishni bilmas, lekin bu savolga albatta javob topishini his qilardi.

Bolakay uxlab qoldi, Taker Millzda esa shamol g'uvullagancha oktabrni quvib, o'zi bilan kuzning so'nggi oyini olib kelmoqda edi.

## **Noyabr**

Taker Millzga tund noyabr kirib keldi.

Ruhoniy Lester Lou eshigi oldida turganicha ko'chada yuz berayotgan voqealarni kuzatayotgandi. U hozirgina pochta orqali oltita kitobcha va bitta xat olgandi.

Ko'chada mashinalar tizilib ketgandi. Ular shahardan chiqib ketayotgandi.

Ob-havo ma'lumotiga ko'ra qor yog'ishi kerak edi. Lekin mashinalardagi kishilarni bu narsa qo'rqitolmas-

di. Ular ov kiyimlarini kiyib olishgan, qo‘llarida qurol, yonlarida tozi itlari bor edi. To‘rt kundan buyon Almer Sinneman va uning ukasi Pit boshchiligidagi bu kishilar shahar tashqarisiga chiqishayotgandi.

Oy to‘lishiga oz qolgandi. Qush ovlash mavsumi allaqachon tugagandi. Bug‘u ovlash mavsumi ham. Lekin ular uchun bo‘ri-odam ovlash mavsumi endi boshlangandi.

Yig‘ilgan odamlarning ayrimlari shunchaki bekor-chixo‘jalar va bu safar ular uchun o‘rmonda dam olish, pivoxo‘rlik qilish, olmaxon va qarg‘a otish uchun bir bahona ekanligini ruhoniy Lou bilardi.

Ular haqiqiy yirtqichlar, o‘yladi Lou va qo‘lini beixtiyor iyuldan beri ko‘ziga bog‘lab yurgan tasmaga uzatdi.

Oxirgi mashina ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi. Ha, ularning ayrimlari shunchaki bekorchilar, lekin ayrimlari – masalan, Almer va Pit Sinnemanlar – o‘ta xavfli.

„Agar bu maxluq, kim bo‘lishidan qat‘iy nazar – odammi yoki hayvonmi – ovga chiqsa, itlar uning iziga tushishadi. – Ruhoniy Lou ikki hafta ilgari sartaroshxonada Almerning mana shu so‘zlarini eshitgandi. – Agar u paydo bo‘lmasa, biz kimningdir hayotini, hech bo‘lmaganda, birortasining chorvasini saqlab qolgan bo‘lamiz“.

Ha, ulardan ayrimlarining – o‘n kishimi, ehtimol yigirma kishidir – qo‘lidan ish keladi. Lekin ruhoniy Louni ular emas, boshqa narsa tashvishga solayotgandi.

Xatlar, mana nima tashvishga solayotgandi uni. Yosh bola qo‘li bilan yozilgan xatlar. U bugun kelgan xatga qaradi. Ilgarigilari bilan bir xil yozuv: „*Ruhoniy Louga, baptist ruhoniysi uyiga, Taker Millz, Meyn 04491*“

Va yana o‘sha tuyg‘u... qurshovga tushgan maxluq tuyg‘usi. U itlar qurshoviga tushgan – jangga tayyor, le-



kin ayni paytda itlar tomonidan yorib tashlanishini tushunib turgan tulki tahlika ostida nimani his qilishini tasavvur qildi.

U eshikni ohista yopdi va bobosidan qolgan soat har bir soniyani sanab turgan mehmonxonaga kirdi. U o'tirdi, Miller xonim haftada ikki marta artadigan stol ustiga diniy kitoblarni qo'ydi va yangi kelgan xatni ochdi. Oldin kelgan maktublardagi singari unda ham na salom-alik, na imzo bor edi. Maktab daftaridan yirtib olingan bir parcha qog'ozga shunday so'zlar yozilgandi:

*„Nega o'zingizni o'ldirmaysiz?“*

Ruhoniy Lou qaltirayotgan qo'li bilan yuzini changaladi. Boshqa qo'lidagi qog'ozni g'ijimladi va stol ustidagi kuldonga tashladi. U cho'ntagidan gugurt chiqardi va ilgarigilari kabi bu xatni ham yoqib yubordi. U xatning yonishini diqqat bilan kuzatib turdi.

O'zining aslida kim ekanligi haqidagi fikr Louning miyasiga ikki tomondan kelgandi. Birinchidan, may tunidagi dahshat – tushida cherkovdagi barcha odamlarning bo'riga aylanib qolishi, keyin esa Klayd Korlissning yorib tashlangan jasadining topilishi. O'shanda u ilk bor o'zida... qandaydir o'zgarish bo'layotganini sezgandi. U buni nima deb atashni bilmasdi. Lekin nimadir joyida emasdi. U ba'zida, to'lin oy paytida, ertalablari ajablanarli tarzda tetik, bardam holda uyg'onardi. Bu hissiyot asta-sekin yo'qolib borar va oy to'lishgan paytda yana paydo bo'lardi.

Tushi va Korlissning o'limini eslarkan, u shu paytgacha o'zi rad etib kelgan boshqa dalillarni ham tushuna boshladi. Masalan, iflos va yirtilib ketgan kiyimlar, tanasidagi ko'kimtir dog'lar va yaralar (ular mutlaqo og'rimas va juda tezlik bilan bitib ketardi). U hattoki ba'

zida qo'llari va... lablarida qotib qolgan qon dog'larini ham rad etardi.

Ikkinchidan, 5-iyul kuni u ertalab bir ko'zidan ajralgan holda uyg'ongandi. Xuddi ko'kimtir dog'lar va tilingan izlardagi singari u bu safar ham hech qanday og'riqni sezmedi – faqatgina chap ko'zi o'rnida bo'shliq paydo bo'lgandi. Endi hammasi ayon bo'lgan, rad etishning iloji yo'q edi: u – bo'ri-odam, u – Yirtqich.

Keyingi uch kun davomida uni yana o'sha tanish hissiyot chulg'ab oldi. Bugun oy to'ladi va ovchilar itlari bilan izg'ib yurishadi. Xo'sh, nima bo'пти! U ular o'ylagandan ko'ra aqlliroq. Ular bo'ri-odam haqida gapirishyapti, lekin odamni emas, faqat bo'rini nazarda tutishyapti. Ular o'z mashinalarida yurishadi – u ham o'z mashinasida yuraveradi. Bugun, tushdan so'ng, u Portlend yo'lidagi birorta mehmonxonaga boradi. Bo'riga aylanganda esa uning yonida hech kim, ovchilar ham, itlar ham bo'lmaydi. Yo'q, ular uni qo'rqitilmasdi, u ulardan qo'rqmaydi.

*„Nega o'zingizni o'ldirmayapsiz?“*

Dastlabki xat shu oyning boshida kelgandi. Unda shunday so'zlar bor edi:

*„Kimligingizni bilaman!“*

Ikkinchisida shunday yozilgandi: *„Agar Xudoga ishon-sangiz shahardan keting. Odamlarni emas, hayvonlarni o'ldirishingiz mumkin bo'lgan biror joyga keting“*

Uchinchi maktub:

*„Bas qiling!“*

Bor-yo'g'i shu – *„Bas qiling!“*

Endi esa:

*„Nega o'zingizni o'ldirmayapsiz?“*

Chunki bunday qilishni istamayman, jahl bilan o'yla-

di ruhoniyl Lou. Menga nima bo'lganini tushuntirib berolmayman. Meni bo'ri tishlamagan, lo'li ayol qarg'amagan. Bu shunchaki... shunchaki sodir bo'ldi.

Bir kuni, o'tgan yilning noyabrida, Sanshayn Xill qabristonida bir necha dona gul uzdim va ularni cherkovdagi guldonga solib qo'ymoqchi bo'ldim. Men ilgari bunday gullarni ko'rmagandim... Shaharga qaytgunimcha ular so'lib qoldi. Hammasi qorayib ketdi. Ehtimol, bu o'shanda boshlangandir. Bunday o'ylashga sabab yo'q, albatta, lekin baribir... Men o'zimni o'ldirmayman. Yirtqich ular, men emas!

Lekin xatlarni kim yozyaptikin?

U bilmasdi, Martin Koslavga bo'lgan hujum haqida Taker Millz gazetalarida hech qanday xabar berilmagan, mish-mishlarga quloq solishni esa Lou o'z qadrini yerga urish deb bilardi. Xellouin bayramiga qadar Martin Lou haqida bilmagani kabi, ruhoniyl Lou ham Martin haqida hech narsa bilmasdi. Yirtqich qiyofasida o'zi bilan nimalar sodir bo'lishi haqida esa hech qanday tasavvurga ega emas, faqat bu davrning boshlanishidagi xavotir va undan keyingi qoniqish hissini bilardi, xolos.

Men Xudoga ishonaman, o'yladi u, xonada borgan sari tezroq yurarkan. Unga mehmonxonada torlik qila boshladi. Men Xudoga ishonaman va o'zimni o'ldirmayman. Men yaxshi ishlar qilaman va agar ba'zida yovuzlik qiladigan bo'lsam nima bo'пти – mengacha ham odamlar yovuzlik qilishgan; yovuzlik ham Xudoning irodasi, agar men la'natlangan bo'lsam, Yaratgan meni kechiradi va o'z dargohiga qabul qiladi. Hamma narsa Yaratganga bog'liq...

U kim ekan-a? Qanday qilib bilsam bo'ladi? To'rtinchi iyul kuni kimga hujum qilganman? Ko'zimdan qa-

nday ajradim? Nima uchun u shu paytgacha jim yurdi? Itlaringizni tezroq yo'qotinglar. Tezroq...

U tobora tezroq yura boshladi, undagi zo'riqish kuchaydi va u siyrak soqoli qalinlashayotganini, yagona ko'zi esa yashil tusga kirayotganini sezmedi. U enkaydi va o'zi bilan o'zi gaplasha boshladi... lekin uning so'zlari irillashga aylanib borardi. Nihoyat, kun tun bilan almashdi. Lou oshxonaga otildi, kiyim ilgichda turgan mashina kalitini oldi va garajga chopdi. U Portlendga yo'l oldi. Dastlabki qor uchqunlari mashina chiroqlari nurida raqs tushgancha yerga tushardi. Lou bulutlar ortidagi oyni, uning kuchini his qildi, ko'krak qafasi oq ko'ylagini yirtgancha kengaya boshladi.

U radio murvatini buradi va o'zini shunchaki... zo'r his qildi! O'sha tunda yuz bergan hodisa yo Xudoning jazosi, yoki taqdir hazili edi – bu juda kulgili, chunki Lou Yirtqichga aylanish uchun Portlendga ketgandi, u o'ldirgan odam esa Taker Millzda yashaydigan Milt Shturmfyuller bo'lib chiqdi... Ehtimol, Xudo shunday bo'lishini istagandir, chunki Taker Millzdagi eng ablah odam aynan Milt Shturmfyuller edi. U o'sha tunda xuddi ilgarigilari kabi xotini Donna Liga ish bilan ketayotganligini aytib uydan chiqib ketgan, uning „ishi“ esa Rita Tennison ismli ayol bilan bog'liq edi.

Ruhoniy Lou. Portlend-Vestburg shossesi bo'yidagi „Oriftvud“ mehmonxonasiga kelgan va Milt Shturmfyuller bilan Rita Tennison ham o'sha noyabr tunida aynan mana shu mehmonxonani tanlashgandi.

Milt kech soat o'ndan o'n besh daqiqa o'tganida mashinasida qoldirgan ichkilikni olib kelish uchun tashqariga chiqdi. U oy to'lgan mana shunday tunda Taker Millzda emasligidan o'zini o'zi tabrikladi va ayni shu lahzada

mushina ustidagi bir koʻzli Yirtqich bir hamla bilan uning boshini uzib tashladi. Milt Shturmfyuller eshitgan soʻnggi narsa boʻri-odamning tantanali uvullashi boʻldi; uning boshi mashina ostiga yumaladi, uning koʻzlari ochiqligicha qotib qolgan, boʻynidan qon shovullab otildirdi. Yirtqich uning jasadida ustiga engashdi va yutoqib qon icha boshladi.

Ertasiga esa Taker Millzdagi uyida oʻzini shunchaki... zoʻr his qilayotgan ruhoniy Lou qotillik haqida gazetada oʻqiydi va shunday oʻylaydi: „U yaxshi odam emasdi. Bu Xudoning irodasi“.

U yana shunday deb oʻylaydi: „Menga xat yozayotgan bola kim ekan-a? Iyulda kimga tashlangandim? Buni aniqlash kerak. Endi mish-mishlarga quloq solmasam boʻlmaydi“.

Ruhoniy Lou koʻzidagi tasmani toʻgʻriladi, gazeta-ni yopdi va oʻyladi: „Hammasi Yaratganning irodasiga bogʻliq, agar Xudo xohlasa, men uni topaman! Va ovozinida oʻchirishga majbur qilaman. Bir umrga“.

## **Dekabr**

Yangi yil kirishiga oʻn besh daqiqa qolgandi. Dunyoning boshqa joylarida boʻlgani kabi yil oxiriga yetayotgan va hamma yerda boʻlganidek, Taker Millzda ham oʻzgarishlar yuz bergandi.

Milt Shturmfyuller oʻlgan va nihoyat uning qullikdan qutulgan bevasi Donna Li shahardan koʻchib ketgandi. Ayrimlar uning Bostonga, ayrimlar esa Los Anjelesga ketganini aytishardi. Bir ayol shaharchada kitob doʻkoni ochgandi, doʻkon yonib ketdi. Sartaroshxona va qovoqhona, Xudoga shukrki oʻz joyida edi. Marhum Klayd Korlissning qoʻlidan hech narsa kelmaydigan

ukalari Alden va Errol hali ham tirik edilar. Shaharda eng shirin pirog pishiradigan Gramma Xeyg infarktdan vafot etgandi. To‘qson ikki yoshli Villi Xarrington Boll stritdagi uyida sirg‘anib yiqilib tushib, oyog‘ini sindirib olgandi. Maktab direktori Olli Parkerning burnidan qon ketib kuchli zo‘riqish degan tashxis qo‘yildi. Yaxshiyamki, miyangiz oqib ketmabdi, dedi shifokor, unga qon bosimiga qarshi dori yozib berayotib va Olliga qirq funtga ozishni maslahat berdi. Ajablanarlisi shundaki, Olli Rojdestvogacha yigirma funtga ozdi. U o‘zini butunlay boshqa odamdek his qilardi. „U butunlay boshqa odamga aylandi“, deb maqtandi uning xotini sirdosh dugonasi Deyl Barniga. Varrak mavsumida Yirtqich o‘ldirgan Bredi Kinkeyd hali ham o‘lganligicha qolgan, nogironlar aravachasida o‘tiradigan Martin Koslav esa ilgarigiday nogiron edi.

Nimadir o‘zgargan, nimadir asl holicha qolgan va Taker Millzda yil qanday – kuchli shamol va Yirtqichning ko‘rinmas tashrifi bilan boshlangan bo‘lsa, shunday oxiriga yetayotgandi.

Koslavlarning mehmonxonasida Martin va tog‘asi Al o‘tirishardi. Ular televizorda Dik Klarkning yangi yil shousini tomosha qilishayotgandi. Martinning tizzasida 38-kalibrli „kolt“ to‘pponchasi yotardi. Uning ichida sof kumushdan tayyorlangan ikkita o‘q bor edi. Alning Xemdenda Mak-Katchen ismli do‘sti bor edi. Bir necha marta rad etishlardan so‘ng u Martinning kumush qoshig‘ini eritishga va ikkita o‘q yasab berishga rozi bo‘lgandi.

– Buning ishlashiga kafolat berolmayman, – dedi Mak-Katchen Alga, – lekin ilshashi kerak. Menga qara, kimni o‘ldirmoqchisan, bo‘ri-odamnimi yoki qonxo‘r maxluqnimi?

– Ikkalasini ham, – dedi Al unga javoban kularkan. – Bu mening jiyanimga. U dahshatli filmlarni sevib tomosha qiladi va o‘ylaymanki, bu unga zo‘r sovg‘a bo‘ladi.

– Bo‘pti, o‘q otilganidan so‘ng uni topsang, menga olib kelib ber, – dedi Mak-Katchen. – Unga nima bo‘lishini ko‘rmoqchiman.

Rostini aytganda, Al nima qilishga ham hayron bo‘lib qolgandi.

U Taker Millzda to‘rtinchi iyuldan beri bo‘lmagan va Martinni o‘shandan buyon ko‘rmagandi. Uning opasi, Martinning onasi Alning sovg‘asidan tepa sochi tikka bo‘lgandi.

– Ahmoq, unga biror narsa bo‘lib qolsa nima qilarding?! Qilayotgan ishingni o‘yladingmi?! – qichqirdi u telefonda.

– Aytishlaricha, uni aynan mushak saqlab qolibdiku, – o‘zini oqlashga urindi Al, lekin telefonda qisqa gudok tovushini eshitdi. Opasi qaysar ayol edi. Eshitgisi kelmagan narsani eshitmasdi.

Keyin esa shu oyning boshida Martin qo‘ng‘iroq qildi.

– Siz bilan ko‘rishishim kerak, Al tog‘a, – dedi u. – Faqat sizga aytadigan gapim bor.

– Oying bilan urishib qolganman, – javob qildi Al.

– Bu juda muhim, – dedi Martin. – Iltimos!

U keldi va opasining ta‘nalarini sabot bilan tingladi, so‘ng Martin bilan birga sayr qilishga ruxsat so‘radi.

Dekabrning ayozli, ochiq kuni edi. Al tog‘asi uni mashinasiga o‘tqazdi va ular yo‘lga tushishdi. Al tog‘a Martinning hikoyasini xavotir bilan tingladi.

Martin hikoyasini mushakbozlik qilgan tundan boshladi. U mushak otib Yirtqichning chap ko‘zini chiqargani-

ni aytib berdi. Keyin esa Xellouin bayrami, ruhoniyl Lou va imzosiz xatlari haqida aytdi. Portlendda Milt Shturmfyuller o'ldirilganidan so'ng yozilgan ikki xatga imzosini qo'yganini ham aytdi.

– Unga hech qanday xat yozmasliging kerak edi, – dedi Al tog'asi. – E, Xudo, Martin, sen adashayotgan bo'lishing mumkinligi xayolingga kelmadimi?

– Keldi, – dedi Martin. Shuning uchun ham oxirgi ikki xatga imzo qo'ydim. Keyin nima bo'lganini so'ramaysizmi? U otamga qo'ng'iroq qilib xat yozayotganimdan shikoyat qilgan-qilmaganini so'ramaysizmi?

– U bunday qilmadimi? – so'radi Al qanday javob bo'lishini sezgan holda.

– Yo'q, – dedi Martin. – U otam bilan ham, onam bilan ham, men bilan ham gaplashmadi.

– Martin, uning bunday yo'l tutganiga yuzlab sabablar bo'lishi mumkin.

– Yo'q. Faqat bitta. U bo'ri-odam, u – Yirtqich va u oy to'lishini kutyapti. Ruhoniyl Lou sifatida u hech narsa qilolmasligi mumkin. Lekin bo'ri-odam qiyofasida ko'p narsa qo'lidan keladi. U meni o'ldirishi mumkin.

Martin bu so'zlarni shunday soddalik bilan aytdiki, Alni deyarli ishontirdi.

– Senga qanday yordam berishim mumqin? – so'radi Al.

Martin unga maqsadini aytdi. Unga ikkita kumush o'q va to'pponcha kerak. U yana Al tog'asining yangi yil arafasida, oy to'ladigan tunda uning yonida bo'lishini istaydi.

– Yo'q, – dedi Al tog'asi. – Sen yaxshi bolasan, Martin, ammo oshirib yuborayotganga o'xshayapsan. Yana bir marta o'ylab ko'r.



– Ehtimol, oshirib yuborayotgandirman, – dedi Martin. – Lekin yangi yil kuni sizga qo‘ng‘iroq qilishib, karavotda mening burdalab tashlangan jasadim yotganligini aytishsa qanday ahvolga tushasiz? Siz shuni istaysizmi, Al tog‘a?

Al nimadir demoqchi bo‘ldi, lekin o‘ylanib qoldi va mashinasini shosse tomon keskin burdi. U Vetnamda jang qilgan va buning uchun taqdirlangandi, u bir necha marta ayollar qo‘ygan tuzoqlarga chap bergandi, hozir esa o‘n yashar jiyanining qarmog‘iga ilingandi. To‘g‘ri, u buni tan olishni istamasdi. Ammo Martin tog‘asini yaxshi biladi, u endi Martinning ittifoqchisiga aylangandi.

To‘rt kundan keyin, o‘ninchi dekabrda, Al tog‘a qo‘ng‘iroq qildi.

– Ajoyib xabar! – e‘lon qildi Martin oila a‘zolariga. – Al tog‘am yangi yil kuni biznikiga kelarkan!

– Hech qachon! – dedi onasi qat‘iy qilib.

Lekin Martinni bu fikridan qaytarishning iloji yo‘q edi.

– Axir uni men taklif qilganman.

Onasi kuni bilan unga norozi qiyofada tikilib yurdi. Lekin ukasiga kelmasligini so‘rab qo‘ng‘iroq qilmadi. Eng muhimi ham shu edi.

Nihoyat vaqt bo‘ldi. Yangi yil arafasi. Al kelmasligiga Martinning onasini ishonchi komil edi. Tashqarida haqiqiy qor bo‘roni bo‘layotgandi. Shamol qor uchqunlarini uchirganча uvullardi. To‘g‘risini aytganda, Martin xavotirga tushib qoldi, lekin Al tog‘asi kech soat sakkizlarda kirib keldi.

O‘n bir yarimda hamma uxlab qoldi. Faqat ular ikkalasigina uyg‘oq edilar. Al tog‘a bu bema‘nilikka ishonmasa-da, ehtiyot shart bitta emas, ikkita to‘pponcha olib

kelgandi. Kumush o'qlar solingan to'pponchani Martinga berdi. Ikkinchisini, 45-kalibrli „magnum“ to'pponchasini esa, agar o'sha maxluq kirib kelsa otaman, degan fikrda (u bu fikriga tobora shubha qilayotgandi, chunki vaqt o'tib borar, biroq bo'ri-odamdan darak yo'q edi) o'zida olib qolgandi.

Ular hozir televizorda Tams Skverdagi Aled Kemikl binosi ustidagi ulkan sharning nur sochishini tomosha qilib o'tirishardi.

Yilning so'nggi daqiqalari o'tib borardi. Televizor qarshisidagi burchakda yangi yil archasi turar, u juda ma'yusga o'xshardi.

– Martin, hech narsa... – so'z boshladi Al tog'a va ayni shu lahzada mehmonxonaning gulli deraza oynasi parcha-parcha bo'lib ketdi. Ichkariga sovuq shamol, qor uchqunlari va... Yirtqich kirib keldi.

Al dahshatdan qotib qoldi. Yirtqich juda ulkan, qo'llari gilamga tekkuday engashib yursa-da, bo'yi yetti fut edi. Uning yagona yashil ko'zi (Martin tasvirlaganday ekan, o'yladi tahlkada Al) atrofga alangladi va nogironlar aravachasida o'tirgan Martinga tikildi. U tishlarini irjaytirganча bola tomon yurdi.

Martin xotirjamlik bilan „kolt“ini ko'tardi. U aravachasida juda kichkina ko'rinardi. Uning oyoqlari xuddi yog'ochdek osilib turardi. Bo'ri-odamning o'kirishi, shamolning chiyillashi, dunyoda bunday voqea qanaqasiga sodir bo'lishi mumkinligi haqida miyasida charx urayotgan fikrlari orasida Al jiyanining ovozi eshitdi:

– Bechora ruhoniy Lou. Men sizni qutqarmoqchiman.

Martin tepkini bosdi. To'pponcha qandaydir bo'g'iq tovush chiqardi.

Bo'ri-odamning o'kirigi boshqacha ohangda yang-

ray boshladi, endi u og‘riqqa chidolmagan hayvonning qichqirishiga aylangandi. U devor tomon uchib ketdi. Devordagi Kure va Iv mo‘yqalamiga mansub asarlar uning ustiga tushdi. Uning dahshatli tumshug‘i qonga bo‘yalgan, yashil ko‘zida esa hayrat ifodasi mujassam edi. U Martin tomonga yana qadam tashladi. Martin to‘pponchani xuddi yosh bola choynak ko‘targanidek ikkala qo‘lida tutib turardi. U kutdi, kutdi... va bo‘ri-odam yaqinlashishi bilan yana o‘q uzdi. Yirtqichning ko‘zi xuddi shamolda o‘chgan shamdek o‘chdi. U deraza pardasiga o‘ralib qoldi. Al oppoq pardani bo‘yayotgan qonni ko‘rdi.

Martinning otasi ko‘zlari qinidan chiqqudek holatda eshikni ochganida bo‘ri-odam cho‘kkalab qolgandi. Alning „magnum“i tizzasida turar, talmovsiraganidan to‘pponchani otish xayoliga ham kelmagandi.

Yirtqich yiqildi... jon talvasasida tipirchiladi... va o‘ldi.

Janob Koslav dahshatdan og‘zini ochganicha qarab turardi.

Martin tog‘asiga o‘girildi, qo‘lidagi to‘pponchadan tutun chiqardi. U horg‘in, lekin xotirjam ko‘rinishda edi.

– Yangi yilingiz bilan, Al tog‘a, – dedi Martin. – Yirtqich o‘ldi. – Shu so‘zlarni aytarkan, u yig‘lab yubordi.

Koslav xonimning eng chiroyli deraza pardasiga o‘ralashib qolgan bo‘ri-odamning ko‘rinishi asta-sekin o‘zgara boshladi. Uning yuzi va tanasini qoplagan junlar yo‘qoldi. Og‘riq va g‘azabdan qimtilgan lablar bo‘shashdi. Panjalari oddiy qo‘lga aylandi.

Pardaga o‘ralgan ruhoniy Lester Lou o‘z qonidan paydo bo‘lgan halqobda yotardi.

Al tog‘a Martinning yoniga keldi va uni yupata boshladi. Otasi esa yerda yotgan jasadga tikildi. Martinning onasi eshik yonida turardi. Al Martinni bag‘riga mahkam bosdi:

– Hammasini zo‘r bajarding, kichkintoy, – shivirladi u. – Men seni yaxshi ko‘raman.

Tashqarida shamol uvullar, qor yog‘ar, Taker Millzda esa yangi yilning ilk daqiqasi tarixga aylanib ulgurgandi.

---

---

## „CHEKISHNI TASHLANG“ KORPORATSIYASI

O‘sha kuni Morrison Kennedi aeroportida o‘tirgancha bir kishini kutardi. U barda tanishini ko‘rib qoldi.

– Jimmi? Jimmi Makkenn?

Ular Atlantadagi ko‘rgazmada uchrashganlaridan buyon Makkenn sal semirgan bo‘lsa-da, ko‘rinishi juda yaxshi edi. Morrison uning kolleжда o‘qib yurgan paytda qanday ashaddiy kashanda, oriq va rangpar bo‘lganligini esladi. Ko‘zlari katta-katta ko‘zoynagi uning yuzini to‘sib qo‘yardi. Endi esa aftidan Makkenn, kontakt linza taqardi.

– Dik Morrison?

– Ha, menman. Ko‘rinishing zo‘r.

Ular ko‘rishishdi.

– Sening ham, – dedi Makkenn, lekin Morrison buning yolg‘on ekanligini bilardi. U juda ko‘p ishlar, yer, ichardi.

– Nima ichasan?

– Burbon, – dedi Morrison va qulayroq joylashib o‘tirib sigaret tutashtirdi. – Birortasini kutib olgani chiqdingmi?

– Yo‘q. Mayamiga ketyapman. Olti million dollarlik shartnoma tuzgani.

– Hali ham „Kreger va Barton“ firmasida ishlayapsanmi?

– Endi men uning vitse-prezidentiman.

– Buni qara! Tabriklayman! Qachondan beri? – Morrison ichi hasaddan emas, jig‘ildoni qaynayotganidan kuyayotganiga o‘zini ishontirishga urinardi. U dori olib og‘ziga soldi.

– Avgustdan beri. Bungacha esa hayotimni o‘zgartirib yuborgan voqealar sodir bo‘ldi. – U Morrisonga diqqat bilan qaradi. – Bu seni qiziqtirishi mumkin.

– Albatta, – javob berdi Morrison stakandagi ichkilikdan ho‘plarkan.

– Ishlarim orqaga ketgandi, – hikoyasini boshladi Makkenn. – Sheron bilan kelisholmay qoldim, otam infarktdan vafot etdi, o‘zim esa tinmay yo‘talardim. Bir kuni xonamga Bobbi Kreger kirdi va tarbiyaviy suhbat olib bordi. Esingdami shunday suhbatlar?

– Bo‘lmasa-chi! – Morrison „Kreger va Barton“ firmasida bir yarim yil ishlagan, so‘ngra „Morton“ agentligiga ishga o‘tib ketgandi.

– „Aqlingni ishlat... yoki jo‘nab qol“.

Makkenn kulib yubordi.

– Shunaqa. Shifokor esa „Oshqozon yarasi boshlanyapti, chekishni to‘xtating“, dedi. Bu „Nafas olishni to‘xtating“, degan bilan baravar.

Morrison bosh irg‘adi. U qo‘lidagi sigaretga qaradi va hoziroq yangisini tutatishini bila turib uni o‘chirdi.

– Shundan so‘ng chekishni tashladingmi?

– Tashladim. Dastlab eplolmayman, deb o‘yladim. Keyin esa bir yigitni uchratib qoldim. U menga Qirq ol-tinchi ko‘chadagi korporatsiya haqida gapirib berdi. Ular haqiqiy mutaxassislar. Men ularga uchrashishga qaror qildim. O‘shandan buyon chekmayapman.

Morrisonning ko‘zlari kattalashib ketdi.

– Ular senga dori berishdimi?

– Yo‘q, – Makkenn cho‘ntagidagi hamyonini olib kavlay boshladi.

– Mana. – U stol ustiga tashrif varaqasini qo‘ydi.

*„Chekishni tashlang“ korporatsiyasi  
To‘xtang! Sog‘lig‘ingiz tutun bilan birga uchib  
ketmoqda!*

*237 Ist, Qirq oltinchi ko‘cha.*

*Oldindan shartnoma tuzish asosida davolash.*

– Istasang, o‘zingda olib qol, – dedi Makkenn. – Ular seni davolashadi. Bunga kafolat beraman.

– Qanaqasiga?

– Buni aytishga haqim yo‘q.

– Nega? Nima uchun?

– Shartnomada shunday modda bor.

– Sen shartnoma tuzganmisan?

Makkenn bosh irg‘adi.

– Va shu asosda...

– Xuddi shunday... – U Morrisonga jilmaydi.

– Agar ular shunchalik zo‘r ishlaydigan bo‘lishsa, bunday poraning nima keragi bor? Nima uchun ularning reklamasini ko‘rmayman, gazetaga e‘lon berishmaydi?

– Ularning mijozlari reklama vazifasini o‘tashadi.

– Sen ham reklama bo‘yicha mutaxassissan, Jimmi. Bunga qanday ishonish mumkin?

– Men ishonaman, – javob qaytardi Makkenn. – Ularning to‘qson sakkiz foiz mijozlari chekishni tashlashadi.

– Bir daqiqa, – dedi Morrison sigaret tutashtirarkan. – Ular seni bog‘lab qo‘yib ko‘ngling ayniguncha chekishga majbur qilishdimi?

– Yo‘q.

– Chekishing bilan o‘zingni yomon his qiladigan biror narsa...

– Yo‘q. O‘zing borib ko‘r. – U Morrisonning sigareti-ga ishora qildi.

– Shuni chekib maza topasanmi?

– Yo‘q, lekin...

– Men chekishni tashladim va hayotimda ko‘p narsa-lar o‘zgardi, – dedi Makkenn. – Kuchimga kuch qo‘shil-di, Sheron bilan munosabatlarim yaxshilandi, ishlarim yurishib ketdi.

– Sen meni qiziqtirib qo‘yding. Biror narsa ayta ola...

– Kechir, Dik. Haqim yo‘q, – dedi Makkenn qat’iy ohangda.

– Chekishni tashlaganingdan beri semirib qolibsan-mi? – so‘radi Morrison va unga Jimmining avzoyi bu-zilgandek tuyildi.

– Ortig‘i bilan. Lekin ortiqcha vazndan qutuldim. Ho-zir vaznim me‘yorida.

– Ikki yuz oltinchi reysga to‘qqizinchi seksiyada ro‘y-xatga olish boshlandi, – e‘lon qilindi ovoz kuchaytirgich orqali.

– Bo‘pti, – dedi Makkenn o‘rnidan turarkan. – Ista-sang yana ich. Dik mening aytganlarimni yaxshilab o‘y-lab ko‘r. – U shu so‘zlarni aytib eskalator tomon ketdi. Morrison tashrif varaqasini olib hamyoniga solib qo‘ydi.

Bir oydan so‘ng Morrison barlardan birida pul to‘la-moqchi bo‘lib hamyonini ochganida tashrif varaqasi polga tushib ketdi. Ishi tobora orqaga ketayotgandi. Morrison pulni to‘lagach, varaqani qo‘liga olib o‘qidi. 237 Ist, Qirq oltinchi ko‘cha – unga uzoq emas, ikki kvartal narida. Ok-tabrning quyoshli kuni edi: balki bir borib ko‘rsammikin...

„Chekishni tashlang“ korporatsiyasi yangi binoda



joylashgan bo‘lib, bu yerda bitta xonaning ijara haqi, ehtimol, Morrisonning bir yillik maoshiga teng edi. Korporatsiya butun bir qavatni egallagan, demak, puli ko‘p.

U liftda yuqoriga ko‘tarildi va gilam to‘shalgan yo‘lakdan o‘tib, katta stol qo‘yilgan keng qabulxonaga kirdi. Bu yerda uch erkak va bir ayol jurnal o‘qib o‘tirishardi. Ko‘rinishidan ular biznesmen edilar. Morrison kotibaga tashrif varaqasini uzatdi.

– Buni menga do‘stim bergandi.

Kotiba jilmaydi va yozuv mashinkasiga qog‘oz soldi.

– Ismi-sharifingiz, janob?

– Richard Morrison.

–Manzilingiz?

– 29, Meynl-leyn, Klinton, Nyu-York.

– Uylanganmisiz?

– Ha.

– Farzandingiz bormi?

– Bitta o‘g‘lim bor. – U Elvinni o‘ylab qovog‘ini uydi: „bitta“ emas, „yarimta“ desa to‘g‘riroq bo‘lardi. Uning o‘g‘li aqlan noqis bo‘lib, Nyu Jersidagi maxsus internatda yashardi.

– Bu yerga kelishni sizga kim tavsiya qildi, janob Morrison?

– Jeyms Makkenn, do‘stim.

– Yaxshi. Marhamat, o‘tiring. Bugun bu yerda odam ko‘p.

– Bo‘pti.

U moviy rang kastum kiygan ayol va tivit pidjakli yigit o‘rtasiga o‘tirib cho‘ntagidan sigaret chiqardi, lekin atrofda kuldon yo‘qligini ko‘rib qaytarib cho‘ntagiga soldi.

Hechqisi yo‘q, ularning o‘yinini biladi, tashqariga chiqqach maza qilib chekadi. Agar bu yerda uzoqroq ku-

tadigan bo'lsa, sigaret kulini oyog'i ostidagi jigarrang gilam ustiga tashlaydi. Morrison „Taym“ jurnalini olib varaqlay boshladi.

Uning badaniga yig'ilib qolgan nikotin yana qo'shimchasini talab qilardi. Morrison dan keyin kelgan bir kishi cho'ntagidan portsigar chiqardi, lekin kul tashlagani idish yo'qligini ko'rgach, cho'ntagiga solib qo'ydi. Buni ko'rib Morrison o'zini yengil his qildi.

Nihoyat, kotiba jilmaygan cha uni ichkariga taklif etdi. Morrison o'zini xira yoritilgan yo'lakda ko'rdi. Sochlari oppoq bir kishi uning qo'lini qisdi va do'stona jilmaydi:

– Ortimdan yuring, janob Morrison.

Ular qator eshiklar yonidan o'tishdi. Yo'lak o'rtasiga yetishganda oq sochli kishi eshiklardan birini ochdi. Ular devorlari oppoq kichkinagina xonaga kirishdi. Xonada bitta stol va ikkita stul bor edi, xolos. Stol ortidagi devorda kichkinagina tuynuk bo'lib, uni ensiz yashil parda yopib turardi. Morrisonning chap tomonidagi devorda qo'lida qog'oz tutgan kishining surati osig'liq edi.

– Mening ismim Vik Donatti, – o'zini tanishtirdi haligi kishi. – Agar davolash kursiga rozi bo'lsangiz, siz bilan men shug'ullanaman.

– Tanishganimdan xursandman. – Morrisonning judayam chekkisi kelayotgandi.

– O'tiring.

Donatti kotiba to'ldirgan qog'ozni stol ustiga qo'ydi, g'aladondan yana bitta qog'oz oldi va Morrisonga qaradi:

– Rostdan ham chekishni tashlamoqchimisiz?

Morrison yo'taldi, oyog'ini chalishtirdi, so'ng javob qaytardi:

– Ha.

– Unda imzo cheking.

U qog'ozni Morrisonga uzatdi. Morrison ko'z yugurtirdi: quyida imzo chekuvchi davolash usullarini oshkor etmaslikka majbur va hokazo va hokazo.

– Bo'pti.

Donatti unga ruchka uzatdi, Morrison imzo qo'ydi. So'ngra qog'oz stol g'aladoniga solindi. Xo'sh, o'yladi Morrison kinoya bilan, qasam ichdim. Oldin ham shunday hol bo'lgandi. U hattoki ikki kun chekmagandi ham.

– Yaxshi, – dedi Donatti. – Biz bu yerda targ'ibot bilan shug'ullanmaymiz, janob Morrison. Salomatlik, sarf-xarajat, ijtimoiy muruvvat masalalari va sizning nima uchun chekishni tashlamoqchi ekanligingiz bizni qiziqitirmaydi. Biz – amaliyotchilarmiz.

– Zo'r, – dedi Morrison e'tiborsizlik bilan.

– Hech qanday dori bermaymiz, ma'ruza o'qimaymiz, pul talab qilmaymiz. Bir yil davomida chekmaganingizdan keyingina pul to'laysiz.

– E, Xudo, – dedi Morrison.

– Janob Makkenn bu haqda aytmaganmididi?

– Yo'q.

– Darvoqe, uning ishlari qalay? Yaxshimi?

– Zo'r! Qoyilmaqom!

– Hozir esa... bir nechta shaxsiy savollarim bor, janob Morrison. Javoblaringiz sir saqlanadi.

– Shundaymi? – dedi Morrison.

– Xotiningizning ismi?

– Lyusinda Morrison. Qizlik familiyasi – Remzi.

– Uni sevasizmi?

Morrison darhol Donattiga qaradi, lekin u muloyimlik bilan tikilib turardi.

– Shunaqa.

– U bilan janjallashganmisiz?

– Chekishni tashlashimga buning qanday daxli bor? – Morrison yumshoqroq gapirmoqchi edi, lekin iloji bo‘lmadi – uning o‘lgudek chekkisi kelayotgandi.

– Bevosita aloqasi bor. Savollarimga javob bering.

– Yo‘q. – Aslida keyingi paytda ularning munosabati haqiqatan ham keskinlashib borayotgandi.

– Farzandingiz bormi?

– Ha. Ismi Elvin, u xususiy maktabda o‘qiydi.

– Qaysi maktabda?

– Buni aytmayman, – Morrison g‘amgin javob qaytardi.

– Mayli, – dedi Donatti va jilmaydi. – Ertaga davolash kursimizning birinchi seansida barcha savollaringizga javob bera olaman.

– Juda yaxshi, – dedi Morrison va o‘rnidan turdi.

– Va so‘nggi savolim: siz bir soat davomida chekma-  
dingiz. O‘zingizni qanday his qilyapsiz?

– Yaxshi, – aldadi Morrison, – juda yaxshi.

– Barakalla, – dedi Donatti va stolni aylanib o‘tib, eshikni ochdi. – Buguncha chekishingiz mumkin. Ertadan boshlab esa bitta ham sigaret chekmaysiz.

– Bo‘lishi mumkin emas!

– Bunga kafolat beramiz.

Ertasiga rappa-raso soat uchda Morrison „Chekishni tashlang“ korporatsiyasi qabulxonasida o‘tirardi. U ertalab rosa ikkilandi: borish kerakmi yoki yo‘qmi.

Nihoyat, Jimmi Makkenn aytgan birgina ibora uni bo‘rishga majbur qildi:

Hayotimda ko‘p narsa o‘zgardi.

Liftga kirishdan oldin u sigaretni filtrigacha chekdi. Ming afsus, agar u oxirgi marta sigaret chekayotgan bo‘lsa.

Bu safar uzoq kutishga to'g'ri kelmadi. Kotiba uni ichkariga taklif qilganida, Donatti allaqachon kutib o'tirardi. U Morrisonga qo'l uzatdi va iljaydi. Morrison o'zini noqulay his qildi va chekkisi keldi.

– Yuring, – taklif qildi Donatti va ular xonaga kirishdi. Donatti stol ortiga, Morrison uning qarshisiga o'tirdi.

– Kelganingizdan xursandman, – dedi Donatti. – Ak-sariyat mijozlarimiz birinchi suhbatdan so'ng qaytib kelmaydilar. Ular chekishni tashlashni istamayotganliklarini tushunib qolishadi. Men jon deb siz bilan ishlayman.

– Davolash kursi qachon boshlanadi? – Gipnoz, o'yladi Morrison, gipnoz bo'lsa kerak.

– Ikkalamiz yo'lakda ko'rishganimizdan boshlangan. Sigaretingiz bormi, janob Morrison?

– Ha.

– Menga bera olasizmi?

Morrison yelkasini qisib qo'yib qutini Donattiga uzatdi. Unda baribir, ikki yoki uch dona sigaret qolgandi.

Donatti qutini stol ustiga qo'ydi, Morrisonga jilmaydi, o'ng qo'lini musht qilib qutini majaqlay ketdi. Quti ichidan singan sigaret uchib chiqdi, tamaki sochildi. Donatti jilmaydi-da davom etdi.

Morrisonning badanida chumoli o'rmalagandek bo'ldi. Ehtimol, ular shu yo'l bilan ta'sir o'tkazishar, o'yladi u.

Nihoyat, Donatti majaqlangan qutini axlat chelakka uloqtirdi:

– Uch yildan beri shu ish bilan shug'ullanib rohat qilaman.

– Bunday davolash kursi naf berarmikin, – dedi Morrison yumshoqlik bilan. – Tashqaridagi do'kondan sigaret sotib olish mumkin.

– Mutlaqo to‘g‘ri, – ma‘qulladi Donatti va qo‘lini ko‘ksiga chalishtirdi. – O‘g‘lingiz Elvin Dous Morrison Peterson aqli noqis bolalar maktabida. Tug‘ma jarohati tufayli u hech qachon tuzalmaydi. Uning aqliy qobiliyati koeffitsienti – 46. Xotiningiz...

– Buni qayerdan bildingiz? – qichqirdi Morrison. U g‘azabga mingandi. – Bunga qanday haqingiz bor?

– Biz siz haqingizda ko‘p narsani bilamiz. – dedi Donatti, – lekin ilgari aytganimdek, bu sir saqlanadi.

– Men ketaman, – dedi Morrison va o‘rnidan turdi.

– Yana ozgina o‘tiring.

Morrison Donattiga diqqat bilan qaradi – u xotirjam edi. Hattoki, bu suhbatdan u zavq olayotgandek. Uning yuz qiyofasidan Donatti bunday holatlarni yuz martalab ko‘rganini bilish mumkin.

– Yaxshi, qolaman. Ishga o‘taylik.

– Albatta. – Donatti stulga suyandi. – Men sizga aytuvdim – biz amaliyotchimiz. Shuning uchun ham biz boshidayoq chekishga bo‘lgan ishtiyoqni davolash qanchalik qiyinligini tushunib olishimiz kerak edi. Chekishni tashlaganlarning sakson besh foizi qaytadan chekishni boshlab yuborishadi. Giyohvandlar orasida esa bu ko‘rsatkich pastroq. Muammo juda jiddiy.

Morrison axlat chelakka qaradi. Bitta sigaret bukilib ketgan, lekin cheksa bo‘lardi. Donatti yozilib kuldi, chelakdagi sigaretni sindirib tashladi.

– Ayrim shtatlarning qonun chiqaruvchilari ba‘zan qamoqxonalarda chekishni man qilishni taklif qilishadi. Ovoz berish paytida bu taklif butunlay yo‘qqa chiqadi. Ba‘zan bu taklif qabul qilingan, lekin qamoqxonalarda g‘alayon ko‘tarilgan, haqiqiy g‘alayon, janob Morrison. Tasavvur qilasizmi?

– Buning menga qizig‘i yo‘q.

– Yaxshilab e‘tibor bering! Biror kishini qamoqqa tashlashganida uni jinsiy aloqa, spirtli ichimlik ichish, siyosiy faoliyat bilan shug‘ullanish, sayohat qilish imkoniyatlaridan mahrum qilishadi. Va hech qanday isyon ko‘tarilmaydi. Lekin mahbuslarga sigaret chekishni taqiqlasangiz – ba-bax! – Donatti o‘z fikrini bayon etish maqsadida stolga musht urdi.

– Keling, davolashni boshlaylik.

– Bir daqiqa. Iltimos, bu yoqqa yuring. – Donatti o‘rnidan turib yashil pardani surdi. Tuynuk ortida bo‘m-bo‘sh xona bor edi. Yo‘q, bo‘sh emas ekan. Burchakda bir quyvon tovoqqa solingan sabzavotni kavshardi.

– Chiroyli quyvon ekan, – dedi Morrison.

– Fikringizga qo‘shilaman. Uni kuzatib turing. – Donatti tokchadagi tugmani bosdi – quyvon ovqatlanishdan to‘xtadi va sakrab tushdi. U oyoqlari yerga tekkach, yanada balandroq sakradi va xona bo‘ylab yugura boshladi.

– Bas qiling! Uni tok urib o‘ldiradi-ku!

Donatti tugmani qo‘yib yubordi:

– Nima deyapsiz, bu juda kuchsiz tok. Quyonga qarang, janob Morrison.

U tovoqdan uch metr narida turardi.

– Agar u ovqatlanayotganda tok uraversa, jonivor bir narsani tushunib yetadi: ovqatlanish – og‘riq. Demak, quyvon ovqat yemay qo‘yadi. Uni bir necha marta tok ursa, quyvon ovqat to‘la tovoq yonida ochlikdan jon beradi. Bu voz kechtirish yo‘li bilan tarbiyalash, deb ataladi.

Morrisonning rangi oqarib ketdi, u eshik tomon yo‘l oldi.

– Bo‘ldi, kerak emas, katta rahmat.

– To‘xtang, janob Morrison.

Morrison eshik tutqichidan tortdi... eshik qulflog'liq edi.

– Oching.

– Janob Morrison! Iltimos, o'tiring!

– Eshikni oching, aks holda politsiya chaqiraman.

– O'tiring, – dedi Donatti sovuq ohangda.

Morrison Donattining qo'rqinchli ko'zlariga qaradi va o'yladi: „Yo, Xudoyim, men telba kishi bilan bir xonada qoldim“ U lablarini yaladi. Umrida uning bunchalik chekkisi kelmagandi.

– Men sizga davolash kursi haqida batafsil gapirib beraman, – dedi Donatti.

– Tushunmadingiz, – e'tiroz bildirdi Morrison soxta xotirjamlik bilan. – Menga kursingiz kerak emas. Men undan voz kechaman.

– Yo'q, janob Morrison, siz tushunmadingiz. Endi boshqa ilojingiz yo'q. Davolash kursi boshlandi, deganimda sizni aldamagandim. Hammasini tushunganga o'xshagandingiz.

– Siz aqldan ozgansiz, – dedi Morrison.

– Yo'q, men amaliyotchi odamman.

– Qani boshlang, – dedi Morrison. – Faqat bilib qo'ying, bu yerdan chiqishim bilanoq besh quti sigaret sotib olaman va ularni politsiya mahkamasiga borgunimcha chekib tugataman.

– O'zingiz bilasiz. Lekin sizga hammasini tushuntirganimdan so'ng fikringizni o'zgartirasiz, deb o'ylayman.

Morrison jim bo'lib qoldi, stulga o'tirib qo'llarini chalishtirdi.

– Davolash kursining dastlabki oyida odamlarimiz doimiy ravishda sizni kuzatib yurishadi, – tushuntirdi Donatti. – Siz ularning ayrimlarini sezasiz, lekin hammasini



emas. Sizni to'xtovsiz kuzatib turishadi. Doimiy ravishda. Agar chekkaningizni ko'rib qolishsa, bu yerga qo'ng'iroq qilishadi.

– Meni bu yerga kelib quyoning o'rniga o'tqazishadi. – Morrison piching qildi, lekin qo'rquvga tushdi. Bu xuddi dahshatli tushga o'xshardi.

– Yo'q, – javob qaytardi Donatti. – Quyoning o'rniga sizni emas, xotiningizni o'tqazishadi.

Morrison unga angrayib qaradi.

Donatti iljaydi.

– Siz esa tuynukdan qarab turasiz.

Suhbat tugagach, Morrison qanday qilib yo'l bosganini bilmadi.

Havo juda yaxshi edi, lekin u buni sezmasdi. Donattining iljaygan qiyofasi uning ko'z oldini to'sib qo'ygandi.

– Tushuning, – degandi u, – amaliy ish amaliy qarorni talab qiladi, biz faqat sizning manfaatingizni o'ylaymiz.

Donattining aytishicha, „Chekishni tashlang“ korporatsiyasiga (xayriya tashkilotiga o'xshagan) suratda tasvirlangan kishi asos solgan ekan. U avtomat o'yinlar, massaj xonalari, yashirin lotereyalar bilan shug'ullangan. Bu kishi, Uch barmoq laqabli Mart Minelli ashaddiy kashanda bo'lgan – kuniga uch quti sigaret chekkan. Uning qo'lidagi qog'oz – shifokorlarning so'nggi xulosasi: o'pka raki. Mart barcha boyligini „Chekishni tashlang“ korporatsiyasiga vasiyat qilib, 1970-yilda vafot etgan.

– Moliyaviy ishlarni iloji boricha silliq olib borishga harakat qilamiz, – degandi Donatti, – lekin biz odamlarga yordam berishdan ko'proq manfaatdormiz. Albatta, bu xayrli ishimiz soliq to'lashda bizga qo'l keladi.

Davolash kursi dahshatli darajada oddiy edi. Birinchi marta qoida buzilsa – Sindini Donatti aytgan „quyonxon“ ga olib kelishadi. Ikkinchi marta bo‘lsa – Morrisonning o‘zi ham jazolanadi. Uchinchisida – ularning ikkalasi birgalikda tok ostiga qo‘yilishadi. To‘rtinchi marta qoida buzilishi yanada qattiqroq jazoga olib keladi. Elvin o‘qiyotgan maktabga bir kishi borib uni do‘pposlaydi.

– Tasavvur qiling, – dedi jilmayib Donatti, – o‘g‘lingiz qay ahvolga tushadi. U nima bo‘layotganini tushunmaydi. Faqat, dadasi yomonligi uchun kaltaklanayotganini biladi, xolos.

– Ablah, – dedi Morrison, u yig‘lab yuborishga tayyor edi, – la‘nati ablah.

– Meni to‘g‘ri tushuning, – dedi Donatti. – Bunday bo‘lmasligiga ishonaman. Mijozlarimizning qirq foiziga jazo qo‘llamaymiz va faqat o‘n foiz mijozlarimiz qoidani uch martadan ortiq buzadilar. Bu raqamlar sizni tinchlantirsa kerak?

Morrison bunda o‘zini tinchlantiradigan hech narsa ko‘rmadi. U dahshatga tushgandi.

– Agar besh marta qoida buzsangiz...

– Nima demoqchisiz?

Donatti iljaydi:

– Siz bilan xotiningiz quyonxonaga, o‘g‘lingiz ikkinchi marta, xotiningiz esa birinchi marta kaltaklanadi.

G‘azabdan aqlini yo‘qotgan Morrison stol ustidan Donattiga tashlandi.

Donatti esa stuli bilan orqaga surildi va ikkala oyog‘i bilan Morrisonning qorniga tepdi. Morrison ortiga uchib ketdi.

– O‘tiring, janob Morrison, – dedi Donatti, – keling, aqlli odamlardek gaplashib olaylik.

Morrison hansiragancha unga bo'ysundi. Bu qo'rqinchli tush qachondir tugar axir?

„Chekishni tashlang“ kornoratsiyasida o'n bosqichli jazo turi bor, degandi Donatti. Olti, yetti, sakkiz marta qoida buzilsa – tok kuchi oshadi, do'pposlashlar tobora dahshatli tus oladi. Agar Morrison to'qqizinchi marta cheksa, uning o'g'lining qo'llarini sindirishadi.

– O'ninchi marta bo'lsa-chi? – so'radi Morrison. Uning tomog'i qurib qolgandi.

Donatti ma'yus bosh chayqadi:

– U holda biz taslim bo'lamiz. Siz ikki foiz tuzalmaydigan mijozlar ro'yxatiga kirasiz.

– Rostdan taslim bo'lasizlarmi?

– Shunaqa desa ham bo'ladi. – Donatti g'aladonni ochdi va stol ustiga 45-kalibrli „kolt“ to'pponchasini qo'ydi. – Lekin ana shu ikki foiz tuzalmaslar ham qaytib hech qachon chekishmaydi. Bunga kafolat beramiz.

Kechqurun televizorda Sindi yoqtiradigan „Bulmat“ filmi bo'layotgandi. Morrison bir soat davomida ming'ir-lab, tipirchilab o'tirdi.

Sindi kinoni bemalol ko'ra olmadi.

– Senga nima bo'lyapti? – so'radi u.

– Hech narsa... – dedi Morrison. – Men chekishni tashladim.

Sindi kuldi:

– Qachon? Besh daqiqa oldinmi?

– Soat uchdan beri.

– O'shandan beri chekkaning yo'qmi?

– Yo'q.

– Zo'r-ku. Chekishni tashlashingga nima majbur qildi!

– Men seni o'yladim... Elvinni.

Sindining ko‘zlari katta-katta ochildi. Dik o‘g‘li haqida kamdan kam gapirardi. U bo‘m-bo‘sh kuldonga qaradi.

– Rostdan ham chekishni tashlamoqchimisan, Dik?

– Rostdan. Agar politsiyaga murojaat qilsam, bezorilar seni do‘pposlashadi, Sindi.

– Agar cheksang ham baribir biz Elvin bilan g‘amxo‘rligingdan minnatdor bo‘lamiz.

– Qaytib chekmayman, deb o‘ylayman, – dedi Morrison va uning qorniga tepayotgan Donattining – qotilning xira ko‘zlarini o‘yladi.

U kechqurun uxlay olmadi, kechasi uchda esa turib oldi. Morrisonning chekkisi kelayotgandi. U pastga tushib, xonasiga kirdi. Bu xonaning derazalari yo‘q edi. Morrison stoli g‘aladonini ochib, sigaret qutisini oldi, atrofga alanglab, lablarini yaladi.

Birinchi oy davomida doimiy kuzatuvda bo‘lasiz, degandi Donatti. Keyin esa ikki oy davomida uni kuniga o‘n sakkiz soatdan kuzatishadi. To‘rtinchi oyda (aynan o‘shanda aksariyat mijozlar yana cheka boshlashadi) yana kuniga yigirma to‘rt soat davomida kuzatuv olib boriladi. Keyin yilning oxirigacha kuniga o‘n ikki soatlik kuzatuv. Keyin-chi? Umrining oxirigacha har qanday paytda kuzatuv boshlanishi mumkin. Umrining oxirigacha.

– Sizni har ikki oyda tekshirishimiz mumkin, – degandi Donatti. – Yoki kun ora bo‘lmasa, har ikki yilda bir haftalik kuzatuv tashkil qilamiz. Hamma gap shundaki, Siz buni bilmaysiz. Agar cheksangiz, biz bilan o‘ynashayotgan bo‘lasiz. Ular kuzatyaptimi yoki yo‘qmi? Xotinimni olib ketishdimi yoki o‘g‘limni do‘pposlagani odam jo‘natishdimi? Zo‘r-a, to‘g‘rimi? Yashirincha sigaret cheksangiz ham undan o‘g‘lingizning qoni ta‘mi kelib turadi.

Lekin hozir tun qorong'isida, ular uni bu xonada kuzata olishmaydi. Uy xuddi qabristondek jimjit edi.

U ikki daqiqacha sigaret qutisidan ko'z uzolmay turdi, so'ng eshik oldiga borib bo'm-bo'sh yo'lakka qaradi, ortiga qaytib, yana segaretga tikildi. U qaytib sigaret chekmasligini tasavvur qildi. Endi u qanday qilib mijozlar bilan qo'lida sigaretsiz gaplashadi? Sindining gullariga sigaret chekmasdan qanday chidaydi? Qanday qilib kunni erta tongda sigaret chekmasdan boshlaydi?

Morrison bu narsaga aralashib qolgani uchun o'zini, Donattini la'natladi, eng dahshatli la'nat o'qlari esa Jimmi Makkennga qaratilgandi. U nima uchun bunday qildi! Itvachcha, hammasini bilar ekan-ku! Xoin Makkenning tomog'idan bo'g'ish istagidan Morrisonning qo'llari qaltirab ketdi. U yana xona ichiga alangladi, sigaretni qo'lga olib uni siladi, labiga qistirdi va qotib qoldi...

Shkaf ichida qandaydir shitirlagan tovush eshitildimi? Yo'q, shekilli. Lekin...

Uning ko'z oldida yana bir manzara namoyon bo'ldi: elektr toki zarbalaridan sakrayotgan quyun. Bu xonada uning o'rnida Sindi bo'lishi mumkin...

Uning butun vujudi quloqqa aylandi. Morrison shkafni ochmoqchi bo'ldi, lekin uning ichida birortasi bo'lishi mumkinligini o'ylab, qo'rqdi. U joyiga kirib yotdi, lekin anchagacha uxlay olmadi.

Ertalab o'zini yomon his qilishiga qaramasdan, nonushta Morrisonga juda yoqdi. Biroz o'ylangach, u yana bitta qovurilgan tuxumni paqqos tushirdi. Sindi pastga tushganida, u tovani yuvayotgandi:

– Richard Morrison! Oxirgi marta itimiz kuchuklik paytida nonushtada tuxum yeganding.

Morrison nimadir deb to'ng'illadi.

– Chekib bo‘lgandirsan? – so‘radi xotini.

– Yo‘q.

– Tush paytiga borib chekasan, – dedi Sindi quvnoqlik bilan.

– Zo‘r yordamchi ekansan, – o‘shqirdi Morrison xotiniga. – Siz chekmaydiganlar o‘ylaysizlarki... ha, mayli.

– Sen rostdan ham chekishni tashlamoqchimisani?

– Albatta. Buning qanchalik jiddiy ekanligini hech qachon bilmaysan, deb umid qilaman.

– Bechora, – dedi xotini. – Sen tirik murdaga o‘xshab qolding.

Morrison uni qattiq bag‘riga bosdi.

Richard Morrison hayotidan lavhalar. Oktabr-noyabr: Morrison „Lorkin studio“da ishlaydigan og‘aynisi bilan Jek Dempsining barida. Og‘aynisi Morrisonga sigaret uzatadi, u rad etadi:

– Men chekishni tashladim.

Og‘aynisi kuladi:

– Ko‘pi bilan bir hafta chidaysan.

Morrison avtobus kutayotib ko‘k kastum kiygan yigitga ko‘zi tushadi. U bu yigitni deyarli har kuni va turli joylarda ko‘radi: Ondi barida, Sem Gudiping musiqa do‘konida. Bir kuni Dik uni o‘zi golf o‘ynayotgan maydonda ham ko‘rib qoldi.

Morrison mehmondorchiliklarda ichadi – judayam chekkisi keladi – lekin bunga qo‘l uradigan darajada mast bo‘lmaydi.

U o‘g‘lini ko‘rgani boradi, unga koptok sovg‘a qiladi. Elvin og‘zidan suvi oqib uni o‘pganida u ilgarigidek jirkanmaydi. Morrison o‘g‘lini quchoqlaydi va Donattilar kompaniyasi bir narsani juda yaxshi anglaganini tushunadi: sevgi – eng kuchli afyun. Xayolparastlar uning

bor-yo'qligi haqida bahslashaverishsin. Amaliyotchi odamlar undan o'z maqsadlari yo'lida foydalanishadi.

Morrison asta-sekin tamakiga bo'lgan jismoniy ehtiyojidan qutuladi, lekin ruhiy ehtiyojidan qutula olmaydi. Shuning uchun doim og'ziga yo'talga qarshi dori, qand yoki sigaret o'rni bosuvchi biror narsa solib yuradi.

Bir kuni Morrison „Midtaun“ tunnelida tirbandlikka duch keldi. Qorong'ilik. Mashinalar to'xtovsiz signal chalishar, atrof tutun hidiga to'lib ketgandi. Morrison qo'qqisidan mashina ichidagi qutichani ochib, uning ichida turgan sigaret qutisini ko'rib qoldi. Sigaret qutisiga birpas qarab turib, ichidan sigaret oldi-da, tutashtirdi. Agar biror narsa bo'lsa, bunga Sindining o'zi sababchi, dedi u o'ziga o'zi. Jin urgur, unga hamma sigaretlarni tashlab yubor, degandim-ku.

Sigaretni ichiga bir tortgandi – qattiq yo'tal tutdi. Ikkinchi tortishda ko'zidan yosh chiqib ketdi, uchinchisida – boshi aylandi. Namuncha achchiq, o'yladi Morrison.

Birdan uning miyasiga boshqa fikr keldi: E Xudoyim, nima qilyapman?

Orqada to'xtovsiz signal chalinardi. Oldindagi mashinalar yura boshladi. Morrison sigaretni o'chirib, mashina oynalarini ochdi va qo'llari bilan tutunni hayday boshladi.

U tirbandlikdan zo'rg'a chiqib uyiga keldi.

– Sindi, men keldim, – dedi u.

Jimjitlik.

– Sindi? Azizam, qayerdasan?

Telefon jiringladi, Morrison shoshib go'shakni ko'tardi:

– Sindi? Qayerdasan?

– Salom, janob Morrison, – dedi Donatti yoqimli, tetik ovozda. – Biz bir masalani ko'rib chiqishimiz kerakka o'xshaydi. Soat beshda oldimga kela olasizmi?

– Xotini sizlardami?

– Shunaqa, – javob qaytardi Donatti.

– Uni qo‘yib yuboringlar, – bidirladi Morrison, – boshqa bunday qilmayman. Uzimni tutolmay qoldim. Bor-yo‘g‘i uch marta tortdim. Xudo haqi, hattoki chekish menga yoqmadi.

– Ming afsus. Demak, soat beshda kelasiz?

– Iltimos, – dedi Morrison. U yig‘lab yuboray dedi, – o‘tinaman...

Lekin Donatti go‘shakni qo‘yib qo‘ygandi.

Soat beshda qabulxonada Morrisonning devordek oqarib ketganiga e‘tibor bermay, unga jilmaygan kotibadan boshqa hech kim yo‘q edi.

– Janob Donatti? – dedi u tugmani bosib. – Janob Morrison keldi. U Morrisonga bosh irg‘adi. – Kiravering.

Donatti uni eshik oldida „jilmaying“ degan yozuvli mayka kiygan va qo‘liga 38-kalibrli revolver tutgan bir barzanggi bilan kutib turardi.

– Menga qarang, – dedi Morrison, – kelishishimiz mumkin. Sizlarga pul to‘layman. Men...

– Ovozingni o‘chir, – dedi maykali kishi.

– Sizni ko‘rganimdan xursandman, – dedi Donatti. – Uchrashuvimiz shunday qayg‘uli holatda kechayotganidan afsusdaman. Men bilan yuring. Tezroq tugatamiz. Xotirjam bo‘ling: xotiningizga hech narsa qilmaydi... bu safarcha.

Morrison Donattiga tashlanmoqchi bo‘ldi.

– Xayolingizga ham keltirmang, – dedi u. – Agar shunday qilsangiz, mana bu kishi revolver sopi bilan boshingizga soladi, xotiningizga esa baribir tok bilan urishadi. Bundan sizga nima foyda?

– Til tortmay o‘lgin, – dedi Morrison Donattiga qarab.



– Agar mana shunday tilaklar uchun besh sentdan olganimda edi, allaqachon nafaqaga chiqsam bo‘lardi. Bu sizga saboq bo‘ladi, janob Morrison. Yuring.

Barzangi uni revolver bilan niqtadi.

Xonaga birinchi bo‘lib Morrison kirdi va haykaldek qotib qoldi. Yashil parda surib qo‘ylgandi. Barzangi uni revolver bilan turtdi. Morrison tuynukdan mo‘raladi va talmovsirab turgan Sindini ko‘rdi.

– Sindi, – dedi u, – Sindi, ular...

– U sizni ko‘rmaydियam, eshitmaydियam, – dedi Donatti. – Keling, tezroq tugataylik. Gunohingiz uncha og‘ir emas – o‘ttiz soniya yetarli, deb o‘ylayman.

Barzangi bir qo‘li bilan tugmani bosdi, ikkinchi qo‘lidagi revolvorni Morrisonning biqiniga tiradi. Uning hayotidagi eng uzoq o‘ttiz soniya edi. Jazolash tugagach, Donatti Morrisonning yelkasiga qo‘lini qo‘ydi va so‘radi:

– Ko‘nglingiz aynimayaptimi?

– Yo‘q, – dedi Morrison zo‘rg‘a va devorga suyanib qoldi – uning oyoqlari qaltiradi.

– Men bilan yuring, – dedi Donatti.

– Qayoqqa? – so‘radi Morrison.

– Xotiningizga biron narsa dersiz?

– Uning ko‘ziga qanday qarayman. Unga qanday aytaman?

Xonada divandan boshqa hech narsa yo‘q edi. Unda Sindi yig‘lab yotardi.

– Sindi, – dedi Morrison.

Xotini yig‘idan qizarib ketgan ko‘zlarini unga tikdi.

– Dik, – pichirladi Sindi, – Dik? E, Xudoyim... Ikki kishi... Uyimizda... Ularni o‘g‘ri deb o‘ylabman, ular esa ko‘zimni bog‘lab bu yerga olib kelishdi.

– O‘zingni bos.

– Lekin nima uchun? – so‘radi xotini. – Ular nima uchun...

– Hammasi meni deb bo‘ldi. Senga bir narsani aytishim kerak.

U hikoyasini tugatib, birpas jim bo‘lib qoldi va dedi:

– Sen mendan nafratlanayotgan bo‘lsang kerak?

Morrison yerga qaradi. Sindi uning yuziga kaftini qo‘ydi va o‘ziga qaratdi:

– Yo‘q. Ketdik uyga.

Bir haftadan keyin kechki payt telefon jiringladi va Donattining ovozi tanigan Morrison dedi:

– Odamlaringiz adashishibdi. Men qo‘limga sigaret ushlaganim yo‘q.

– Buni bilamiz. So‘nggi masalani kelishib olishimiz lozim. Ertaga kechki payt kela olasizmi?

– Bu...

– Qo‘rqmang. Aytgancha, lavozimingiz ko‘tarilgani bilan tabriklayman.

– Buni qayerdan bilasiz?

– Hisob-kitob ishlarini yuritamiz, – dedi Donatti va go‘shakni qo‘ydi.

Ular xonaga kirishgach, Donatti dedi:

– Nega asabiylashyapsiz? Sizni hech kim tishlab olmaydi. Bu yoqqa keling.

Morrison yaqin keldi va yerda oddiy tarozini ko‘rdi.

– Men sal semirdim...

– Ha, ha, ha. Yetmish uch foiz mijozlarimizda bu holat ham kuzatiladi. Marhamat, taroziga chiqing.

Tarozi yetmish to‘qqiz kiloni ko‘rsatdi.

– Yaxshi, tarozidan tushishingiz mumkin. Bo‘yingiz qancha, janob Morrison.

– Bir metr-u yetmish to‘qqiz santimetr.

– Qani, – Donatti cho‘ntagidan qog‘oz chiqardi. – Juda zo‘r. Hozir sizga semirishga qarshi dorilar ro‘yxatini yozib beraman. Ularni kamdan kam iching. Sizning og‘irligingiz ko‘pi bilan... – U yana bir marta qog‘ozga qaradi. – Sakson uch kilo bo‘ladi. Bugun birinchi dekabr, demak, har oyning birinchi kunida vazningizni tortib ko‘ramiz.

– Agar sakson uch kilodan og‘ir bo‘lsam nima bo‘ladi?

Donatti jilmaydi:

– Odamlarimizdan biri uyingizga borib xotiningizning jimjiloq barmog‘ini qirqib keladi. Salomat bo‘ling, janob Morrison.

Oradan sakkiz oy o‘tdi.

Morrison Jek Dempsi barida „Lorkin studios“da ishlaydigan og‘aynisini ko‘rib qoldi. Morrison sport bilan shug‘ullanayotgan, ko‘rinishi zo‘r edi.

– Qanday qilib chekishni tashlading? – suradi og‘aynisi. Morrison unga ma‘noli qaradi, cho‘ntagidan tashrif varaqasini chiqardi.

– Bilasanmi, – dedi u, – mana shu kompaniya hayotimni o‘zgartirib yubordi.

Oradan bir yil o‘tdi.

Morrison pochta orqali to‘lov qog‘ozi oldi:

*„Chekishni tashlang“ korporatsiyasi*

*237 Ist, Qirq oltinchi ko‘cha,*

*N’yu York, N’yu York shtati, 10017*

*Davolash kursi – 2500 dollar.*

*Mutaxassis xizmati (doktor Donatti) – 2500 dollar*

*Elektr xarajati – 50 sent.*

*Jami – 5000 dollar 50 sent.*

– Itvachchalar! – baqirdi u. – Seni qiynashgan elektrni ham hisobga kiritishibdi.

– To‘lay qol, – dedi xotini.

Oradan yana sakkiz oy o‘tdi.

Morrison va Sindi „Xelen Xeys“ teatrida Jimmi Makkenni xotini bilan ko‘rib qolishdi. Ular so‘rashishdi. Jimmining ko‘rinishi ilgarigidan ham yaxshi edi. Morrison uning xotinini endi ko‘rayotgandi. Morrison u bilan qo‘l berib so‘rashdi. Ayolning qo‘l qisishi g‘alati edi. Faqat birozdan keyin Morrison buning sababini tushundi. Makkenni xotining o‘ng qo‘lidagi jimjiloq barmog‘i yo‘q edi...

---

## „GO‘SHTQIYMALAGICH“

Politsiya zobiti Xanton kir yuvish korxonasiga yetib kelganida „tez yordam“ mashinasi darvoza oldidan ogohlantiruvchi tovushsiz, miltillovchi chirog‘ini yoqmagan holda ohistagina qo‘zg‘alayotgan edi. Bu yomon alomat, albatta. Ichkarida hamma idoraga to‘plangan, ko‘pchilik yig‘lab o‘tirardi. Kir yuvish zalining o‘zida esa hech kim ko‘rinmas, faqat zal oxirida o‘ziyuvar bahaybat mashinalar hanuz ishlab turardi.

Bu manzara Xantonga umuman yoqmadi. Odatda, olomon idorada emas, balki baxtsiz hodisa yuz bergan joyda to‘planishi kerak. „Inson“ deb ataluvchi mavjudotning tabiati azaldan shunday: qurbonning qoldiqlarini tomosha qilishdek tug‘ma ehtiyojga ega. Demakki, bu o‘rinda ahvol ancha chatoq. Xantonning ko‘ngli ozib, qayt qilgisi keldi: jiddiy, o‘ta jiddiy hodisalarga duch kelganida hamisha shunday bo‘ladi. Padarqusur shu xizmatiga mana o‘n to‘rt yil bo‘libdiki, ko‘priklar-u ko‘chalar, nihoyatda yuksak binolar poyidagi yo‘lkalardan bus-butun yoki burda-burda jasadlarni yig‘ishtirib yurishga o‘rganib qolganiga qaramay, Xanton bu rasvo odatini hanuz tark etolmaydi. Go‘yo oshqozonida mittigina bir iblis o‘tiribdi-yu, o‘linga ro‘para kelganida vujudining avra-astarini ag‘darib tashlaydi.

Oq ko‘ylakli erkak Xantonga ko‘zi tushgach, xiyol taraddud bilan unga peshvoz chiqdi. Bo‘yni borligi zarra-

cha sezilmaydigan buqaning o'zginasi, burni va yuzlaridagi mayda qon tomirlari yorilib yotgani esa uning qon bosimi yuqoriligi yoki ichkilikka mukkasidan ketganini ko'rsatardi. U og'iz juftlab nimadir deyishga qayta-qayta chog'lanib ko'rdi va nihoyat, Xantonning o'zi savol berib, uni bu mushkulotdan xalos qildi.

– Korxonah sohibi sizmi? Yanglishmasam, mister Gartli bo'lsangiz kerak?

– Yo'q... Men... sarkor Stennerman... E Xudo, qanchalik dahshat-a bu?..

Xanton qo'yin daftarchasini oldi.

– Marhamat qilib, bu baxtsiz hodisa qayerda yuz berganini ko'rsatsangiz. Va qay tariqa sodir bo'lganini so'zlab bersangiz.

Stennerning rangi yana-da oqarib ketdi, har qalay, burni va yuzlaridagi qizil dog'lar tag'in ham aniqroq ko'rinib, baayni norga o'xshab qoldi.

– E... haligi... shartmikan-a shu-a?..

Xanton bir qoshini chimirdi.

– Nachora. Menga telefon qilishganda bu nihoyatda jiddiy hodisa deb tayinlashgandi.

– Jiddiy ham gapmi... – Stenner qayt qilib yubormaslik uchun o'zini arang tutib turardi. – Missis Frauli halok bo'ldi! O, qanday dahshat-a!.. Aksiga olib, shu tobda Bill Gartli yo'qligini aytmayizmi...

– Qani, gapiring-chi, aslida nima bo'ldi o'zi?

– Yuring... Yaxshisi, ko'rsata qolay, – dedi Stenner.

Keyin Xantonni qo'lda ishlatiladigan presslar, ko'ylak taxlovchi qurilmalar yonidan olib o'tib, oxiri kiriyuvgich mashina oldida to'xtadi. Titrayotgan qo'li bilan peshonasidagi terni sidirib tashladi.

– U yog'iga endi... o'zingiz borsangiz. O'sha narsa-

ga... qaytib qaray olmayman, tushuning axir. Ko'rsam, ko'nglim... Ilojim yo'q, xullas. Ma'zur tutasiz endi.

Bu odamdan sal jirkangan ko'yi Xanton u yog'iga o'zi yo'l oldi. Qanaqa odam bular o'zi? Shalog'i chiqib ketgan asbob-uskunalar bilan ishlashadi, soliqlarga chap berishga urinishadi, mana shu quvurlar bo'yicha qaynoq bug'yuborishadi, zaruriy himoya vositalari bo'lmagan holda zararli kimyoviy moddalarni qo'llashadi va oxir-oqibatda, qarabsizki, ertami-kechmi, albatta biron kor-hol ro'y beradi. Kimdir jarohatlanadi yoki o'ladi. Ular esa ko'ringki, bu narsaga qaray olmas emishlar. Ko'ngillari nozikmish... E o'rguldim o'sha ko'ngillaringdan!..

Xanton taqqa to'xtab qoldi.

Odamxo'r mashina hanuz ishlab turardi. Uni o'chirib qo'yishni hech kim xayoliga keltirmabdi. Xanton yaqinroq borib qaragandi, unga tanish ko'rindi: „Xadli-Uotson“ firmasining ichki kiyim, choyshab, yostiqlik kabi yengil buyumlarni yuvib, quritib, dazmollovchi, 6-raqamli andozadagi yarimavtomat qurilma. Nomining uzundan uzoqligi ham mayli-ya, beo'xshov, beso'naqayligini qarang-a!.. Qaynoq bug' va namlik ichida ishlovchi odamlar esa unga munosibroq nom topishibdi: „Go'shtqiyimalagich...“

Xanton bu manzaraga xuddi sehrlangandek bir muddat karaxtlanib qarab qo'ydi. Keyin esa politsiyada benuqson xizmat qilgan o'n to'rt yillik davri mobaynida ro'y bermagan hodisa sodir bo'ldi – u og'zini yopish uchun qo'lini olib bordi-yu, ulgurolmadi – qayt qilib yubordi.

\* \* \*

– Nega hech nima yemading? – deb so'radi Jekson.

Uyga kirib ketishgan ayollarning idish-tovoqlarni sharaqlatishlari, bolalarni tergap turishlari eshitilardi. Jon

Xanton bilan Mark Jekson bog‘da, kursilarda orom olib o‘tirishar, o‘rtadagi barbyukedan esa xushbo‘y hid taralar edi. Xanton lab uchida kulib qo‘ygan bo‘ldi: u chindan ham tuz totmagandi.

– Bugun juda ezilib ketdim, – deya javob qildi keyin. – Bunaqasi hech bo‘lmagan.

– Yo‘l halokati ro‘y berdimi?

– Yo‘q, bir korxonada baxtsiz hodisa.

– Ko‘p qon to‘kildimi?

Xanton darhol javob bermadi. Yuzi iztirobdan burishib ketdi. Yonidagi ko‘chma muzlatkichdan pivo olib, shisha qopqog‘ini ochdi-yu naq yarmigacha nafas olmay simirdi.

– Sizlarning kollejingizda kir yuvish korxonalari ishi o‘qitilmasa kerak, hoynahoy.

Jekson labini qimtdi:

– Nega endi, men o‘zim yaxshi tanishman bu soha bilan. Talabalik paytim bir yili yozda kir yuvish korxonasida ishlaganman.

– U holda ich kiyim, choyshab, yostiq jildi va dasturxon singari yengil buyumlarni yuvish, quritish hamda dazmollash uchun mo‘ljallangan tezkor, yarimavtomat deb nomlanuvchi mashinani bilsang kerak.

Jekson bosh irg‘adi:

– Bilganda qandoq. Asosan choyshab va dasturxonni yuvib, quritib, dazmollab beradi. Uzun hamda katta mashina.

– To‘ppa-to‘g‘ri, – dedi Xanton. – „Blyu ribbon“<sup>1</sup> korxonasida mana shu mashina Adel Frauli degan ayolni ichiga tortib ketdi.

Jeksonning rangi oqardi.

---

<sup>1</sup> „Blyu ribbon“ – zangori tasma.



– Yo‘g‘-e, bunday bo‘lishi mumkin emas, Xanton! Texnik jihatdan mumkin emas axir! Chunki unda saqlagich qurilma, xavfsizlik moslamasi bor. Yuvilgan kirni quritish uchun mashinaga solayotgan ayol bexosdan qo‘lini tiqsa, moslama shu zahotiy oq ishga tushib, mashinani o‘chirib qo‘yadi. Har qalay, buni yaxshi eslayman.

– U yog‘ini so‘rasang, shunga doir qonun ham bor, – deya bosh irg‘adi Xanton.

– Ammo shunga qaramay, baxtsizlik ro‘y berdi.

U ko‘zlarini horg‘ingina yumdi, ko‘z ongida yana oltinchi raqamli andozadagi „Xadli-Uotson“ tezkor quritkichi namoyon bo‘ldi. Uzunligi o‘ttiz, balandligi olti fut keladigan, to‘g‘ri burchakli mahobatli mashina. Quritiladigan kir uzluksiz uzatilib turuvchi tomonida, tepada saqlagich moslamasi bor. Konveyerning ho‘l va g‘ijim choyshablar qo‘yiladigan tasmasini mashinaning asosiy qismi bo‘lgan o‘n oltita bahaybat silindr aylanib harakatga keltiradi. Aytaylik, choyshab avvaliga yuqoridagi sakkiz silindr ustidan, keyin esa pastdagi sakkiz silindr ostidan o‘tadi, go‘yoki qovurilgan ikki bo‘lak non o‘rtasiga qo‘yilgan dudlangan cho‘chqa go‘shtining bir parragi deyavering. Silindrlardagi bug‘ harorati esa Farengeyt bo‘yicha naq 300 darajaga yetishi mumkin. Konveyer tasmasiga yoyilgan matoning har bir kvadrat fut sathiga 200 funtga yaqin bosim tushadi, ya‘ni choyshab-poyshab degani qurishi u yoqda tursin, eng mayda g‘ijimigacha yozilib ketadi.

Biroq missis Fraulini qurilma qandaydir tarzda ana shu yerga tortib ketgan. Po‘lat qismlar, shuningdek, toshpaxta qoplamali silindrlar yangi bo‘yalgan ombordek mashinadan o‘rlyotgan bug‘ esa ko‘ngilni ozdirar darajada qon hidini anqitardi. Mashina missis Fraulining

oq bluzkasi, jinsi shimi, hatto siynabandi va boshqa xil ich kiyimlarining mayda parchalarini ancha nariga, o'ttiz futlar masofaga itqitib tashlagan, ammo qonga bo'yalgan yirikroq laxtaklarni saranjom-sarishtalik bilan dazmollab, taxlab qo'ygandi. Lekin eng dahshatlisi bu ham emas hali...

– Bilasanmi, mashina hamma narsani tekislashga, dazmollashga urinib ko'rgan, – Xantonning ko'ngli behuzur bo'lib, ovozi bo'g'iq chiqdi. – Biroq inson... choyshab emas-ku axir Mark. Xullas, missis Frauli qoldiqlarini...

– Favqulodda fojiadan dovdirab qolgan sarkor Stenner singari uning ham tili aylanmasdi. – Qisqasi, uni ishxonasidan savatga solib olib chiqib ketishdi... – deya ohista so'zini yakunladi u.

Jekson hushtak chalib yubordi:

– Xo'sh, endi kimning po'stagini qoqishadi? Kirxona egasini ayblashadimi yo davlat nazorat xizmatinimi?

– Hozircha bundan bexabarman, – dedi Xanton. Mudhish manzara esa hanuz ko'z oldidan ketmasdi. Mashina – „go'shtqiy malagich“ taraqlab, hushtak chalib, konveyer tasmasini betinim aylantirar, yashil rangga bo'yalgan yonlaridan qip-qizil qon oqib turar, insonning kuygan eti yuraklarni orziqtirib yuboruvchi xunuk hid taratardi... – Hamma gap xavfsizlik moslamasi deb atalgan padarla'nat qurilma uchun javobgar odamga, qolaversa, ro'y bergan fojining aniq tafsilotlariga bog'liq bu yog'i.

– Xo'sh, endi, mabodo boshqaruvchi aybdor bo'lgan taqdirda ham bu g'alvadan silliqqina qutulib chiqib ketsa nima bo'ladi, deb o'ylaysan?

Xanton achchiq kulimsiradi:

– Bir ayol halok bo'ldi, Mark. Basharti Gartli bilan Stenner xavfsizlik qoidalari, shu yirtqich dazmolni joriy

ta'mirlash va risoladagi holatda saqlab turish choralari yuzasidan mablag' chegirib qolishga urinishgan bo'lishsa, turmaga tushishlari turgan gap. Shahar ma'muriyatida biron tanish-bilishlari bor-yo'qligidan qat'iy nazar, ularga hech kim yordam qilolmaydi.

– Xavfsizlik hisobotidan tejab-tergashgan deb o'ylayapsanmi?

Xanton „Blyu ribbon“ binosini ko'z oldiga keltirdi – nimqorong'i yo'laklar-u xonalar, doimo ho'l va sirpanchiq pol, to'kilib tushay deb turgan asbob-uskunalar...

– Shunaqaga o'xshaydi, – dedi u ohistagina.

Ular o'rinlaridan turib, uyga yo'l olishdi.

– Bu ishdan meni xabardor qilib tur, Jonni, – dedi Jekson. – Voqealarning keyingi rivoji juda qiziqtiradi, albatta.

\* \* \*

Biroq Xanton „go'shtqiymalagich“ mashina to'g'risida yanglishgan edi. Suv bilan kir yuvuvchi bu moslama tom ma'noda suvdan quruq chiqqa oldi.

Yarimavtomat-dazmollagich qurilmani bir-biridan mustaqil ravishda olti nafar davlat noziri ipidan ignasigacha sinchiklab tekshirib chiqdi. Va bari mexanizm mutlaqo to'g'ri ishlayapti, degan fikrni aytdi. Dastlabki tergov esa o'lim baxtsiz hodisa sifatida yuz bergan, degan xulosaga keldi.

Bu gaplarni eshitib larzaga tushgan Xanton oxiri nozirlardan biri Rojer Martinni astoydil qiyin-qistovga oldi. Ammo Martini tushmagur ham uncha-buncha qarmoqqa ilinadigan anoyi baliqlardan emas ekan. Uni tilidan tutishga urinish hech bir naf bermadi. Xanton savol ustiga savol yog'dirar, u esa sharikli ruchkasini o'ynagancha, pinagini buzmay o'tirardi.

– Hech gap yo‘q deng? Demak, mashina mutlaqo to‘ppa-to‘g‘ri ishlayapti?

– Ayni haqiqat, – deya javob qildi Martin. – Bu fojiada hamma gap xavfsizlik moslamasiga borib taqaladi. Uni nihoyatda sinchiklab tekshirib chiqishdi va juda yaxshi ishchi holatda ekanligini aniqlashdi. Tirg‘aladigan hech nimasi yo‘q uning. Missis Jillianing guvohlik ko‘rsatmasini o‘zingiz eshitdingiz-ku axir! Missis Frauli qo‘lini mashina ichiga keragidan ortiq chuqurroq tiqib yuborgan ko‘rinadi, bo‘lak hech bir izoh yo‘q. To‘g‘ri, buni hech kim ko‘rmagan, chunki hamma o‘z ishi bilan ovora edi. Ayol qichqirib yuborgan. Mashina kaftni yamlab tashlagach, keyingi lahzadayoq butun qo‘lni to yelkagacha tortib ketgan. Frauli mashinani shunchaki o‘chirib qo‘yish o‘rniga qo‘lini sug‘urib olishga zo‘r berib urinavergan. Vahimadan o‘zini yo‘qotib qo‘ygani tushunarli. To‘g‘ri, boshqa bir ayol, missis Kin mashinani o‘chirishga urinaganini aytdi, biroq, chamasi, hayajonda tugmachalarni adashtirib yuborgan yoki kechikkan...

– U holda hamma balo o‘sha la‘nati xavfsizlik moslamasida ekan-da! Demak, to‘g‘ri ishlayotgan bo‘lishi mutlaqo mumkin emas, – dedi Xanton qat‘iylik bilan. – Mabodo ayol qo‘lini uning tagiga emas, balki ustiga qo‘ygan demasak...

– Bunday bo‘lishi umuman mumkin emas. Chunki moslama ustida zanglamaydigan po‘latdan ishlangan qopqoq bor. Moslamaning o‘zi ham buzilmagan va motorga ulangan. Pastga tushgan zahotiyoyoq motorni o‘chirgan bo‘lardi.

– U holda fojiaga nima sababchi deb o‘ylaysiz?

– O‘ylab o‘yimga yetolmayapman. Hamkasblarim bilan fikrlashib ko‘rib, missis Frauli faqat bir holda – kon-

veyer ustiga yiqilib tushgan taqdirdagina halok bo'lishi mumkin edi, degan xulosaga keldik. Holbuki, fojia boshlanganida ayol polda turgan va bunga atrofdagi hamkasblarining bari guvoh.

– Bundan chiqdi, amalda ro'y berishi hech qanaqasiga mumkin bo'lmagan, aqlga sig'maydigan bir tasodif bu... – dedi Xanton.

– Endi, juda ham unchalik emas-ov... Shunchaki, aslida nima bo'lganini tushunib yeta olmayapmiz, xolos... – Martin bir muddat jim qolib, yana davom etdi: – Bilasizmi, Xanton, modomiki bu hodisani o'zingizga shunchalik yaqin olayotgan ekansiz, keling, bir gap aytay. Faqat birovga churq etib og'iz ochmaysiz. Baribir, inkor qilaman xammasini... Ochig'i, bu mashina menga yoqmadi. U... xuddi, ustimizdan kulayotganday tuyilyapti. Keyingi besh yil mobaynida bu xil qurilmalardan ancha-munchasini ko'rishimga to'g'ri kelgan. Ayrimlari shu qadar xarob ahvoldaki, hatto tizginsiz itni ham yoniga yo'latmagan bo'lardim. Ammo nachora, shtat qonunlari bunday narsalarga panja orasidan qaraydi... Qolaversa, bu dazmollar bor-yo'g'i mashina, xolos... Biroq bunisi... qandaydir arvo'ning o'zginasi. Nima uchunligini bilmayman-u, uning yonida shunday bir hissiyot uyg'ondi menda. Basharti nimagadir tirg'alish mumkin bo'lganda yoxud aqalli mayda bir nosozlikni topa olganimda ham mashinani o'sha zahotiy oq to'xtatishni buyurardim. Allaqanday vasvasaning o'zi-ya, to'g'rimasmi?

– Bilasizmi, men ham aynan shu holatdaman, – deya iqror bo'ldi Xanton.

– Miltonda ro'y bergan bir voqeani aytib beray, – dedi nozir Martin. Keyin ko'zoynagini olib, nimchasi-ning etagi bilan arta boshladi. – Bunga ikki yillar bo'ldi.

Qandaydir yigitlar eski muzlatkichni orqa hovliga olib chiqib tashlashgan ekan. Keyin bir ayol telefon qilib, iti yo'qolib qolganini aytdi. Muzlatkich eshigi o'z-o'zidan yopilib, jonivor bo'g'ilib o'lgan. Biz bu hodisa to'g'risida politsiyaga xabar berdik, ular tekshirish uchun o'z odamini yuborishdi. U yigit ham yumshoqko'ngil bo'lgan chog'i, it boyaqishga juda achingan ko'rinadi. Uning jasadini muzlatkich bilan birga o'z „pikap“iga ortib, ertasiga ertalab shahar axlatxonasiga eltib tashlagan. O'sha kunning o'zidayoq axlatxona yaqinida yashaydigan bir ayol sim qoqib, o'g'li yo'qolib qolganini xabar qildi...

– O Xudo!.. – deb yubordi Xanton.

– Xullas, axlatxonada yotgan muzlatkich ichidan bolaning murdasini topishdi. O'ziyam shiringina ekan, onasining aytishicha, muloyim tabiatli, itoatkor bo'lgan. Ammo nimagadir axlatxonada yotgan muzlatkichning ichiga kirgan... Biz bu hodisani baxtsiz tasodifga yo'yib qo'ya qoldik... Ammo voqea shu bilan tugagan, deb o'y-layapsizmi?

– Yo'g'-e... Nahotki?

– U yog'iga nimalar bo'lganini eshiting. Fojianing ertasi kuni axlatxona ishchisi mudhish muzlatkichning eshigini olib tashlashga urinib ko'rgan. Shahar ma'muriyatining axlatxonadagi narsalarni saqlash tartibiga oid 58-raqamli farmoyishida shunday ko'rsatma bor. – Martin suhbatdoshiga ma'noli qarab qo'ydi. – Xullas desangiz, ishchi muzlatkich eshigini ochganida ichida oltita qush o'lib yotganini ko'rgan. Yana aytishicha, ularning o'ligini olib tashlayotganida eshik o'z-o'zidan yopilib, qo'lini qisib qolgan. Bechora og'riqdan dod deb yuboribdi. Nazarimda, „Blyu ribbon“dagi „go'shtqiymalagich“

mashina ham shu xil odamxo‘r qurilmaga o‘xshab ketyapti. Va bu voqea menga mutlaqo yoqmayapti, Xanton.

Ular shahar sudi binosining kimsasiz vestibulida bir-birlariga qaragancha indamay turishardi. Bu yerdan olti hudud narida esa „Xadli-Uotson“ firmasining 6-raqamli andozadagi yarimavtomat mashinasi bug‘ purkab, shaqir-shuqur qilgancha, yuvilgan kirlarni dazmollash bilan ovora edi.

\* \* \*

Oradan bir hafta o‘tdi va kirxonadagi baxtsiz voqea asta-sekin unutila boshladi, Xanton ham politsiyaning bir xildagi zerikarli ishlariga ko‘milib ketgandi. Faqat, bir qo‘l qarta o‘ynab, pivo ichish uchun xotini bilan birga Mark Jeksonning uyiga kirgandagina bu voqea yana yodiga tushdi.

Jekson salomlashar-salomlashmas so‘z boshladi:

– Bilasanmi, Jonni, nima gap? Kirxonadagi o‘sha mashinaga yovuz ruhlar joylashib olgan bo‘lishi mumkin, deb hech xayolingga keltirmaganmisan?

– Nima-nima? – Xanton ko‘zlarini pirlpiratdi.

– „Blyu ribbon“dagi tezkor dazmollagich bor-u, o‘sha-ni aytyapman. Bu o‘rinda allaqanday aloqa mavjudligi yaqqol sezilib turibdi.

– Yana qanaqa aloqa? – Xanton sergak tortdi.

Jekson unga kechki ro‘znomani uzatib, ikkinchi sahifada bosilgan bir xabarni nuqib ko‘rsatdi. Unda yozilishicha, „Blyu ribbon“ kirxonasida baxtsiz hodisa yuz bergan. Yarimavtomat dazmollagich mashina yuvilgan kirlarni uzatib turgan olti nafar ayolni bug‘da kuydirib yuboribdi. Soat 15-u 45 da sodir bo‘lgan bu fojiga qozonxonada bug‘ bosimi keskin oshib ketgani sabab

qilib ko'rsatilgan edi. Ayollardan biri, missis Annet Jillian ikkinchi darajali kuyish bilan shahar kasalxonasiga jo'natilgan.

– G'alati tasodif... – dedi Xanton o'ylanib turib va shu lahzada nozir Martinning kimsasiz sud binosida mud-hish ohangda yangragan „Mashina emas, naq arvoHning o'zginasi!“ degan gapi yarq etib xayolida jonlanib ketdi. Va eski muzlatkich ichida halok bo'lgan it, bolakay va qushlar haqidagi hikoyani esladi.

Shu oqshom u qartani ham xayoli parishon holda o'ynadi.

\* \* \*

Palataga Xanton kirib kelganida missis Jillian yostiqlarga suyangancha, „Ekran sirlari“ni o'qib yotardi. Uning bir qo'li batamom chirmab tashlangan, bo'ynining bir qismi ham o'ralgan edi. Xonada to'rtta chorpoya bo'lib, ayolning yagona qo'shnisi – chehrasi oqargan yoshgina bir juvon qattiq uxlab yotardi.

Moviy korjoma-xizmat kiyimidagi kishini ko'rgan missis Jillian xiyol taraddudlanib, keyin jur'atsizgina jilmaydi:

– Mabodo missis Chernikovaning oldiga kelgan bo'lsangiz, hozir suhbatlasha olmaysiz. Yaqinda dori berishuvdi, uxlab yotibdi...

– Yo'q. Men sizni ko'rgani keldim, missis Jillian. – Ayol chehrasidagi tabassum shu zahoti so'ndi. – Norasmiy tashrif deganlaridek. Shunchaki, kirxonada nima bo'lganiga qiziqib qoldim. U qo'lini cho'zdi: – Jon Xanton.

Samimiylilik, ochiqko'ngillik o'z natijasini berdi. Missis Jillianing yuzi tabassumdan yorishib ketdi va u kuy-magan qo'lini cho'zganicha, jur'atsizgina so'rashdi.



– Mirshabga yordam berishga hamisha tayyorman, mister Xanton. So‘rayvering... Ey Xudo! O‘g‘lim maktabda yana bir baloni boshladimi degan xavotirda qo‘rqib ketdim, ochig‘i.

– Nima voqea yuz berganini batafsil so‘zlab bersangiz.

– Biz choyshablarni dazmol qilayotgandik, mashina birdaniga bug‘ purkab yuborsa bo‘ladimi! Har qalay menga shunday tuyildi. Hozir uyga qaytaman, itlarni sayr qildiraman degan xayol bilan tursam, nogahonda xuddi bomba portlagandek gumburlab ketdi. Hamma yoq qaynoq bug‘, yana ilondek vishillashini aytmay sizmi... dahshat! – Jilmayishga uringan lablar beixtiyor ayanchli titrab ketdi. – Dazmol... xuddi ajdarhodek pishqirardi. Shunda Albertamiz – anavi, Alberta Kinni aytyapman – tuyqusdan „Portlash! Portlash!“ deb qichqirib yubordi-yu, hamma yugurgilab, baqir-chaqir boshlanib ketdi. Jenni Jeyson men kuydim deb dod sola boshladi. Men ham beixtiyor o‘sha tomonga yugurdim-u, keyin yiqilib tushdim. O‘zim ham qattiq kuyib qolganimni o‘shanda sezmagani ekanman. Xudoga shukrki, jonimiz omon qoldi, chunki bundan battari bo‘lishi ham mumkin edi-da. Qaynoq bug‘ bo‘lsa, harorati naq uch yuz darajaga boradi...

– Ro‘znomada bug‘ uzatish quvuri shikastlangan deb yozishibdi. Bu nima degani?

– Bilasizmi, boshimiz tepasidan o‘tgan quvurlardan bug‘ qayishqoq rezina ichakka va undan mashinaga uzatiladi. Jo, ya‘ni mister Stenner qozondan qo‘shimcha bug‘ otilgan, deb taxmin qildi. Oqibatda esa bosim ko‘tarilib ketib, quvurlar dosh berolmagan.

Xanton u yog‘iga nimani so‘rashni bilolmadi. Xayrlashishga chog‘lanib turuvdi hamki, ayol xushlamaygina qo‘shimcha qilib qoldi:

– Avvallari mashinada bunaqa voqea hech qachon ro‘y bermagandi. Faqat keyingi paytlarda shunaqa bo‘lyapti. Goh qaynoq bug‘ otiladi, goh anavi dahshat – missis Fraulining mudhish o‘limi, ruhini Xudo yorlaqagan bo‘lsin. Xullas, mayda-chuyda har xil tasodiflar bir-biriga ulanib ketyapti. Bir gal Essining etagini zanjir o‘rab ketdi. Bu ham fojiaga olib borishi mumkin edi, ammo qiz chaqqonlik qilib, ko‘ylagini yechib tashlashga ulgurdi. Goh qandaydir bolt bo‘shab ketadimi-yey, goh yana allambalolar yuz beradimi-yey. Ta‘mirchi ustamiz Xerb Daymentning ham ona suti og‘ziga keldi! Ishonasizmi, ba‘zan choyshab tep-tekis yoyilgani holda... silindrlar orasiga tiqilib qoladi. Jorjning aytishicha, bularning bari-ga kir yuvish mashinalariga oqartiruvchi kukun haddan ziyod ko‘p solinayotgani sabab emish, biroq avvallari bu xil baloyi nogahoniylar mutlaqo yuz bermasdi-ku! Hozir esa qizlarimiz bu mashinada ishlashdan yurak oldirib qo‘yishgan. Essining aytishicha, dazmol ichiga Adel Frauli tanasining parchalari tiqilib qolgan va shu bois ham bu mashinada ishlash falokatga olib keladi... Go‘yunga qarg‘ish tekkandek. E, nimasini surishtirasiz, bu bexosiyat mashina atrofidagi balo-yu kulfatlarning bari Sherri qo‘lini kesib olgan kundan boshlangan aslida.

– Qanaqa Sherri? – so‘radi Xanton.

– Sherri Kvelett-da! Shiringina qiz, maktabdan to‘g‘ri bizga ishga keluvdi. O‘zi juda tirishqoq, ammo sal uquv yetishmaydi. Hozirgi dumbul qizlarni bilasiz-ku, endi...

– Xo‘sh, u barmog‘ini qanday qilib kesib oldi? Nima bo‘lgandi o‘zi?

– Aytarli hech nima. Bilasizmi, kiryuvgichda konveyer tasmasini ushlab turuvchi maxsus tutqichlar bor. Mashinaga qalin va og‘ir matoni solmoqchi bo‘lgani-

miz uchun ham Sherri ana shularni jindak bo'shashtirish bilan ovora edi. Qiz boyaqish, xayoli biron yigitga ketib qoldimi, barmog'ini kesib oldi. Juda chuqur kesilgandi o'ziyam, hamma yoqqa qon sachrab ketgan. – Missis Jillianing chehrasida tuyqusdan sarosima paydo bo'ldi. – Keyin esa... aynan shu voqeadan so'ng... boltlar o'z-o'zidan chiqib keta boshladi. Yana bir haftacha o'tib... Adel bechora... Go'yo mashina qon ta'mini ko'rib, yoqtirib qoldi-yu, odam yamlashga o'tib olganday... E, nimalar deyapman o'zi... Biz ayollarning miyamizda doim bema'ni fikrlar g'ujg'on o'ynab yuradi-da, a, zobit Xinton?

– Xanton, – deya beixtiyor to'g'riladi Jon va bir nuqtaga tikilganча o'ylanib qoldi.

\* \* \*

Taqdir o'yinini qarangki, u o'sha kunning o'zidayoq Mark Jekson bilan ikkovlarining uyidan uncha uzoq bo'lmagan mo'jazgina kirxona-avtomatda uchrashib qoldi va aynan shu yerda politsiyachi hamda ingliz adabiyoti professori o'rtasida o'ta antiqa bir suhbat bo'lib o'tdi.

Ular plastik oromkursilarda yonma-yon o'tirishar, keltirgan kiyimlari esa oynato'siq ortida, tirqishiga tashlangan tanga tufayli harakatga keluvchi kir yuvish mashinalarining barabanlarida aylanardi. Jeksonning tizzalarida Miltonning saylanma asarlaridan iborat kitobcha yotar, ammo u buyuk shoirni ham unutgan ko'yi Xantonning missis Jillian haqidagi hikoyasini diqqat bilan eshitardi.

Nihoyat, u jim qolganida Jekson so'z boshladi:

– Yodingda bo'lsa bu odamxo'r mashinaga yovuz ruh joylashib olmaganmikan, deb aytgandim senga. Yarmi ha-

zil edi o'sha gapimning... ammo faqat yarmi. Hozir, shu tobda yana shu haqda o'ylayapman.

– E qo'ysang-chi, – dedi Xanton ishonqiramay. – G'irt bema'nilik-ku bu axir...

Jekson oynavand darcha ortida kiyimlar qanday aylanishini kuzatardi.

– Jodu qilingan degani – yomon so'z. Qolaversa, unchalik aniq ham emas. Aniqrog'i, mashinaga yovuz ruhlar joylashib olgan ko'rinadi. Dunyoda iblislarni istagan yerga joylashtirish usullari talaygina. Ularni o'sha yerdan haydab chiqarish usullari ham aynan shuncha. Aqalli Frezerning „Oltin shox“ asarini olib ko'raylik, unda shu xil ko'plab misollar keltirilgan. Druidlar to'g'risidagi ertaklarda ham, atsteklar<sup>1</sup> folklorida ham aynan shu manzarani ko'ramiz. Bu xil voqea-hodisalar juda ko'hna zamonlardan, Qadimgi Misr davridan boshlab eslab o'tiladi. Va amalda ularning barini juda bo'lmaganda bitta umumiy va majburiy shart birlashtirib turadi. Iblisni jonsiz buyumga joylashtirish uchun qiz bolaning qoni kerak. – Jekson Xantonga qarab qo'ydi. – Missis Jillianing aytishiga ko'ra, jamiki falokatlar o'sha Sherri Kvelett qo'lini kesib olganidan keyin boshlanibdi, to'g'rimi shu gap?

– Yetar endi, hazil ham evi bilan-da, – dedi Xanton.

– Ammo bir o'ylab ko'rgin: bu qiz boshlang'ich shartta judayam mos kelyapti, – jilmaydi Jekson.

– Hoziroq hamma ishinni yig'ishtiraman-u, to'g'ri uyiga borib, o'zidan so'ray qolaman, – Xanton ham zo'raki iljaydi. – Halitdanoq g'alati manzarani ko'z oldimga keltiryapman... „Assalomu alaykum, missis Kvelett, politsiya zobiti Jon Xanton bo'laman. Shu desangiz,

---

<sup>1</sup> *Atsteklar* – qadimiy amerika hindu qabilalari. (*Tarj.*)

kichik bir tadqiqot o'tkazib, dazmollagich mashinaga iblislar joylashib olmadimikan, degan muammoni hal etyapman. Yana shuni ham bilmoqchi edimki, siz qiz bolamisiz yo...“ Xo'sh, bu yog'iga nima deb o'ylaysan: meni jinnixonaga tiqib qo'yishlaridan avval Sandra hamda bolalarim bilan xayrlashib qolishga ulgurarmikanman-a?

– Bemalol garov o'ynashim mumkinki, hozirgi ahvolda ham to'g'ri o'sha yoqqa qarab ketyapsan, – dedi Jekson tamomila jiddiylik bilan. – Gaplarim hazil emas mutlaqo, Jonni. O'sha la'nati mashinani hali bir marta ham ko'rmaganman, ammo shunga qaramay, u yuragimga qo'rquv solyapti.

– Darvoqe, – deb qoldi Xanton, – modomiki gap ochilgan ekan, boshqa majburiy shartlar haqida ham so'zlab bera qolmaysanmi?

Jekson yelkasini qisdi.

– Endi, hammasini dabdurustdan eslay olish osonmas. Buning uchun kitob ko'rish kerak. Masalan, jodugarlarning ilmi amalini ko'rib chiqaylik. Anglo-sakslarda uni qabr tuprog'i yoki baqa ko'zini aralashdirib tayyorlashgan. Yevropadagi ilmi amal vositalarida „shuhrat qo'li“ yoxud, oddiyroq aytganda, murdaning qo'li ko'p tilga olinadi. Jinlar bazmida ichiladigan, ro'yo ko'rsatuvchi gallyusinogen moddalardan biri uning o'rniga o'tishi mumkin hozirgi paytda. Bu, odatda, belladonna yoki psilotsibin hosilasi, ammo boshqa modda bo'lishi ham mumkin.

– Nima balo, Mark, esingni yeb qo'ydingmi? Mana shu narsalarning bari „Blyu ribbon“ dazmol-avtomatiga tushib qolgan bo'lishi mumkin, deb jiddiy o'ylayapsanmi o'zi? Boshimni garovga qo'yib ayta olamanki, besh yuz

mil tevarak-atrofdan bironta belladonna yo‘q! Qolaversa, kimdir allaqaysi Freddi amakining qo‘lini uzib olib, o‘sha la‘nati dazmolga tiqmagandir, axir?

– „Mabodo yetti yuzta maymun yozuv mashinasida yetti yuz yil yozishga majbur qilinsa...“

– Bilaman, bilaman. „Ulardan biri, albatta, Shekspir asarlarining to‘plamini yoza oladi“, – deya to‘ng‘illadi Xanton. – Jin ursin seni, Mark! Tur endi o‘rningdan, ko‘chaning narigi tomonidagi dorixonaga o‘tib, kir yuvish mashinasi uchun pulni maydalab, yigirma sentlik qilib kel.

\* \* \*

Jorj Stenner „go‘shiqiydalagich“da, aql bovar qil-maydigan o‘ta g‘alati sharoitda bir qo‘lidan judo bo‘ldi.

Dushanba kuni ertalab soat yettida kirxonada Stenner hamda asbob-uskunalarini ta‘mirlovchi usta Xerb Daymentdan bo‘lak hech kim yo‘q edi. Ular yiliga ikki mar-ta profilaktika ishlarini o‘tkazishar – fabrika-kirxonani odatdagi vaqtda, soat 7.30 da ochishdan avval „go‘shiqiydalagich“ podshipniklarini moylab chiqishardi. Dayment mashinaning narigi chekkasida turib, to‘rtta yor-damchi podshipnikni moylar ekan, keyingi vaqtlarda bu mexanizmga xizmat ko‘rsatish unga qanchalik yoqmay qolgani to‘grisida o‘ylab turganida qurilma... to‘satdan ishlab ketdi.

U motorni o‘chirish uchun uni to‘sib turgan matotas-malarni endi ko‘taraman devdi hamki, tasmalar... noga-honda bir titrab, jonlanib ketdi-yu, qo‘llarida o‘z-o‘zidan o‘rmlab, kaftlari terisini sidirgancha, mashina ichiga tor-ta boshladi.

Biroq, odamxo‘r qurilma qo‘llarini yamlab yubo-

rishidan bir lahza avval Dayment bir siltanib, bu tuzoqdan chiqib keta oldi.

– Jin ursin, bu nimasi? – deya baqirib yubordi u. – O‘chirsangiz-chi, axir bu la’nati mashinani!

Ana shu soniyada Jorj Stenner qichqirib yubordi.

Bu – yuraklarni muzlatib yuboruvchi mudhish chinqiriq, bir zumda butun binoni to‘ldirgan, kir yuvish avtomatlarining metall basharalaridan, bug‘da ishlovchi presslarning yuhodek ochilgan jag‘laridan, bahaybat quritgichlarning bo‘m-bo‘sh ko‘zlaridan aks-sado bo‘lib qaytayotgan dahshatli faryod edi. Stenner og‘zini katta ochib nafas olgach, yana bor ovozda baqirdi:

– Yo Xudo! Meni tortib ketyapti! Tortib...

Shu payt barabanlar ostidan bug‘ otildi. G‘ildirakchalar shaqir-shuqur qilib aylanar, go‘yo bino-yu qurilmalar to‘satdan jonlanib ketgandek, shu paytgacha ularda yashirilib kelgan maxfiy hayot endi o‘zini baralla oshkor etib, tashqariga otilib chiqqandek edi.

Dayment jonholatda hozirgina Stenner turgan joyga otildi.

Birinchi baraban mudhish tusda qonga bo‘yalib bo‘lgan edi. Dayment ojizlikdan ingrab yubordi, tomog‘i bo‘g‘ilib, nafasi yetmay qoldi. „Go‘sh tqiy malagich“ esa hanuz to‘xtovsiz chinqirar, sharaqlar, vishillar edi.

Tashqaridan qaragan odamga Stenner shunchaki mashina ustiga engashib turgandek ko‘rinardi, to‘g‘ri, sal g‘alatiroq bukilgandek tuyilishi mumkin. Biroq uning bo‘rdek oqargan chehrasi, kosasidan chiqib ketayozgan ko‘zlari, uzluksiz dahshatli chinqiriqdan qiyshayib ketgan og‘zini hech nimadan bexabar odam ham ko‘rmay qololmasdi. Stennerning qo‘li xavfsizlik moslamasi bilan birinchi baraban ostida g‘oyib bo‘lgan, yengi naq yelkasi-

gacha uzilib tushgan, qo‘lning yuqori qismi g‘ayritabiiy ravishda qiyshayib, qon tizillab otildirdi.

– O‘chir... tezroq! – deya xirilladi u. Shu lahzadayoq yelka suyagi qirs etib sindi.

Dayment tugmachani bor kuchi bilan urdi.

„Go‘sh tqiy malagich“ esa hech nima bo‘lmaganday, taqirlash, o‘kirish, aylanishda davom etardi.

Dayment o‘z ko‘zlariga ishonolmay, tugmachani ustma-ust ura boshladi. Hech qanday foydasi bo‘lmadi... Stennerning qo‘l terisi cho‘zilib, g‘alati tarzda yaraqlay boshladi. Mana hozir u bardosh berolmay uziladi – barabanlar hanuz aylanib yotibdi-da. Lekin shu-nisi ajablanarliki, Stenner hushini yo‘qotmadi va hamon qichqirmoqda. Shu o‘rinda Dayment nima uchundir multfilmdan bir lavhani – asfalt qiladigan mashina bir odamni yanchib, yupqa yaproqqa aylantirib ketganini esladi.

– Saqlagichlarga... yugur!.. – deya chinqirdi Stenner. Uning boshi engashib borar, mashina odamni o‘z qa‘riga tortib, yamlab tashlashdan bir zum ham to‘xtamasdi.

Dayment o‘girilib, boylarxonaga otildi. Stennerning qichqiriqlari uni go‘yo yovuz ruhlardek ta‘qib etardi. Havoni qon va bug‘ning aralashgan hidi tutib ketgan.

Chap tomondagi devorda uchta bahaybat, kulrang javon turar, kirxonadagi jamiki elektr tizimlarining saqlagich vositalari shu yerda jamlangan edi. Dayment eshiklarning barini birin-ketin ochib, uzun-uzun sopol silindrlarning hammasini oldinma-keyin sug‘urib olib, yelkasi osha itqita boshladi. Dastlab yuqorigi yorug‘lik, so‘ngra havo haydovchi kompressor o‘chdi. Oxirida xuddi o‘layotib uf tortgandek boylarning o‘zi ham to‘xtadi.



„Go‘sh tqiy malagich“ esa hanuz aylanib yotardi. Stennerning qichqiriqlari endi pasaygan, uzuq-yuluq ingrashi eshitiladi, xolos.

Shu payt Daymentning ko‘zi devorda, oynavand javon ichida osib qo‘yilgan o‘t o‘chirish boltasiga tushib qoldi. U ohista so‘kingancha, boltani shart oldi-yu, boylerxonadan otilib chiqdi. Mashina Stennerning qo‘lini naq yelkasiga qadar yamlab bo‘lgandi. Yana bir lahzadan keyin boshi bilan beo‘xshov burilgan bo‘ynini ham yutib yuborishi shubhasiz.

– To‘xtatishning iloji yo‘q sira! – dedi Dayment ham xirillab va boltani baland ko‘tardi. – E Xudo! Bu nimasi o‘zi, Jorj! Yo‘q, men bunday qilolmayman, qo‘lim bor-maydi!

Mashina shashtini jindak kamaytirdi. Tasma yeng va et parchalarini, Stennerning barmog‘ini tuflab tashladi... Sarkor yana baqirib yubordi – yuraklarni orziqtiruvchi mudhish ovozda chinqirdi. Va Dayment qaramay turib, boltani bor kuchi bilan tushirdi. Keyin yana. Va yana.

Stenner bir tomonga qulab tushdi. U hushidan ketgan edi. Yuzlari ko‘kargan, yelka ostidan chopilgan qo‘lidan qon sharillab otiladi... Mashina yana bir bor sharaqlab, qurbonidan qolgan hamma narsani ochko‘zlik bilan yutdi va... shu zahotiy oq o‘chdi qoldi.

Ho‘ngrab yig‘layotgan Dayment esa kamarini yechib, qonni to‘xtatishga unnay boshladi.

\* \* \*

Xanton telefon orqali nozir Rojer Martin bilan gaplashardi. Jekson esa uch yoshli Pettining ko‘ngli uchun koptok o‘ynar ekan, uni ko‘z qiri bilan kuzatib turardi.

– Nima-nima, u saqlagich vositalarning barini olib tashlaganmi? – deya qayta so‘radi Xanton. – Axir bu holda elektr quvvati batamom uzilishi kerak-ku, axir, to‘g‘rimasmi?.. Dazmolni ham o‘chirganmi?.. O‘, shundaymi hali, qiziq, juda qiziq... Nima? Yo‘q, shunchaki, norasmiy tarzda. – Xanton xo‘mrayib, Jeksonga qarab qo‘ydi. – O‘sha muzlatkichni hech unuta olmayapmangga, Rojer... Ha, ha, men ham shu fikrdaman. Bo‘pti, hozir-a? – U go‘shakni qo‘yib, Jeksonga o‘girildi: – Va nihoyat, qizimiz bilan tanishish payti ham keldi, Mark.

\* \* \*

Sherrining o‘z uyi bor ekan. Xanton politsiya nishonini ko‘rsatgan zahotiyoyq ikkovlarini darhol ichkariga taklif etganiga hamda o‘zini tutishdagi jur‘atsizligiga qaraganda qiz bu shinamgina oshyonga yaqindagina ega bo‘lgan ko‘rinadi. Keyin u chiroyli suratni eslatuvchi, did bilan bezatilgan mehmonxonada, ularning ro‘parasidagi oromkursining bir chekkasiga omonatgina o‘tirib, butun vujudi quloqqa aylandi.

– Men politsiya zobiti Xanton bo‘laman, bu kishi yordamchim, mister Jekson. Kirxonada ro‘y bergan voqea-ga qiziqib keluvdik. – Qop-qora sochli, istarasi issiq va tortinchoq bu qizning oldida u sal o‘ng‘aysizlanardi.

– Dahshat, umuman dahshat... – deya so‘z boshladi Sherri Kvelett. – Aslida-ku, bu men ishlagan birinchi joy. Mister Gartli amakim bo‘ladilar. Ishim o‘zimga yoqardi, chunki shu tufayli alohida uy olish, mehmon kutish imkoniga egaman... Biroq endilikda... nazarimda, bu yer, „Blyu ribbon“... yaxshi joy emas.

– Xavfsizlik texnikasi bo‘yicha taftish guruhi dazmolxonani vaqtincha, tekshiruv ishlari tugagunga

qadar yopib qo‘ydi, – dedi Xanton. – Bundan xabar-dormisiz?

– Ha, – qiz o‘tirgan yerida bezovta bo‘ldi. – Endi bu yog‘iga nima qilish kerakligini o‘ylab o‘yimga yetolmayman...

– Missis Kvelett, – deya uning so‘zini bo‘ldi Jekson. – Agar yanglishmasam, sizning boshingizdan ham shu dazmol-mashinaga bog‘liq bir voqea bo‘lib o‘tgan. Eshitishimcha, o‘shanda tutqichlar qo‘lingizni jarohatlagan ekan, to‘g‘rimi?

– Ha, barmog‘imni kesib olgandim. – Nogoh qizning chehrasi tundlashdi.

– Ammo bu faqat boshlanishi ekan, xolos... – Uning Jeksonga tikilgan nigohi ma‘yus edi. – O‘shandan buyon, ba‘zan shunday tuyuladiki, boshqa qizlarning hammasi meni... to‘satdan yomon ko‘rib qolishgandek... go‘yo nimadadir aybdorman-u...

– Missis Kvelett, – ohista so‘z boshladi Jekson, – men hozir sizga nihoyatda og‘ir bir savol berishga majburman. U sizga yoqmasligi turgan gap. U boshdan oyoq sizning shaxsiy hayotingizga daxldor va faqat dastlabki qarashdagina mavzuyimizga hech bir aloqasi yo‘qdek tuyuladi, ammo sizni ishontirib aytamanki, aslida bunday emas mutlaqo. Suhbatimizni yozib olayotganimiz yo‘q, shu bois ham qo‘rqmasdan, dadil javob beravering.

Endi qizning chehrasidagi ma‘yuslik qo‘rquv bilan almashindi:

– Men... biron gunoh qilib qo‘ydimmi?!

Jekson jilmayib, bosh chayqadi va Sherri shu lahza-dayoq yana bo‘shashdi. Bu yerga Mark bilan kelganim qanchalik yaxshi bo‘ldi-ya, deb o‘ylardi Xanton.

– Yana bir narsani qo‘shimcha qilishim kerak, – dedi Jekson. – Bu savolga javobingiz mana shu ko‘rkamgina uyni saqlab qolishingizga, ishga qaytishingizga va, umuman, fabrika-kirxonadagi ahvol yana avvalgidek yaxshilanib ketishiga yordam berishi mumkin.

– Unday bo‘lsa, har qanday savolingizga javob berishga tayyorman, – dedi u.

– Sherri, siz... hali qiz bolamisiz?

Boyaqish bu gapdan dovdirab, o‘zini mutloq yo‘qotib qo‘ydi. Go‘yo tavba-tazarru qilish uchun ruhoniylar huzuriga keldi-yu, ruhoniylar uning yuziga tarsaki tortib yuborgandek. Keyin boshini ko‘tarib, xonani bu to‘g‘rida boshqacha o‘ylash ham mumkinligiga sira-sira ishongisi kelmagan bir qiyofada ko‘zdan kechirib chiqdi.

So‘ngra oddiygina qilib, qisqa javob berdi:

– Men o‘zimni bo‘lajak erim uchun asrayapman.

Xanton bilan Jekson indamaygina bir-birlariga qarab qo‘yishdi. Ana shu o‘rinda, allaqaysi bir lahzada Xanton bu gaplarning bari haqiqat ekanini, iblis chindan ham jon-siz temirga, „go‘sh tqiy malagich“ning jamiki qismlari – barabanlari-yu tasmalariga, vintlari-yu tutqichlariga joylashib olib, uni o‘zining alohida hayoti bilan yashovchi bir nimaga aylantirib qo‘yganini yaqqol his etib, yuragi orqasiga tortib ketdi.

– Rahmat, – dedi Jekson ohista.

\* \* \*

– Xo‘sh, endi nima qilamiz? – deb so‘radi Xanton mashinaga chiqishganida sarosimali bir qiyofada. – Ib-lislarni haydab chiqarish uchun ruhoniyni izlaymizmi?

Jekson istehzoli iljayib qo‘ydi:

– Shu xil ruhoniyni topa olgan taqdiringda ham foy-

dasi bo'lmaydi: u senga bir dasta turli kitobchalarni berib, o'qib chiqishni tavsiya etadi-yu, o'zi fursatni g'animat bilib, jinnixonaga telefon qila boshlaydi. Biz o'zimiz bajarishimiz kerak bu ishni, Jonni.

– Uddalay olarmikanmiz?

– Shoyad. Bilasanmi, asosiy gap nimada? Biz mashinaga nimadir joylashib olganini bilamiz, xolos. Ammo u aynan nimaligi noma'lum... – Shu o'rinda Xantonning nima uchundir a'zoyi badani muzlab ketdi, go'yo o'limning nomoddiy, ammo sovuq qo'li tanasiga tekkandek edi. – Zotan, iblislar nihoyatda ko'p. Biz hozir Bubastisga<sup>1</sup> duch kelib turibmizmi yo Pan<sup>2</sup>gami? Balki, Baal<sup>3</sup>gadir? Yoxud nasroniylik dinidagi do'zaxiy kuchlar ma'budi bo'lgan Shaytonning o'zi bizga qarshi turibdimi?.. Biz bundan bexabarmiz. Bu iblisni mashinaga kim va qanday maqsadda yaqin yo'latganini bilolganimizda-ku, ish ancha oson ko'chardi-ya. Ammo u tasodifan tushib qolgani aniqroq ko'rinadi.

Jekson kafti bilan sochlarini siypab qo'ydi.

– Qiz bolaning qoni, bu-ku tushunarli endi... Ammo shu dalilning o'zi hali hech nimadan darak bermaydi. Biz kimga duch kelganimizni aniq bilishimiz kerak.

– Xo'sh, nima uchun? – deb so'radi Xanton soddalik bilan. – Nega endi xilma-xil vositalarni to'plab, iblislarni haydab chiqarishga urinib ko'rmaslik kerak ekan?

Jeksonning chehrasini ko'lanka qopladi.

---

<sup>1</sup> *Bubastis* – Iblisning timsollaridan biri.

<sup>2</sup> *Pan* – qadimgi yunon asotirlarida o'rmonlar, podalar va dalalar ma'budi, echki tuyoqli va jundor ko'rinishda tasvirlanadi. Ilk nasroniylik Panni shaytoniy olamga mansub deb bilgan.

<sup>3</sup> *Baal* – qadimgi somiyalar asotirlarida qurg'oqchilik ma'budi, Iblisning bir turi.

– Bu talonchilar-u politsiyachilar o‘yini emas axir, Jonni! Xudo haqi, shunday yo‘l tutishni hatto xayolingga ham keltira ko‘rma, aslo-aslo! Iblisni haydab chiqarish marosimi – nihoyatda xatarli narsa. Senga tushunarliroq bo‘lishi uchun yadro reaksiyasini nazorat etyapman, deb tasavvur qilaver. Biz yanglishishimiz mumkin. U holda halok bo‘lamiz. Hozircha Iblis shu mashina ichida o‘tiribdi. Xudo ko‘rsatmasin-u, mabodo imkoniyat tug‘ilib, u...

– Tashqariga chiqib ketishi mumkinmi?

– U erta-yu kech shuni orzu qilib yotibdi-da axir... – Jeksonning ovozida qo‘rquv bor edi. – Chunki odam o‘ldirishni juda-juda yaxshi ko‘radi.

\* \* \*

Ertasi kuni oqshom payti Jekson uyiga kirib kelganida Xanton xotinini bolalarni olib, kinoga borishga ko‘ndirdi. Ikkovlari yolg‘iz qolganlarining o‘ziyoq bir qadar xotirjam qilardi. Bunday g‘alati voqeaga aralashib qolganiga Xanton hanuz qiyinchilik bilan ishonardi.

– Men mashg‘ulotlarni qoldirib, kun bo‘yi xilma-xil mudhish kitoblarni ko‘rib chiqdim. Ularda qanday qo‘rqinchli narsalar tasvirlanganini esa sen hatto tasavvur ham qilolmaysan. Iblislarni qanday chaqirishni tushuntirib beruvchi o‘ttizta usulni yozib olib, kompyuterga kiritdim. U esa natija chiqarib, qanday umumiy, majburiy unsurlar kerakligini ko‘rsatib berdi. Ular hayratomuz darajada kam ekan.

U Xantonga uzatgan ro‘yxatda quyidagilar belgilangan edi: qiz bola qoni, qabr tuprog‘i, „shuhrat qo‘li“, ko‘rshapalak qoni, tunda to‘plangan yo‘sin, ot tuyog‘i va baqaning ko‘zi. Shuningdek, boshqa unsurlar ham bor, ammo ular asosiy hisoblanmas ekan.

– Ot tuyog‘i... – deya o‘ylanib qoldi Xanton. – G‘alati-ya...

– Juda ko‘p uchraydi. Umuman olganda-ku...

Xanton uning so‘zini bo‘ldi:

– Shu ko‘rsatmalarda keltirilgan ayrim unsurlarni ularga yaqinroq bo‘lgan va topilishi osonroqlari bilan almashtirish mumkinmikan-a?

– Aytaylik, tunda yig‘ilgan lishaynik yo‘sin o‘rniga o‘tmasmikan, demoqchisan-da, to‘g‘rimi?

– Topding.

– Menimcha, ularni bemalol almashtirish mumkin, – dedi Jekson. – Magiya<sup>1</sup>viy ko‘rsatmalar ko‘pincha ikki xil ma’noda keladi, ya’ni shu xil almashtirishlarga bajon-u dil ruxsat beradi. Umuman, qora magiya – jodugarlik ijodiy tafakkur parvozi uchun hamisha keng imkoniyatlar yaratib kelgan.

– Xo‘sh, endi ot tuyog‘ini „Jel-O“ rusumli yelim bilan almashtirib ko‘rsak-chi, – deya taxminini o‘rtaga tashladi Xanton. – Ishlab chiqarishda u juda keng tarqalgan. Missis Frauli boyaqish halok bo‘lgan o‘shamash‘um kunda shu xil yelim idishini o‘zim ko‘rganman. Dazmol-mashina o‘rnatilgan sahn ostida turgan edi. Bunday deyishimga sabab – jelatin ot tuyog‘idan olinadi-ku axir!

Jekson bosh irg‘adi:

– Xo‘sh, yana nima?

– Ko‘rshapalak qoni... Korxonada binosi juda keng. Qorong‘i burchaklar-u qo‘shimcha xonalar anchagina. Garchi mamuriyat o‘la qolganda tan olmasa ham, „Blyu ribbon“da ko‘rshapalaklar yashashi ehtimoli nihoyatda yuqori. Bino-

---

<sup>1</sup> Magiya – sehr, jodu.

barin, ulardan birontasi „go‘sh tqiy malagich“ ichiga uchib kirib qolgan bo‘lishi hech gap emas.

Jekson o‘zini oromkursi suyanchig‘iga tashlab, toliqishdan qizarib ketgan ko‘zlarini ishqaladi.

– Ha, hammasi o‘zaro mos kelyapti... hammasi.

– Chindanmi?

– Chindan. „Shuhrat qo‘li“ni esa nazarimda, ro‘yxatdan bemaol o‘chirib tashlasak ham bo‘ladi. Missis Frau-li halok bo‘lgunga qadar dazmol-mashinaga murdaning qo‘lini hech kim ataylab tiqib qo‘ymagan. Endi belladon-naga kelsak, o‘lkamizda bunday o‘simlik umuman uchra-masligi hammaga ayon haqiqat.

– Xo‘sh, qabr tuprog‘i-chi?

– O‘zing nima o‘ylaysan?

– Umuman, bu o‘rinda qandaydir aloqa mavjud, – dedi Xanton o‘ylanib. – Eng yaqin qabrston „Plezant xill“. „Blyu ribbon“dan besh mil masofa narida joy-lashgan.

– O‘key, maqul, – Jekson bosh irg‘adi. – Men komp-yuterda ishlovchi qizdan ro‘yxatda ko‘rsatilgan unsurlar-ning barini birlamchi va ikkilamchi guruhga ajratib chi-qishini so‘radim – Xellouin bayramiga tayyorgarlik ko‘rayotganimga bechoraning ishonchi komil edi. Xullas, unsurlarni mumkin bo‘lgan barcha xil tartibda ajratib chiq-dik. Keyin, umuman aql bovar qilmas darajadagi o‘ndan ziyodroq unsurlarni chiqarib tashladim. Qolganlarining bari aniq tartib bo‘yicha taqsimlanadi. Biz hozirgina tilga olib o‘tgan unsurlar esa ana shu guruhlardan biriga kiradi. Men bu o‘rinda yovuz ruhlarni haydash usullaridan birini ko‘zda tutyapman, albatta.

– Xo‘sh, qanaqa ekan u?

– O, nihoyatda oson. Janubiy Amerikada xilma-xil



mistik e'tiqod markazlari mavjud. Karib dengizi orollarida bo'linmalari ham bor. Ammo marosimlari o'zaro o'xshab ketadi. Men ko'rib chiqqan kitoblarda shu e'tiqodlar bo'yicha sig'iniladigan mabudlar o'rmonda yashovchi qandaydir yovuz ruhlar deb tushuniladi, afrikaliklar Saddat yoki Oti yo'q deb ataydigan ruh bor-ku, shu siradan-da. Ko'rasan hali, o'sha ruh ko'z ochib yumguningcha mashinamizdan o'qdek otilib chiqib ketadi.

– Ma'qul, biroq buning uchun nima qilish kerak?

– Bor-yo'g'i jindek tabarruk suv bilan cho'qintirish paytida ishlatiladigan shirin kulchadan bir parcha. U yog'iga „Levit“<sup>1</sup>dan duo o'qiymiz. Qarabsanki, nasroniycha sehrgarlikning o'zginasi bo'ladi qoladi.

– Ishqilib, battar bo'lmasa go'rgaydi.

– Nega endi? Ahvol hozirgidan yomonlashishiga biron sabab ko'rmayapman, – dedi Jekson o'ylanib. – To'g'ri, bir narsani tan olishim kerak: ro'yxatimizda „shuhrat qo'li“ yo'qligi ko'nglimni g'ash qilib turibdi. Zotan, u jodugarlikning eng quvvatli unsuri hisoblanadi.

– Tabarruk suv ham ta'sir ko'rsatolmaydimi unga?

– Yo'q, „shuhrat qo'li“ chaqiruvchi iblis Bibliyani nonushta o'rniga paqqos tushirishi mumkin! Ha, undan qo'rqulik, boshimizga qanday xatar solarkin hali. Aslida-ku, jin tekkan bu mashinani qismlarga ajratib tashlagan maqbul edi-ya!

– Nima, jinni haydab chiqara olishga ishonching komil emasmi?

– Unchalikmas. Har qalay, ming ehtimoldan biri. Qolaversa, barcha qoidalarini ado etyapmiz.

– Qachon boshlaymiz bo'lmasa?

---

<sup>1</sup>Levit – Qadimiy Ahdning uchinchi kitobi.

– Qancha tez bo‘lsa, shuncha yaxshi, – dedi Jekson. – Faqat, ichkariga qanday kiramiz? Derazani sindiramizmi?

Xanton iljayib kissasiga qo‘l soldi va kalitni olib, Jeksonning burni tagida o‘ynatdi.

– Qayerdan topa qolding? Gartli berdimi?

– Yo‘q, – Xanton bosh chayqadi. – Texnik nazorat xizmatining noziri Martindan oldim.

– Nima ish qilmoqchi ekanimizdan xabardormi u?

– Payqayotgan ko‘rinadi. Yarim oycha avval menga qiziqarli bir voqeani aytib beruvdi.

– „Go‘shiqymalagich“ haqidami?

– Yo‘q, – dedi Xanton. – Muzlatkich haqida. Qani, ketdik bo‘lmasa.

\* \* \*

Adel Frauli o‘lgan, qabristonning sabr-toqatli va tishqoq xizmatchilari burdalardan tiklagan tanasi tobutda yotibdi. Biroq ruhining bir qismi mashinada qolgani ehtimol, basharti chindan shunday bo‘lsa, u dod-faryod ko‘tarishi kerak. Gap nimadaligini bilishi, ularni ogohlantirib qo‘yishi lozim. Missis Fraulining oshqozoni ovqatni yaxshi hazm qilmas va shu oddiy darddan qutulish uchun u eng oddiy dori ichardi. „Gel ye-2“ deb ataluvchi bu xabdoring bir qutichasi istalgan dori-xonada yetmish to‘qqiz sentga beriladi. To‘g‘ri, qutichaning biqiniga glaukoma xastaligi bor kishilar „Gel ye-2“ni qabul qilmasligi kerak, chunki uning tarkibidagi faol qo‘shimchalar ko‘z quvvatini pasaytiradi, deb yozib qo‘yilgan. Biroq, baxtga qarshi, Adel Frauli bu ogohlantirishga e‘tibor qilmadi. U yana bir narsani unutib qo‘ydi: Sherri Kvelett barmog‘ini kesib olishidan sal avvalroq Adel shu dori to‘la qutichani mashina ichiga tushirib

yuborgandi. Endilikda esa u qabrda yotibdi va oshqozonidagi og‘riqni yo‘qotgan faol qo‘shimcha Yevropaning ko‘plab mamlakatlarida „shuhrat qo‘li“ degan nomda mashhur bo‘lgan o‘simlik – belladonna ning kimyoviy hosilasi ekanidan butunlay bexabar.

Nogahonda „Blu ribbon“ fabrika-kirxonasidagi chiqur sukunat ichra qulqullagan mudhish tovush eshitildi. Ko‘rshapalak go‘yo aqldan ozgandek o‘zini ishongan boshpanasiga urdi – quritgich ustidan o‘tgan simlar orasidagi tirqishga biqinib, jajji basharasini keng qanotlari bilan yopib oldi.

Bu tovush kaltagina kulishga o‘xshardi.

Ana shu lahzada „go‘sh tqiy malagich“ shaqir-shuqur qilib ishlab ketdi – konveyer tasmasi harakatga keldi, bo‘rtmalar-u tishchalar o‘zaro tishlashdi, forsunkalaridan bug‘ puflovchi zalvorli silindrlar salmoq bilan aylana boshladi.

Mashina ularni kutardi.

\* \* \*

Xanton avtomobillar to‘xtash joyiga kelganida tun yarmidan og‘gan, Oy osmonda ohista suzib yurgan qora bulutlar ortiga yashiringan edi. U mashina chiroqlarini o‘chirish barobarida tormozni shu qadar keskin bosdiki, Jekson old oynaga urilishiga bir bahya qoldi.

Xanton motorni ham o‘chirdi va shunda ikkovlari bir maromdagi taraqlash tovushini eshitishdi.

– „Go‘sh tqiy malagich“, – dedi Xanton ohista. – Yarim tunda o‘z-o‘zidan ishlab yotibdi.

Ular bir muddat jim o‘tirishdi, qo‘rquvning temir tirnoqlari yuraklarini beayov changallay boshlagandi.

– Qani, ketdik, – dedi Xanton. – Bo‘ladigan ishning bo‘lgani ma’qul.

Ular mashinadan chiqib, binoga yaqinlashishdi – „go‘sh tqiy malagich“ tovushi qattiqroq eshitila boshladi. Xanton qulfni ocharkan, beixtiyor mashina jonli mavjudotdek tovush chiqarayotganini o‘yladi. Go‘yo u qizib yotgan tashna bo‘g‘ziga yutoqib havo yutar, hushtak chalganday, istehzoli bir pichirlash orqali o‘zi bilan gaplashayotgandek edi.

– Bilasanmi, nima? – deb qoldi Jekson. – Yonimda politsiyachi borligi nima uchundir katta dalda beryapti. – U jigarrang sumkasini bir yelkasidan boshqasiga oldi. Sumkada jemdan bo‘shagan va tabarruk suvga to‘ldirilgan mo‘jaz idish hamda Gideon Bibliyasi<sup>1</sup> bor edi.

Ular ichkari kirishdi va Xanton eshik yonidagi tugmachani bosib, chiroqni yoqdi. Shiftda fluoressent lampaga bir-ikki pirpirab olgach, sovuq zangori yog‘du tarata boshladi. Shu lahzadayoq „go‘sh tqiy malagich“ning tovushi o‘chdi.

Silindrlar uzra but pardasi ko‘rinadi. Mashina mudhish sukunat ichiga yashiringancha, ularni kutib turardi.

– Yo tavba, namuncha turqi sovuq bo‘lmasa-ya, – deya shivirladi Jekson.

– Bo‘laqol, – dedi Xanton. – Uning telbaligi tutmasidan ish boshlay qolaylik.

Ular „go‘sh tqiy malagich“ yoniga yaqin kelishdi. Xavfsizlik dastasi tushirib qo‘yilgandi.

Xanton qo‘lini cho‘zdi:

– Sal nariroq tur, Mark. Idishni menga bergin-da, nima qilish kerakligini ayt.

– Ammo...

– Kel, qo‘y, bahslashma!

---

<sup>1</sup> *Gideon Bibliyasi* – Bibliya, „Gideosinterneshnl“ tashkiloti chop etib, bepul taraqtadigan diniy adabiyot.

Jekson sumkani uzatdi. Xanton uni mashina oldidagi choyshab stoliga qo‘ydi va keyin Jeksonga Bibliyani berdi.

– Men duo o‘qiyman, – deb tushuntira boshladi Jekson. – Sen esa ishora qilganimda mashinaga tabarruk suv purkaysan. So‘ngra „Ota, O‘g‘il va Muqaddas Ruh nomidan buyuraman: bu yerdan chiq, yovuz ruh!“ deysan. Tushunarlimi?

– A-ha.

– Keyin, ikkinchi marta ishora qilganimda, shirin kulchani ushatib, duoni takrorlaysan.

– Duolarimiz ta’sir ko‘rsatgan-ko‘rsatmaganini qayerdan bilamiz?

– Qo‘yaver u yog‘ini. Bu yerda biqinib yotgan maxluq tashqariga chiqayotganida hamma narsani vayron qilib tashlaydi. Mabodo birinchi martada uddalay olmasak, marosimni qaytaraveramiz.

– Bilasanmi, yuragim orqaga tortib ketyapti, – dedi Xanton.

– Ochig‘i, mening ham tizzalarim qaltirab turibdi.

– Basharti anavi „shuhrat qo‘li“da yanglishgan bo‘lsak bormi...

– Yanglishmadik, – dedi Jekson. – Bu yog‘iga endi o‘zing madad ber, Parvardigorim!

U duo o‘qishga tutindi. Ovozi bo‘m-bo‘sh binoni to‘ldirib, devorlardan bo‘tiq aks-sado bo‘lib qaytardi.

– O‘zingiz yasagan sanamlarga va suratlarga sig‘inmanglar, o‘z yeringizda o‘zingiz o‘rnatgan tosh haykalarga sajda qilmanglar, faqat menga, Tangringizga, Parvardigoringizga sajda qiling...<sup>1</sup>

---

<sup>1</sup>Tavroti sharif. Muso alayhissalomga nozil etilgan uchinchi, „Levit“ kitobi, 26-bob.

Sukunat ichra soʻzlar zalvorli jaranglar, Xantonning esa aʼzoyi badani muzlab ketayotganday edi. Fluoussent lampaning yorqin, ammo oʻlik yogʻdusi ostida „goʻsht-qiyimalagich“ miq etmay, qilt etmay turar, biroq uning nazarida zaharxandalik bilan tirjayardi.

– ...oʻz yeringizdan dushmanlaringizni ham haydab chiqarasiz, chiqmaganlari qilichingiz zarbidan halok boʻlgʻusidir.

Shu payt Jekson oppoq chehrasini Bibliyadan koʻtarib, bosh irgʻadi.

Xanton konveyerning uzatuvchi mexanizmiga tabaruk suv purkadi.

Shu ondayoq mashinadan azobga toʻla qichqiriq yangradi. Suv tomchilari tekkan joylarda bugʻ vishilladi va havoga koʻtarilib, ingichka qizil iplarga aylandi. „Goʻshtqiyimalagich“ bir titradi-yu, oʻz-oʻzidan ishlab ketdi.

– Taʼsir qildi! – Jekson kuchayib borayotgan shovqin-suronni bosib ketishga urinardi. – Taʼsir qilmay ham koʻrsin-chi!

U yana duo oʻqishga kirishdi, taraq-turuq kuchaygani sayin ovozi balandlatardi. Keyin Xantonga qarab yana bosh irgʻadi va u suv purkadi. Ana shu lahzada Jekson vahima butun borligʻini qamrab olganini tuyqusdan sezib qoldi, dahshatli xatoga yoʻl qoʻyilgani, mashina ularning chaqirigʻini qabul qilganini va u... kuchliroq ekanini yaqqol his etdi.

U tobora baland ovozda oʻqir, rosmanasiga qichqira boshlagandi.

Nogoh motordan uchqun sachray boshladi; xona havosini ozon hidi tutib ketdi, unga qonning misniki singari taʼmi ham qoʻshilgandi. Endi bosh motordan tutun chiqar

boshladi. „Go‘sh tqiy malagich“ telbavor tezlikda aylanar – markaziy tasmaga barmoq uchi tekkizilsa bormi, butun tana quturgan konveyerga lahzaning qandaydir ulushi ichidayoq tortilib ketar, keyingi besh soniyada esa qonga botgan bir parcha lattaga aylanardi. Oyoq ostidagi beton pol titrashga tushdi.

So‘ng to‘satdan bosh podshipnikdan qirmizi yog‘du otildi, muzdek havoda momaqaldiroq hidi anqib ketdi. Biroq „go‘sh tqiy malagich“ hanuz ishlab turar, tasma harakati tobora tezlashar, vintchalar-u tishchalar shu qadar shiddat bilan aylanardiki, harakatini ko‘z ilg‘amasdi. Va nihoyat, hamma narsa kulrang tUSDagi yaxlit bir nimga aylandi, tumandek erib, shaklini o‘zgartira boshladi.

Go‘yo gipnoz holatida turgan Xanton seskanib, ortiga tisarildi.

– Ketdik, qochamiz! – deb qichqirdi u quloqlarni kar qiluvchi dahshatli shovqinni bosishga urinib.

– OZgina qoldi-ku, axir! – deya Jekson ham baqirdi. – Nega endi...

Shu lahza tasvirlab bo‘lmas darajada mudhish ovozda beton pol tarsillab yorildi. Yoriq ularning oyoqlari ostiga yugurarkan, tahdid ila kengayib borardi. Chor atrofda eski sement parcha-parcha bo‘lib, tepaga otilardi.

Jekson „go‘sh tqiy malagich“ga qarab qichqirib yubordi.

Mashina poldan qo‘zg‘alishga urinar, shu turishda qatron ko‘lmakka yopishib qolgan oyog‘ini ko‘chirib olishga harakat qilayotgan dinozavrni eslatardi. Endi uni umuman mashina yoki dazmol deb atab bo‘lmasdi. U shaklini o‘zgartirar, o‘tkir burchaklari yo‘qolib, erib borardi. Mana, qayerdandir 550 volt kuchlanishdagi kabel uzilib, shiddat bilan aylanayotgan vallar ustiga tushdi, shu zahoro-

tiyoq zangori uchqunlar chaq nab, vallar uni g'ajib tashladi. Ulkan ko'zlar yanglig' ikkita olovli shar ularga bir lahza tikilib qoldi, bu ko'zlarda ochlik, yuholik aks etardi.

Yana bir tros tarsillab uzildi. Va barcha tushov-bandlaridan ozod bo'lgan „go'shtqiy malagich“ bir tebranib oldi-da, yirtqichlar-cha pishqirgan holda to'g'ri ularga qarab intildi. Xavfsizlik dastasi otilib chiqib, havoda muallaq qoldi va Xanton ro'parasida bahaybat, katta ochilgan va bug' purkayotgan yebto'ymas jag'ni ko'rdi.

Ular o'girilib qocha boshlashdi, ammo shu zahotiy oyoqlari ostida yana bir yoriq paydo bo'ldi. Orqadan esa ozodlikka chiqqan yovvoyi hayvonning o'kirishi va tapilishi eshitilardi, xolos. Xanton yoriqdan sakrab o'tdi, biroq Jekson qoqilib ketib, yuztuban tushdi.

Xanton to'xtab, sherigiga yordam berish uchun o'girildi, ammo unga tepadan mahobatli va beshakl bir sharpaning soyasi tushdi, shu asnoda chiroqlar o'chdi.

Chalqancha yotgan Jekson ustida tog'day bo'lib turgan sharpaga tikilar va chehrasida beqiyos dahshat aks etardi. O'limga mahkum qurbonning vahimali nigohi edi bu. Xanton esa bo'yi shiftga tegadigan bahaybat qora sharpani ilg'ashga ulgurdi, xolos. Har biri futbol to'pidek keladigan elektr ko'zlar unga qadalgan, keng ochilgan jag'da esa kulrang brezent til aylanadi.

Xanton bor kuchi bilan yugurdi. Ortida esa Jeksonning jon achchig'ida chinqirgani eshitildi-yu, shu zahoti ovozi o'chdi.

\* \* \*

U.

Eshik qo'ng'irog'i ustma-ust jiringlashidan uyg'onib ketgan Rojer Martin uyqusiragancha o'rnidan turdi. Biroq tashqaridan dahlizga otilib kirgan Xantonni ko'rdi-



yu, boshidan bir chelak sovuq suv quyilgandek, ko‘zlari moshday ochilib ketdi.

Xantonning qiyofasi dahshatli edi – ko‘zlari kosasidan chiqib ketguday, tili aylanmas, qo‘llari Martinning xalatini jonholatda changallagan. Kesilgan yonog‘idan qon oqadi, butun yuzini qandaydir kulrang chang qoplagan.

Sochlari esa... oppoq oqarib ketgandi.

– Yordam bering... Xudo haqi, yordam bering! – Mashaqqat bilan bo‘lsa ham u nihoyat tilga kirdi. – Mark o‘ldi... Jekson halok bo‘ldi...

– O‘zingizni tuting, – dedi Martin. – O‘tiring, yoki, yaxshisi, mehmonxonaga kira qolaylik.

Xanton gandraklagan ko‘yi, yaralangan itday ingrab, unga ergashdi. Martin unga „Jim Bim“<sup>1</sup>dan ikki qultum quyib berdi, ammo Xanton ichishi uchun qadahni ikki qo‘llab tutishiga to‘g‘ri keldi. Keyin qadah gilamga tushdi, Xantonning titrab-qaqshagan qo‘llari esa yana Martinning yoqasiga yopishdi.

– „Go‘sh tqiy malagich“... Mark Jeksonni o‘ldirdi! Ey Xudo... u... u tashqariga chiqib ketishi mumkin! Biz bunga yo‘l qo‘ymasligimiz kerak! Aslo, aslo... mutlaqo!.. O-o-o!.. – U yaralangan hayvondek cho‘ziq ingrab yubordi.

Martin unga yana quyib bermoqchi bo‘ldi, biroq Xanton uning qadah tutgan qo‘lini siltab tashladi.

– Biz bu maxluqni yoqib tashlashimiz kerak! – deb qichqirardi u. – Tashqariga chiqib ketishga ulgurmasidan turib yo‘q qilishimiz shart! Agarda u ozodlikka chiqib ketsa bormi, o, unda nimalar bo‘ladi?! Ey Xudo, agar al-

---

<sup>1</sup> „Jim Bim“ – Kentukkida tayyorlanuvchi o‘tkir ichimlik turi.

laqachon chiqib ketmagan bo'lsa!.. – Shu payt Xantonning ko'zlari g'alati bo'lib kengaydi, qorachiq-lari tepaga qarab ketdi va u hushini yo'qotib, gilam ustiga xuddi o'likdek gursullab tushdi.

Missis Martin yotoqxona eshigida xalatining yoqasini tutgan-cha turardi.

– Bu kim bo'ldi o'zi, Roj? Aqldan ozmaganmi ish-qilib? Mening nazarimda... – U titrab ketdi.

– U-ku aqldan ozmagan, – dedi Martin. Qo'rquv, dahshatdan erining yuzi qiyshayib ketganini ayol endi payqab yetdi. – Ey Xudo, bu yog'iga yordam o'z paytida yetib kelsa bo'lgani edi...

Martin telefonga otildi. Biroq go'shakni tutgan ko'yi qotib qoldi.

Xanton qochib kelgan tomondan allaqanday g'alati shovqin eshitilib, uyga yaqinlashib kelardi. U tobora kuchayar, balandroq tovushda va aniqroq eshitilar, taraqturuq ichida temirning bir-biriga urilib qarsillashini yaqqol farqlash mumkin edi. Mehmonxonaning yarim ochiq derazasidan tungi shamol epkini bostirib kirdi. Martin ozon hidini sezganday bo'ldi... yo qon hidimikan?

U endi foydasiz telefonga qo'lini qo'ygan-cha qotib turar, shovqin-suron esa tobora yaqinlashib kelardi. Vishillagan, pishqirgan tovushlar yaqqol eshitilar, go'yo shahar ko'chalari bo'y-lab bug' purkovchi bahaybat dazmol bostirib kelardi. Xonani qon isi tutib ketdi.

Go'shak majolsiz qo'ldan sirpanib tushdi. Telefon ba-ribir ishlamasdi.

---

## YO'LOYOQ

Soat o'ndan o'n besh daqiqa o'tgan, Xerb Tuklander qovoqxonasini yopishga chog'lanib turgan bir paytda Folmautning shimoliy qismida joylashgan „Tukis bar“ga qimmatbaho palto kiygan va rangi dokadek oqarib ketgan bir erkak otilib kirdi. Shu kuni o'ninchi yanvar, aholining aksari qismi Yangi yil tufayli buzilgan tartib bo'yicha yashashga endigina ko'nika boshlagan, tashqarida esa nihoyatda kuchli shamol esayotgan edi. Qorning qalinligi qorong'i tushmasdanoq olti duymga yetganiga qaramay, hanuz bo'ralab yog'ardi. Billi Larribi greyderda yo'l tozalab yonimizdan ikki marta o'tdi, ikkinchi martasida Tuki unga pivo olib chiqib berdi. Onam bir paytlari buni mehribonlik deb atardi, uning o'zi bu pivodan o'z davrida qancha ichganini esa yolg'iz Xudo biladi. Billi Tukiga faqat asosiy shosse tozalanayotganini, yondosh yo'llar esa qatnov uchun ertalabgacha yopilganini aytdi. Portlend radiosi qor qoplaminig qalinligi yana bir futga ortishini, shamolning tezligi esa soatiga qirq milgacha kuchayishini bashorat qilibdi.

Barda Tuki ikkovimiz kamindagi alanga tillariga tikilganча, shamol uvullashini eshitib o'tirardik.

– Kel, endi yo'l uchun ichaylik, But, – dedi Tuki. – Yopadigan payt bo'lib qoldi.

Avval menga, keyin o'ziga ichkilik quydi, shu mahal eshik ochilib, boshidan qandupa sepilganday qorga belangan o'sha notanish kimsa kirib keldi. Shu lahzadayoq bar ichiga qor aralash shamol g'o'rillab urildi.

– Eshikni yoping! – deb o'shqirdi unga Tuki. – Yo molxonada tarbiya ko'rganmisiz?

Bu qadar qo'rqib ketgan odamni men shu paytgacha ko'rmagan edim. U menga kun bo'yi qichitqi o't yegan otni eslatdi. Erkak Tukiga ko'zlarini katta-katta ochib qaragancha, „Xotinim... qizim...“ dedi-yu, gurs etib quladi.

– Yo avliyo Iosif! – deya xitob qildi Tuki. – But, eshikni yopgin.

Men borib, izg'irin shamoldan junjikkancha, eshikni yopdim. Tuki erkakning yonida tiz cho'kib, uning boshini ko'tardi, yuzlariga shapatiladi. Ana shunda yo'lovchining ahvoli rasvoligini ko'rdim. Uning yuzlari qizargan, kulrang dog'lar paydo bo'lgandi. Vudro Vilson prezidentlik qilgan davrdan boshlab men shtatidagi barcha qishlarni boshdan kechirgan odam esa (kamina o'zimni nazarda tutyapman) bu kulrang dog'lar sovuq urganining aniq belgilari ekanini biladi.

– Hushidan ketdi, – deya izoh berdi Tuki. – Qani, brendidan olib kel-chi.

Men javondan shisha olib, ortimga qaytdim. Tuki yo'lovchining paltosi tugmalarini yechdi. U o'ziga kelgandek bo'ldi: ko'zlari xiyol ochildi, eshitarlar-eshitilmas darajada bir nimalar dedi.

– Quy jindek.

– Qancha? – deb so'radim men.

– Brendi – naq bombaning o'zi, – javob qildi u. – Mavnavi nusxa esa bugun rosa ta'zirini yegan ko'rinadi.

Qadahga brendidan jindek quyib, Tukiga qaradim. U bosh irg'adi.

– To'g'ri tomog'iga quy.

Men shunday qildim. Ichkilikning ta'siri darhol sezildi. Erkakning butun tanasi larzaga keldi, yo'tal tutdi. Yuzlari yanayam qizarib ketib, ko'zlari yirik-yirik ochildi. Men xavotirga tushdim, ammo Tuki uni kap-katta boladek o'tqazib qo'yib, kuragini bir-ikki qoqdi.

Erkak brendini qayt qilib tashlashga uringandi, Tuki yana bir tushirdi.

– Mumkin emas. Qimmat mahsulot bu.

Erkak hanuz yo'talar, lekin avvalgidek zo'riqmas edi. Ana shunda unga sinchiklab razm soldim. Ko'rinishiga qaraganda katta shahardan, qayerdandir Bostonning janub tomonlaridan bo'lsa kerak. Qo'lqoplari qimmatbaho, ammo yupqa, demak, qo'llarida ham kulrang dog'lar borgan o'xshaydi, agar bir-ikki barmog'idan ayrilmasa, omadi kelgan deyavering. Paltosi qimmatbaho, kamida uch yuz dollarli ekanligi aniq. Etiklarining qo'nji esa to'pig'iga yetar-yetmas, jimjiloqlarini ham sovuqda oldirgan bo'lsa ehtimol.

– Sal yengillashdim, – dedi u bo'g'iq ovozda.

– Mana bu boshqa gap, – Tuki bosh irg'adi. – Olovga yaqinroq bora olasizmi?

– Xotinim bilan qizim... o'sha yerda qolishdi... Bo'ronga uchradik.

– Ular uyda televizor ko'rib o'tirmaganlarini tushunib turibman har qalay, – javob qildi Tuki. – Nima bo'lganini kamin yonida bemalol gapirib berasiz. But, yordamlashib yubor.

Erkak ingranib, o'rnidan qo'zg'aldi, og'riqdan og'zi qiyshayib ketdi. U oyog'ini sovuq oldirmaganmikan, deb

yana o‘ylab qoldim. Men shtatining janubiy hududini shimoli-sharqiy bo‘ronlarga qasdma-qasd kesib o‘tishga urinuvchi nyu-yorklik telbalarni yaratayotgan paytida Parvardigor nimalarni his etganini faqat taxmin qilish mumkin. Bu odamning xotini bilan yosh qizchasi o‘zidan ko‘ra issiqroq kiyinishgan bo‘lsa shoyad, deb umid qilishdan bo‘lak chora qolmagandi.

Biz uni kamin yonigacha olib borib, tebranma oromkursiga o‘tqazdik. Missis Tuki 1974-yili vafot etgunga qadar doimo shu kursida o‘tirardi. Aslida bar ham aynan shu ayol tufayli nom chiqardi. Bar haqida „Daun ist“, „Sandi telegraf“ nashrlarida va hatto „Boston glob“ning yakshanbalik ilovasida yozishdi. Chindan ham „Tukis bar“ parket poli, zarang yog‘ochidan qurilgan bari, shiftdagi zalvorli to‘sinlari, toshlardan ko‘tarilgan yirik kamini bilan ko‘proq tavernaga o‘xshab ketardi. „Daun ist“da maqola chiqqanidan, keyin missis Tuki barga „Tukis inn“ yoki „Tukis rest“ degan yangi nom bermoqchi ham bo‘ldi, ular darhaqiqat, ichki bezaklarga ko‘proq mos kelardi, biroq menga eski nom – „Tukis bar“ ma‘qulroq. Yozda shtatimizni to‘ldirib yuboradigan sayyohlarning didiga moslashish boshqa-yu, qishda qo‘shnilarning o‘zigagina xizmat ko‘rsatib ishlash – boshqa. Ko‘pincha shunday bo‘lardiki, uzundan uzoq qish kechalarini faqat Tuki ikkovimiz sodali viski yoki pivoni ermak qilganча o‘tkazardik. Xotinim Viktoriya 1973-yili vafot etganidan beri faqat Tukining oldiga kelaman, boradigan boshqa joyimning o‘zi yo‘q. Bu yerda esa ovozlar, hatto ikkita ovoz – meniki va Tukiniki umrim lahzalarini sanayotgan soatning chiqillagan tovushini bosib ketardi. Biroq Tuki qovoqxonasi nomini „Tukis rest“ga o‘xshagan biron nimaga almashtirganida

bu yerga, balki, kelmasmidim. Bu albatta bema'ni fikr, lekin haqiqat.

Biz yo'lovchini olov yoniga o'tqazdik va u yanada kuchliroq qaltiray boshladi. U tizzalarini quchoqdab olgan, tishi-tishiga tegmas, burnidan suv oqardi. Nazarimda, ko'chada yana o'n besh daqiqa bo'lganida omon qolmasligini anglab yeta boshladi-yov. Uni qor emas, balki suyak-suyagidan o'tib ketuvchi, tananing bor haroratini so'rib oluvchi izg'irin shamol halok qilgan bo'lardi.

– Qayerda yo'ldan adashdingiz? – deb so'radi undan Tuki.

– B-b-bu y-y-yerdan j-janub t-tomonga o-olti m-mil masofada.

Tuki ikkovimiz bir-birimizga qaradik va nogahonda yuragim orqaga tortib ketdi.

– Aniq bilasizmi? – Tuki qayta so'radi. – Siz shu qorda olti mil yo'lni bosib o'tdingizmi?

U bosh irg'adi.

– Shahar bo'ylab o'tayotganimizda odometr<sup>1</sup>ga qaraganman. Aytilgani bo'yicha yurdim... Xotinimning... Kamberlenddagi singlisini... ko'rgani ketayotuvdik... bu yerda birinchi marta bo'lishimiz... o'zi Nyu-Jersidanmiz...

Nyu-Jersi. Nyu-Yorkliklardan ham o'tadigan telbalar mana qayerda yashar ekan.

– Olti mil ekaniga aniq ishonasizmi? – deb so'rashini qo'ymasdi Tuki.

– Ha, ishonaman. Men ko'rsatkichni topdim, uni qor ko'mib tashlagan ekan...

Tuki uning yelkasidan mahkam changalladi. Alanga shu'lasida erkak o'zining o'ttiz olti yoshidan ham katta-roq ko'rinardi.

---

<sup>1</sup> *Odometr* – yurilgan masofani o'lchaydigan asbob. (*Tarj.*)

– Siz o‘ngga burildingizmi?

– Ha, o‘ngga. Xotinim...

– Ko‘rsatkichni ko‘rdingizmi?

– Ko‘rsatkichni? – U Tukiga ma‘nisiz tikildi, keyin burnini artdi. – Ko‘rdim, albatta. Chunki xotinimning singlisi tushuntirgani bo‘yicha yurdim-da. Unga ko‘ra, Joytner-avenyu bo‘ylab Jerusalems-Lot orqali 295-sonli shossega chiqib olishim kerak edi. – U nigohini Tukidan olib, menga qaratdi. Ko‘chada shamol hanuz uvullardi. – Biron nimada yanglishibmanmi?

– Lot, – Tuki uf tortdi. – E Xudo!..

– Nima gap o‘zi? – Erkakning ovozi balandlashdi. – Biron narsani noto‘g‘ri qilibmanmi? To‘g‘ri, yo‘lga qor uyulib ketgan ekan, lekin men... agar oldinda shahar bo‘lsa... demak yo‘lni tozalashadi, deb o‘ylab...

U jim qoldi.

– But, – Tuki menga o‘girildi, – sherifga qo‘ng‘iroq qil.

– Bu yaxshi fikr, – deya ma‘qulladi nyu-jersilik tentak. – Ammo sizlarga nima bo‘ldi o‘zi, yigitlar? Xuddi arvohni ko‘rgandek sarosimaga tushib qoldingiz.

– Lotda arvoh yo‘q, mister. Siz xotiningiz bilan qizingizga mashinadan chiqmay o‘tirishni tayinlaganmisiz, ishqilib?

– Bo‘lmasa-chi! – Uning ovozidan ranjigani sezilmasdi. – Aqlimni yeb qo‘ymaganman-ku, har qalay.

Lekin bu masalada mening shubham bor edi.

– Ismingiz nima o‘zi? – deb so‘radim. – Sherifga ay-tishim kerak.

– Lamli, – deya javob berdi u. – Jerald Lamli.

U Tukiga yana nimalarnidir tushuntira boshladi, men esa telefon apparatiga qarab ketdim. Go‘shakni ko‘tar-



gandim, tiq etgan sado eshitilmadi. Klavishni qayta-qayta bosib ko'rdim, hech qanday natija bo'lmadi.

Men kamin yoniga qaytganimda Tuki Jerald Lamliga yana bir qadah brendi quyib uzatayotgan edi. Ichimlik bu gal to'g'ri oshqozonga yetib bordi.

– Ha, joyida yo'q ekanmi? – deb so'radi Tuki.

– Telefon ishlamayapti.

– Obbo, jin ursin, – dedi Tuki va tag'in bir-birimizga qaragancha qoldik.

Tashqarida esa shamol qorni derazaga keltirib urardi.

Lamli goh Tukiga, goh menga qarardi.

– Birontangizda mashina bormi? – Uning ovozida yana xavotir uyg'ongan edi. – Isitgich qurilma dvigatel ishlab turgan paytdagina isitadi. Benzin bakning chorak qismida qolgan, menga esa bir yarim soat kerak bo'ldi... Nega indamaysizlar, axir? – U o'rnidan turib, Tukining yoqasidan changallab oldi.

– Mister, – dedi Tuki, – qo'lingizga erk bermang.

Lamli bir qo'liga, bir Tukiga qaradi va panjalari bo'shshadi.

– Men shtati... – U xuddi so'kingandek ohangda shivirladi. – Shu yaqin oradagi yoqilg'i quyish shoxobchasi qayerda? Ularda tortuvchi mashina bo'lishi kerak...

– Eng yaqin shoxobcha Folmaut-Sentreda, – deb javob berdim men. – Bu yerdan uch mil masofada.

– Minnatdorman, – dedi u kinoya bilan. Keyin burildi-da, yo'l-yo'lakay paltosining tutmalarini qadagancha, eshik tomon yo'naldi.

– Lekin ishlamayotgan bo'lsa kerak, – deb qo'shimcha qildim.

U o'girilib, bizga tikilganча qoldi.

– Bu nima deganing o'zi?

– U siz qovoqkallaga shuni tushuntirmoqchi bo‘lyaptiki, Folmaut-Sentredagi yoqilg‘i quyish shohobchasi Billi Larribiga qarashli, Billining o‘zi esa shu tobda greyderda yo‘l tozalash bilan band. Tushunarlimi endi? – Tuki sabr-toqat bilan izoh berardi. – Undan ko‘ra, jahldan paqqos yorilib ketmashingizdan burun olov yoniga qaytib, jimgina o‘tirganingiz ma‘qul emasmi?

Lamli hech baloni tushunib yetmagan, ammo qo‘rqib ketgan bir qiyofada ortiga qaytdi.

– Siz... hech qanaqa yordam berolmaymiz... bu yerda mashina yo‘q... demoqchimisiz?

– Men hech narsa deyayotganim yo‘q, – javob qildi Tuki. – Aksincha, sening jag‘ing tinmayapti. Agar birpas tilingni tiyib o‘tirsang, balki, biron chorasini o‘ylab ko‘rarmidik.

– O‘zi qanaqa shahar u – Jerusalems-Lot? – deb so‘radi Lamli. – Nega endi yo‘lda qor uyulib ketgan? Hech qanday chiroq ham ko‘rmadim.

– Jerusalems-Lot yonib ketganiga ikki yil bo‘ldi; – deb javob berdim men.

– Nima, uni qayta qurishmaganmi? – Lamlining bu gapga ishongisi kelmasdi.

– Ha, qurishmagan. – Men Tukiga qaradim. – Xo‘sh, nima qilamiz bo‘lmasa?

– Ularni u yerda qoldirish mumkinmas.

Men unga yaqin bordim. Xuddi shu lahzada Lamli deraza yoniga borib, tungi qorbo‘ronga nazar tashlayotgandi.

– Mabodo ularga yetib olishgan bo‘lsa-chi? – deb so‘radim men.

– Mumkin, – deya javob qildi Tuki. – Biroq anig‘ini bilmaymiz-ku. Bibliya javonda turibdi, senda xoch bormi?

Men qo‘ynimdan katolik cherkovida tabarruk qilingan xochni olib ko‘rsatdim. Tug‘ilganimdan buyon kongregatsionalizm ruhida tarbiya topganman, biroq Jerusalems-Lot atrofida yashovchilarning aksariyati endilikda xoch yo avliyo Kristofer medalonini taqadi yoki yonida tasbeh olib yuradi. Gap shundaki, ikki yil muqaddam, oktabrning qorong‘i tunlaridan birida Lot boshiga kulfat tushgan. Gohi-gohida, uzundan uzun qish kechalari Tukining barida doimiy mijozlar yig‘ilib qolgan kezlari gap aylanib kelib o‘sha fojiaga taqaladi. Va bu shunchaki quruq gap emas, aslo. Agar bilsangiz, Lotda odamlar g‘oyib bo‘la boshladi. Avvaliga bitta-ikkitadan, keyin butun boshli oilalar dom-daraksiz yo‘qolib ketaverdi. Maktablar yopildi. Shahar qariyb bir yil kimsasiz qoldi. To‘g‘ri, ayrimlar, ayniqsa boshqa shtatlardan kelgan, hozir ro‘paramizda o‘tirgan kimsaga o‘xshash telbalar, aksincha, o‘sha yerga ko‘chib borishdi, uylar arzonligiga uchishgan bo‘lsa kerak-da hoynahoy. Biroq tashlandiq shaharda hech kim uzoq yasholmadi. Ba‘zilar Lotda bir-ikki oy turib, jo‘nab ketishdi. Boshqalar... nima desak ekan, g‘oyib bo‘lishdi. Keyin esa uzoq davom etgan qurg‘oqchil kuzning adog‘iga borib shaharga o‘t ketdi. Yong‘in Joynter-avenyu tepasidagi adirlikda joylashgan Marsten-Xausdan boshlangan deyishadi, ammo buni hech kim aniq bilmaydi, to shu paytgacha ham. Shahar uch kecha-yu kunduz alanga ichida qoldi, biroq uni hech kim o‘chirmadi. Keyin qandaydir vaqt hayot o‘z maromiga tushgandek bo‘ldi. So‘ngra hammasi qaytadan boshlandi.

„Vampirlar“ degan so‘z ovoz chiqarib aytilganini faqat bir marta eshitganman. O‘sha kecha friportlik haydovchi Richi Messina yaxshigina kayf bo‘lib qolgandi. Jun shim,

ko‘ylak va charm etik kiygan bu odam naq to‘qqiz futli bo‘y-bastini g‘oz tutgancha bo‘kirardi:

– Ey Xudo, hamma narsani o‘z nomi bilan atashdan namuncha qo‘rqmasangiz? Vampirlarmish! Baringiz ana shu haqda o‘ylayapsizlar-ku axir, to‘g‘rimasmi? Yo Iso Masih-u aziz-avliyolar! Nima o‘zi – qo‘rqinchli filmlarni ko‘rgan yosh bolalarmisiz? Jerusalems-Lotda nimalar bo‘layotganini bilasizlarmi o‘zi? Yo men gapirib berishimni xohlaysizlarmi? Aytaveraymi, a?

– Qani, aysang ayta qol-chi, – deb javob qildi Tuki. Va barda og‘ir sukunat cho‘kdi. Kaminda o‘tinlar chirsillashi-yu noyabr yomg‘iri tomni taraqlatishi eshitilardi, xolos. – Qulog‘imiz senda.

– U yerda daydi itlarning bir necha to‘dasi bor, xolos, – dedi shunda Richi Messina. – Bironta odam ham yo‘q. Qolgan bari esa arvohlar to‘g‘risidagi ertaklarni yaxshi ko‘ruvchi kampirlarning safsatasidan bo‘lak narsa emas. Agar xohlasangizlar, sakson baksiga garov o‘ynab, o‘sha yerga borishga va arvohlar uyasida bir kecha tunashga tayyorman. Qani, xo‘sh, men bilan kim garov o‘ynaydi?

Hech kim garov o‘ynamadi. Richi o‘lguday ezma va ashaddiy piyonista bo‘lganidan mabodo o‘lib ketsa go‘rida biron ko‘zyoshi to‘kmasdi. Lekin baribir, qorong‘i tushganidan keyin uni Jerusalems-Lotga yuborishni hech birimiz xohlamasdik.

– Jin ursin sizlarni! – dedi Richi. – „Shevi“<sup>1</sup>yukxonasi-dagi miltiq Folmaut, Kamberlend yoki Jerusalems-Lotda istalgan narsaga bas kela oladi. Ketdim o‘sha yerga!

U eshikni taraqlatib yopib chiqib ketdi va barda uzoq sukunat cho‘kdi.

---

<sup>1</sup> „Shevi“ – mashina turi.

– Richi Messinani endi boshqa hech kim ko‘rmaydi, – dedi ruhoniylar Lamont Genri va cho‘qinib qo‘ydi: – Joyi jannatda bo‘lsin iloyo.

– Kayfi tarqasa, o‘ziga kelib qoladi, – dedi Tuki, lekin ovozi ishonchsiz edi. – Bar yopilishiga yaqin kirib keladi-yu, hamma narsani hazilga aylantirishga urinadi.

Baribir Lamont haq bo‘lib chiqdi: Richini shundan keyin boshqa hech kim ko‘rmadi. Xotini erim avtomobil uchun navbatdagi haqni to‘lay olmaganidan Florida-ga qochib ketdi, dedi-yu, ammo haqiqat uning dahshat to‘la nigohida yaqqol ko‘rinib turardi. Ko‘p o‘tmay ayol Rod-Aylendga ko‘chib ketdi. Qorong‘i tunda Richining arvohi kelib qolishidan qo‘rqqandir, ehtimol. Yana o‘zi biladi.

Tuki menga tikilar, men esa ko‘ylak ostidagi xochni ushlagancha unga qarab turardim. Umrimda hech qachon shunchalik dahshatga tushmaganman, o‘tgan yillar zalvori yelkamdan shunchalik bosmagandi.

– Biz ularni o‘sha yerda qoldirolmaymiz, But, – deya takrorladi Tuki.

– Ha, bilaman.

Biz yana birpas bir-birimizga qarab turdik, keyin u yelkamdan bosib qo‘ydi:

– Mardligingga borman-da, But.

Shu gapning o‘zidanoq dadillashib ketdim. Yetmishdan oshganingdan so‘ng mardmisan, yo‘qmi, o‘ylamay ham qo‘yar ekansan.

Tuki Lamliga yaqinlashdi.

– „Skaut“<sup>1</sup> vezdexodim bor. Hozir olib kelaman.

---

<sup>1</sup> „Skaut“ – mashina turi.

– Ey Xudo, shuncha payt indamay o‘tiribsizmi? – Lamli Tukiga o‘qrayib qaradi. – O‘n daqiqani behuda o‘tkazib, valaqlab yotibsiz-a?!

– Ovozingizni o‘chiring, mister, – dedi Tuki muloyimlik bilan. – Mabodo yana chakagingizni ochmoqchi bo‘lsangiz, bo‘ronda tozalanmagan yo‘lga kim burilib ketganini bir eslab ko‘ring.

Lamli nimadir demoqchi bo‘ldi-yu, ammo og‘zini yumdi. Yuzlari qizarib ketdi. Tuki „Skaut“ni olib kelish uchun garajga ketdi. Men esa bar peshtaxtasini aylanib o‘tib, xromlangan flyagani brendiga to‘ldirib oldim. Shu sharoitda spirtli ichimlik asqotib qolishi mumkin.

\* \* \*

Men shtatidagi bo‘ron... Unga hech duch kelganmisiz?

Qalin qor osmonni to‘ldirib kelib, mashinaga xuddi qumdek shatir-shutur uriladi. Olisni yorituvchi chiroqni yoqish befoyda: yorug‘lik qor parchalarida aks etib qaytib ko‘zga uriladi, o‘n fut masofadan hech narsani ko‘rib bo‘lmaydi. Yaqinni yorituvchi chiroqda esa o‘n besh futgacha ko‘rinadi. Lekin qor ham hech gapmas hali. Eng rasvosi shamolki, uning uvullashida yer yuzining jamiki dardi-hasrati, nafrat-dahshati eshitaladi. Shamol o‘limni, oq ajalni, balki, o‘limdan-da dahshatliroq nimanidir keltiradi. Eshik-derazalar yopilgan uyda, issiq o‘rinda yotgan bo‘lsangiz ham bu o‘kirishdan yurak orqaga tortib ketadi. Yo‘lda-ku, shamol endi umuman aqldan ozdiradi. Ayniqsa Jerusalems-Lot yo‘lida.

– Tezroq yursangizlar o‘lasizmi? – dedi Lamli.

– Siz sovqotib o‘lishingizga bir bahya qoluvdi, – deya javob qildim men.

– Yoki yana ajal izlab piyoda ketmoqchimisiz?

Endi u menga o‘qrayib qaradi, ammo hech nima demadi. Biz soatiga yigirma besh mil tezlikda yurardik. Yo‘lning shu qismini Larribi bir soatgina avval tozalaganiga ishonish qiyin: qor ikki duym qalinlikda tushgan, yog‘gani-yog‘gan edi. Chiroqlar yog‘dusida chir aylanayotgan qor parchalari ko‘rinardi, xolos. Yo‘limizda birona ham mashina uchramadi.

Oradan o‘n daqiqalar o‘tgach, Lamli bexosdan:

– Iye? U nimaydi? – deb baqirib qoldi.

U men tomondagi derazaga barmoq nuqirdi. To‘g‘riga qarab ketayotgan odamga ancha kechikib o‘girildim, chog‘i. Ko‘rinishi noaniq allaqanday sharpa oqlik qa‘riga singib ketganini ilg‘ayoldim, xolos. Yana kim biladi deysiz, balki, bu tasavvurim o‘yinidir.

– Nima ko‘rdingiz? Losnimi?

– Ehtimol, – uning ovozi titrardi. – Lekin ko‘zlari... qip-qizil edi! – Lamli menga qarab qoldi. – Nima, losning ko‘zlari tunda shunday ko‘rinadimi? – U mendan tasdiq ishorasini kutardi.

– Har qanaqa ko‘rinish mumkin, – deb javob qildim shunga ishonishga urinib. Loslarni kechasi avtomobil ichidan turib ko‘p bora kuzatganman, ammo chiroq yog‘dusi uning ko‘zida, qizil rangda aks etishini ko‘rmaganman.

Tuki miq etmaslikni ma‘qul ko‘rdi.

O‘n besh daqiqalardan keyin o‘ng tomondagi qor uyumi keskin pasaygan joyga yetib keldik: qor tozalagich mashinalar chorrahadan o‘tishda „pichog‘i“ni doimo ko‘taradi.

– Nazarimda, shu yerdan burildig-ov, – Lamlining ovozida ishonch yetishmasdi. – To‘g‘ri, ko‘rsatkichni ko‘rmayapman...

– Shu yer, – deya bosh irg‘adi Tuki. Uning ovozi tanib bo‘lmasdi. – Ko‘rsatkichning yuqori qismi qor uyumidan chiqib turibdi.

– Ha, ha, to‘g‘ri, – Lamli yengil tin oldi. – Mister Tuklander, men uzr so‘ramoqchi edim. Agar bilsangiz, sovqotgandim, hayajonlangandim, shular sababli ham o‘zimni telbalarcha tutdim. Xullas, ikkovingizga minnatdorchilik bildirmoqchiman...

– Xotiningiz bilan qizchangizni topmagunimizcha But ikkovimizga rahmat aytishga shoshilmay turing, – Tuki uning so‘zini bo‘ldi. Keyin „Skaut“ni to‘rt g‘ildirakli yuritma tartibiga o‘tkazdi va qor uyumini aylanib o‘tib, Lot orqali 295-shossega chiqadigan Joytner-avenyuga burildi. Qor g‘ildiraklar ostidan favvora bo‘lib otilardi. Orqa g‘ildiraklar sirpana boshladi, ammo Tuki anchadan buyon haydovchilik qilishi tufayli mashinani bir zumda o‘nglab oldi. Bu yo‘ldan avval o‘tgan avtomobil – Lamli „Mercedes“ining izlari chiroqlar yog‘dusida bir ko‘rinib, bir g‘oyib bo‘lardi. Lamli oldinga engashib, qor pardasiga tikildi.

Shu o‘rinda Tuki gap boshladi:

– Mister Lamli.

– Labbay! – U Tukiga o‘girildi.

– Mahalliy aholi orasida Jerusalems-Lot haqida har xil gaplar yuradi.

U xotirjam so‘zlar, ammo yuzidagi ajinlar chuqurlashib, ko‘zlari olma-kesak tera boshlagandi.

– Bularning bari shunchaki mish-mish bo‘lishi mumkin, albatta. Agar xotiningiz bilan qizchangiz kabinada bo‘lishsa, juda soz. Biz ularni mening uyimga olib ketamiz, ertaga bo‘ron tinganida esa Billi avtomobilingizni sudrab keladi. Lekin ular kabinada bo‘lishmasa...



– Bu nima deganingiz? – Lamli uning gapini shartta kesdi. – Kabinada bo‘lmay qayerda bo‘lishardi?

– Mabodo ular kabinada bo‘lishmasa, – deya davom etdi Tuki javob qilmay, – biz Folmoutga qaytamiz va bor gapni sherifga aytamiz. Bunaqangi bo‘ronda va yana yarim tunda ularni izlashdan foyda yo‘q, to‘g‘rimasmi?

– Biz ularni kabinadan topamiz. Yana qayerda bo‘lishlari mumkin?

– Yana bir narsa, mister Lamli, – deya qo‘shimcha qildim men. – Basharti biron kimsa uchrasa, u bilan suhbatlashish mumkinmas. Hatto u gap boshlagan taqdirda ham. Tushundingizmi?

– Qanaqa gaplar yuradi... dedingiz? – Lamli ohista, deyarli har bir so‘zga urg‘u berib so‘radi.

Unga qanday javob qaytarishim yolgiz Xudoga ayon edi, biroq Tuki meni bu vaziyatdan qutqardi:

– Yetib keldik.

Biz katta „Mercedes“ning ortiga taqalib to‘xtagandik. Mashina tomi va yukxonasini qalin qor qoplagan, chap tomonda yirik uyum to‘plangan. Lekin orqa chiroqlar yo‘niq, chiqindi gaz quvuridan tutun chiqib turardi.

– Benzin tugabdi, – dedi Lamli beixtiyor.

Tuki motorni o‘chirmagan holda qo‘l tormozi dastagini yuqori ko‘tardi.

– But nima deganini unutmang, mister Lamli.

– Xo‘p, xo‘p? – Lamli faqat xotini bilan qizi to‘g‘risida o‘ylar, buning uchun uni ayblab ham bo‘lmasdi.

– Tayyormisan, But? – Tuki menga o‘girildi. Nigohlarimiz to‘qnashdi.

– Tayyorman shekilli.

Biz kabinadan chiqdik va shu zahoti yuz-ko‘zimizga qor aralash shamol urildi. Lamli sal engashganча ol-

– Ular istalgan joyda bo‘lishi mumkin, – deb javob qildi Tuki. – Izlar bo‘ylab yurish kerakmas. Shamol ularni birpasda ko‘mib tashlaydi.

– Nima qil deysiz bo‘lmasa? – jonholatda qichqirdi Lamli. – Politsiyaga borgunimizcha ular muzlab qoladi! Frensi ham, xotinin ham!

– Ehtimol, muzlab bo‘lishgandir. – Tuki Lamliga nigohini qadadi. – Agar bundan battarroq‘i bo‘lmasa...

– Nimalar deyapsiz? – Lamlining nafasi ichiga tushib ketdi. – Ochiqroq gapirsangiz-chi, jin urgur! Gapiring deyman!

– Mister Lamli, – dedi Tuki. – Gap shundaki, Lotda...

O‘zim kutmagan holda gapning indallosini o‘zim aytib qo‘ya qoldim.

– Vampirlar, mister Lamli. Jerusalems-Lotda vampirlar tiqilib yotibdi. Buni anglab yetish mushkulligini bilaman, albatta...

Uning ko‘z o‘ngida birdan ko‘karib ketganimday menga baqrayib qaradi-da, ohista shivirladi:

– Aqldan ozibsizlar. Ikkovingiz ham. – Keyin bizdan yuz o‘girib, kaftlarini karnay qilganicha qichqirdi: – Frensi! Jeyni!

So‘ng iz bo‘ylab ketdi, paltosining barlari qor uzra sudralib borardi.

Men Tukiga qaradim.

– Nima qilamiz?

– Ortidan boramiz. – Uning soch tolalari qordan peshonasiga yopishib qolgan, qiyofasi g‘alati ko‘rinardi. – Uni bu yerga tashlab ketolmayman. Sen-chi?

– Men ham.

Biz uning ortidan yurdik. Lekin oramizdagi masofa tobora uzayar edi. Lamlining yoshlik quvvati sezilar,

qorni baayni greyderdek yorib borardi. Menda esa artrit xuruji tutib qoldi, oyoqlarimga qarab yana biroz chidanglar, birpasga sabr qilinglar, deya yolvorardim...

Shu tariqa yurib, Tukiga to'qnash keldim. U oyoqlarini kergancha turar, boshi egilgan, qo'llari ko'kragini g'ijimlardi.

– Tuki, – dedim, – sog'-omonmisan?

– Hammasi joyida, – dedi u qo'llarini tushirarkan. – Uni ko'zdan qochirishimiz kerak, But. Hademay charchab qoladi va jiddiyroq o'ylay boshlaydi.

Biz tepalik ustiga chiqib, Lamli pastda izlarni axtarayotganini ko'rdik. Lekin, boyaqish ularni topishi amri mahol edi. U turgan joyda kuchli shamol esar va har qanday izni bir zumda ko'mib yuborardi.

Lamli boshini ko'tarib, tun qa'riga qarata qichqirdi:

– Frensi! Jeyni! Xudo haqi, javob beringlar!

Uning ovozida sarosima, dahshat, og'riq sezilardi. Unga faqat shamolning o'kirishi javob bo'lardi. Shamol uni masxaralab kulayotgandek va shunday deyayotgandek tuyulardi: „Ular mening qo'limda, mister Nyu-Jersi. Siz esa hashamatli mashinangiz va kashmiri paltoyingiz bilan qolavering. Ularni men oldim, izlarini yo'qotdim, ular ertalabgacha ikkita muzqaymoqqa aylanishadi...“

– Lamli! – deya baqirdi Tuki shamol uvullashini bosishga urinib. – Vampirarga ishonmasangiz ishonmang. Ammo ularga ham yordam berolmaysiz. Yaxshisi, qaytganimiz ma'qul...

Shu asnoda Lamli javob berishdi. Tun zulmati ichidan kumush qo'ngiroqchalardek jaranglagan ovoz eshitildi va mening butun a'zoyi badanim muzlab ketdi.

– Jerri... Bu senmisan, Jerri?

Lamli ovoz kelgan tomonga o'girildi. Shu lahza-da kichik daraxtzor qorong'iligidan bir ayol arvohek ohista suzib chiqdi. Shaharlik ekani ham mayli-ya, men ko'rgan ayollar orasida eng sohibjamoli edi u. Unga yaqinlashib, quvonchimni izhor qilishni istardim, sog'omon ekan, shodlanmay bo'ladimi, axir! Ayol yashil pulover kiygan, ustidan yengsiz yopinchiq tashlagan – bunaqasi poncho deyiladi, chog'i. Shamol yopinchiq barlarini o'ynar, to'sday qora sochlarni to'zg'itardi. Dekabr oyida, muz qoplamasidan avval jilg'a suvi mana shunday mavjlanadi.

Men ayol tomon qadam qo'ydim ham shekilli, chunki yelkamda Tukining dag'al va qaynoq qo'lini sezdim. Lekin baribir shu ayolga yetishishni xohlardim – ko'ngilning ko'chasini qaranglar-a! Qora sochli go'zal dilbar. Yashil ponchosi bo'yni va yelkalarida hilpiraydi. Uolter de la Merning she'rlaridagi g'aroyib parivashning o'zginasi edi u...

– Jeyni! – deya qichqirdi Lamli. – Jeyni!

Va qo'llarini cho'zganicha, qor osha u tomon intildi.

– Qayt! – deya uni to'xtatishga urindi Tuki. – Mumkin emas, Lamli!

U hatto qayrilib boqmadi... ayol esa bizga qaradi va jilmayib qo'ydi. Uning bu kulgusidan boyagi ehtiroslarim so'ndi-qoldi. Lov etib yonib ketgan hislarimga sovuq suv sepilgandek bo'ldi go'yo. Ayoldan qabr sovuqligi kelar, kafanga o'rangan so'ngaklardek edi ko'rinishi. Hatto shuncha masofadan ham ko'zlari qizilligini ko'rdik. Odamning emas, bo'rining ko'zlari edi ular. Ayol iljayganida esa haddan ziyod uzun tishlari ko'rinib ketdi. Xullas, ro'paramizda inson emas, balki shu quturgan bo'ronda, qandaydir tarzda tirilib qolgan murda turardi go'yo.

Tuki uni cho'qintirdi. Ayol tislandi va yana iljayib qo'ydi. Biz undan ancha uzoqda edik, lekin baribir qo'r-qib ketdik.

– Uni to'xtatish kerak! – deya shivirladim. – To'xtata olamizmi?

– Kechikdik, But! – dedi Tuki mash'um ohangda.

Lamli ayolning yoniga yetib borgandi. Qorga dumalab, o'zi ham odamdan ko'ra arvoqqa o'xshab ketardi. U ayolga intildi va birdan... qichqira boshladi. Men hali-hanuz bosinqiragan kezlarim shu qichqiriqni eshitaman: kap-katta odam qo'rqinchli tush ko'rgan bolakaydek baqirardi. Lamli o'zini olib qochishga urindi, ammo ayolning uzun, yalang'och va qordek oppoq qo'llari oldinga cho'zilib, uni o'ziga tortdi. Men ayol boshini bir tomonga xiyol egib, erkakka intilganini ko'rdim...

– But! – deya xirilladi Tuki. – Qochmasak bo'lmaydi endi!

Va biz yugurib ketdik. Naq kalamushlardek qochib borardik o'ziam. O'sha tunda o'sha yerda bo'lmagan odam shunday deb aytar ham balki. O'z izimiz bo'ylab halloslab yugurar ekanmiz, yiqildik, turardik, sirpanib ketgan paytlarimiz qo'llarimizni yozib, muvozanat saqlardik. Og'zi qulog'iga yetib ishshaygan, ko'zlari qizil ayol ortimizdan quvib kelmayaptimikan, degan xavotirda men dam-badam o'girilib qarardim.

„Skaut“ning yoniga yetganda Tuki ko'kragini chagallaganicha ikki bukilib qoldi.

– Tuki! – deya qo'rqib ketdim. – Nima gap?..

– Yuragim, – deb shivirladi u. – Keyingi besh yildan beri bezovta qiladi. Meni yo'lovchi o'rniga o'tqazgin-u, o'zing hayda mashinani!

Men uning qo‘ltig‘idan oldim-da, avtomobilni aylanib o‘tib, kabinaga bir amallab o‘tqazdim. Tuki o‘zini orqaga tashlab, ko‘zlarini yumdi. Yuz terisi sarg‘ayib, mumsimon tusga kirdi.

Men „Skaut“ni old tomonidan yugurgancha aylanib o‘tarkanman, kichkintoy qizaloqni yiqitib yuborishimga oz qoldi. U mashina eshigi yonida turar, sochlari ikkita qilib o‘rilgan, sariq ko‘ylakda edi.

– Mister, – dedi u tiniq, jarangdor va tonggi tumandek mayin ovozda. – Siz oyimni topishga yordam berolmay-sizmi? U ketib qoldi, men esa sovqotyapman...

– Qizaloq, tezroq kabinaga kir. Sening oying...

Shu lahzadayoq so‘zim bo‘g‘zimda qoldi – qanday qilib aqldan ozmaganimga hayronman o‘sha tobda. Chunki qizcha qor ustida emas, balki hech bir iz qoldirmagan ko‘yi qor uzra muallaq turardi.

Boshini ko‘targancha menga tikilib turgan bu go‘dak Lamlining qizi Frensi edi. Yetti yoshli qizaloq, behisob tunlar mobaynida shu yoshida qolaveradi endi. Uning rangi murdanikidek oppoq, ko‘zlari cho‘g‘day yonadi. Bo‘ynida ikkita qizil nuqtani ko‘rdim, xuddi igna sanchilgandek, lekin atrofidagi terisi go‘yo tishlangandek edi.

U menga qo‘llarini cho‘zib jilmaydi.

– Meni ko‘taring, mister, – deya chug‘irladi. – Men sizni o‘pmoqchiman. Shunda siz meni oyijonimning oldiga olib bora olasiz.

Qizchani o‘pishni istamasdim, lekin hech narsa qilolmadim. Beixtiyor unga qarab engashdim, qo‘llarimni cho‘zdim. Qizchanning og‘zi ochilayotganini, pushti lablar ortidagi mayda tishlarni ko‘rdim. Uning dahanidan yarqiroq va kumushrang bir nima oqa boshladi – u so‘lak ekanini dahshat ichra anglab yetdim.

Uning jajji qo‘lchalari bo‘ynimdan quchdi, men esa bu ish u qadar dahshatli bo‘lmasa kerag-ov, deya o‘ylay boshlagandim. Shu payt „Skaut“ derazasidan qora va zalvorli bir nima otilib chiqib, qizchanning ko‘kragiga urildi. Shu ondayoq g‘alati hidli tutun paydo bo‘ldi, allanarsa yaraqlab ketdi va qizaloq vishillagancha o‘zini orqaga oldi. G‘azab, nafrat, og‘riqdan yuzi bujmayib ketdi. Qizcha yon tomonga o‘girildi va... ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi. Hozirgina qarshimda turgandi, bir lahzada qor bo‘roni qa‘riga singib ketdi, go‘dak qiyofasi elas-elas ko‘zga tashlanardi. Mana endi shamol shu manzarani ham chirpirak qilib aylantirib, ochiq dalaga olib ketdi.

– But! – deya shivirladi Tuki. – Tezroq o‘tir!

Men rulga o‘tirishdan avval hamrohim do‘zaxi qizchaga otgan narsani engashib yerdan oldim. Bu uning onasidan qolgan Bibliya edi.

Yuqorida aytganlarim allaqachonlar ro‘y bergan voqea. Hozir qarib-churib qolganman, ammo-lekin o‘shanda ham yosh emasdim. Xerb Tuklander ikki yil muqaddam vafot etdi. Osongina jon berdi – uxlati-yu, qaytib turmadi. Bar ishlab turibdi, uni Uotervilldan kelgan er-xotin sotib olishgan. Ajoyib odamlar ekan, u yerda hech nimani o‘zgartirmaslikka urinishadi. Men barga ahyon-ahyonda boraman, negaki Tukisiz zerikaman.

Lotda hamma narsa o‘sha-o‘sha. Yuqoridagi voqeaning ertasi kuni ertalab sherif Lamlining avtomobilini topdi. Tuki ham, men ham unga hech narsa demadik. Nima keragi bor? Vaqti-vaqti bilan biron yo‘lovchi yoki turist shu atroflarda – Maktab yoki Uyg‘unlik adirligidagi qabriston tevaragida g‘oyib bo‘lib turadi. Keyin safarxalta, qog‘oz muqovali kitob yoki shunga o‘xshash biron nima topib oladi, ammo g‘oyib bo‘lganlar tanasi hech qachon topilmaydi.

Biz Jerusalems-Lotga borganimizdagi o'sha bo'ronli tun hali-hanuz tushlarimga kirib chiqadi. Ayoldan ham ko'ra jajji qizaloq, uning menga qo'llarini cho'zib turgan, men uni ko'tarmoqchi, u meni o'pmoqchi bo'lgan paytdagi kulgusi ko'z oldingga kelaveradi. Lekin yoshim bir joyga borib, to'rimdan go'rim yaqin qoldi, olamdan o'tsam, tushlarim ham men bilan birga ketadi.

Yo'lingiz tushib, siz ham Janubiy Men bo'ylab sayohatga chiqib qolarsiz balki. Xo'p ajoyib joylar. Tomoqni ho'llab olish uchun „Tukis bar“ga ham birrov sho'ng'ib chiqarsiz, ehtimol. Yaxshi bar. Yangi egalari uning nomini ham saqlab qolishdi. Ichishga-ku ichavering, ammo keyin mening maslahatimga kirib, yo'lingizni shimolga qarab davom ettiravering. Ikki dunyoda ham Jerusalems-Lotga tomon burila ko'rmang.

Ayniqsa, qorong'i tushganida.

Qayerdadir o'sha atrofda jajji qizaloq aylanib yuribdi. Nazarimda, u hamon kimnidir o'pishni xohlaydi.

---



## QOTILLAR

Genri tamaddixonasining eshigi ochildi. Ikkita odam kirib peshtaxta yoniga qo'yilgan stullarga o'tirishdi.

– Nima istaydilar? – deb so'radi Jorj.

– O'zim ham bilmayman, – dedi ulardan bittasi. – El, sen nima xohlaysan?

– Bilmayman, – deya javob qildi El. – Nima olish-gayam hayronman.

Ko'chada qorong'ilik quyuqlashgach, deraza ortidagi fonus yondi. Hozirgina kirib kelgan kimsalar taomnomani ko'zdan kechirishardi. Peshtaxta kunjagida turgan Nik Adams ulardan ko'z uzmasdi. Ular yemakxonaga kirib kelishganda u o'sha yerda Jorj bilan gaplashib turgan edi.

– Menga olma qaylasi va kartoshka bo'tqasi bilan dudlangan cho'chqa go'shti beraqol, – dedi birinchisi.

– Dudlangan go'sht tayyor emas hali.

– Taomnomada nima qilib turibdi tayyor bo'lmasa?

– Kechki ovqatning ro'yxati bu, – deb izoh berdi Jorj. – Oltiga tayyor bo'ladi.

Jorj peshtaxta tepasidagi osma soatga qaradi.

– Endi besh bo'pti.

– Qara yaxshilab, beshdan yigirmata o'tibdi, – dedi ikkinchisi.

– Soatimiz yigirma daqiqa oldinda.

– Ming la'nat o'sha soatingga, – dedi birinchisi. – yeyishga boshqa nimang bor?

– Har xil buterbrodlar bor, – dedi Jorj. – Quymoqli dudlangan cho'chqa go'shti, qovrilgan buyrak, bifshtekslar...

– Bo'lmasa, menga oq qaylali tovuqqa yashil no'xat bilan kartoshka bo'tqasi qo'shib keltiraqol.

– Buyam oltidan boshlab.

– Nima so'rasam – hammasi oltidan keyin... Qoidalarindan o'rgildim senlarning.

– Qovrilgan tuxum bilan dudlangan go'sht oling, tuxumga iylab qovrilgan biqin go'shti ham bor, buyrak...

– Bo'pti, tuxum bilan qovrilgan go'sht olib kel, – dedi El. Uning boshida dekchasimon telpak, egniga tomog'iga qadar tugmalangan qora palto kiyib olgandi. Yuzi etsiz, rangpargina, lablarini qimtib o'tirardi. Qo'lida qo'lqop, bo'ynida ipak sharf.

– Menga bo'lsa, qovrilgan tuxum bilan dudlangan cho'chqa yog'i, – dedi boshqasi. Ikkovi ham bir xilda bo'ychan, afti-basharasi o'xshamasa ham bir xilda kiyinib olishgan, shuning uchunmi, bir-biriga o'xshashar, ikkovining ham egnida tor, uzun palto. Ular peshtaxtaga tirsaklarini qo'yib xiyol oldinga egilganicha o'tirishardi.

– Ichishga biron nima bormi? – deb so'radi El.

– Limonad, qahva, gazli suv.

– Ichishga, deb so'rayapman.

– Shu aytganlarim bor, xolos.

– Juda dilkusho shaharcha ekanmi, El? – dedi boshqasi. – Aytganicha, nomi nima shaharchalarningning?

– Sammit.

– Eshitganmisan hech, Maks? – deb so'radi El.

– Yo'q.

– Kechki paytlarda nima qilishadi bu yerning odamlari? – deb so‘radi El.

– Ovqatlanishadi, – dedi Maks. – Hammalari bu yerga kelib dong‘i ketgan tansiq taomlardan yeyishadi, nima qilishardi boshqa.

– To‘g‘ri topdingiz, – dedi Jorj.

– Seningcha, men topdimmi? – so‘radi El.

– Ha.

– Es-hushing joyida ekan sening.

– Ehtimol.

– Yolg‘onni ham do‘ndirar ekansan-a? – dedi Maks. – Yolg‘on gapiryapti-yu, El?

– Galvars u, – dedi bunga javoban El. U Nikka yuzlandi. – Isming nima sening?

– Nik Adams.

– Bunisi narigisidan ham balo-ku, – dedi El. – Nima deding, Maks?

– Bu shaharda toza yig‘ilishgan ekan-da! – dedi Maks.

Jorj ikkita taqsimchada ovqat keltirdi, bittasida tuxum bilan qovrilgan dudlangan go‘sh va ikkinchisi tuxumda iylab qovrilgan cho‘chqa yog‘i. Keyin ularning yoniga ikki kishilik qilib suzilgan kartoshka bo‘tqasini keltirib qo‘ydi-da, oshxona darchasini qarsillatib yopdi.

– Siz nima so‘ragandingiz? – deya so‘radi Eldan.

– Esingdan chiqib qoldimi nimaligi?

– Quymoqli dudlangan go‘sh.

– Aqli balo demabmidim?! – dedi Maks. U o‘tirgan joyida cho‘zilib taqsimchani oldi. Ikkovi qo‘lqopini yechmasdan yeyishga tushdi. Jorj ularning ovqat yeyishini kuzatib turdi.

– Nega baqrayib qolding? – Maks Jorjga o‘girildi.

– Shunday o‘zim.

– Shunday, qanaqa shunday, nega bunaqa qarab qolding deyapman, gapir.

Jorj kulib yubordi.

– Kulma bunaqa, – dedi unga Maks. – Ko‘rib qoldingmi, kulasan?

– Xo‘p bo‘pti, kulmasam kulmabman, – dedi Jorj.

– Eshitdingmi, El? Bir og‘iz gapimni qaytarmaditya! – Maks Elga qaradi. – Zo‘r-a!

– Kallasi joyida, – dedi El.

Ular yana ovqatlanishni davom ettirishdi.

– Narigisining ismi nima ekan? – deb so‘radi El Maksdan.

– Hozir bilamiz-da, – dedi Maks va baland ovozda chaqirdi: – Hoy, aqli raso! Qani, peshtaxta ortiga o‘tib oshnangni yoniga borib tur-chi.

– Nima bo‘ldi? – deb so‘radi Nik.

– Hech nima bo‘lgani yo‘q.

– Qani, bo‘l, bo‘laqol tezroq, – dedi El. Nik peshtaxtaning orqasiga o‘tdi.

– Nima gap, nima bo‘ldi? – deb so‘radi Jorj.

– Ishing bo‘lmasin sening, – deya javob qildi El. – Ichkarida, oshxonada kim bor yana?

– Habash bor.

– Qanaqa habash?

– Oshpaz.

– Chaqir uni bu yoqqa.

– Nima qilasiz?

– Chaqir deyapman, senga!

– Qayerda ekaningizni bilasizmi?

– Sendan yaxshi bilaman, – dedi Maks degani. – Hali esimizni yeb qo‘yganimiz yo‘q, xavotir olma!

– Gaplaringdan shunaqaga o‘xshayapmiz, shekilli, –

dedi El. – Bu mishiqi bilan adi-badi aytishib o‘tiribsan-u boyadan beri. Hoy, menga qara, – dedi u Jorjga. – Chaqir bu yoqqa habashni. Bo‘l tez!

– Unda ishingiz bormi?

– Yo‘q. Aqling joyida-ku sening, dono. Qora habashda nima ishimiz bo‘lishi mumkin?

Jorj oshxona darchasini ochib chaqirdi.

– Sem! Bir daqiqaga bu yoqqa chiqqin.

Oshxona eshigi ochilib habash chiqib keldi.

– Nima gap? – deb so‘radi u.

Peshtaxta yonida o‘tirganlar uni boshdan oyoq ko‘zdan kechirishdi.

– Bo‘pti, mayli, qora tappi, mana bu yerga kelib tur, – dedi El.

Oshpaz peshbandini tortib-tortib, peshtaxta yonida o‘tirgan notanish odamlarga qaradi.

– Xo‘p bo‘ladi, ser, – dedi u.

El oyoqlari baland kursidan sirg‘alib tushdi.

– Men manavi ikkovi bilan oshxonaga kirib o‘tiraman, – dedi u. – Yur o‘chog‘ingning oldiga, qorayaloq. Sen ham, donolar donosi, yur.

Nik bilan oshpazni oldiga solib El oshxonaga kirib ketdi. Maks peshtaxta oldida, Jorjning ro‘parasida qoldi. U Jorjdan emas, peshtaxta tepasidagi uzun toshoynadan ko‘zini olmasdi. Bu yer ilgari tamaddixonada ichidagi pivoxona bo‘lgan edi.

– Xo‘sh, – dedi Maks ko‘zgudan ko‘z uzmay turib. – Nega indamayapsan, dono?

– Maqsadingiz nima o‘zi?

– Eshitdingmi, El? – deya qichqirdi Maks. – Manavi nima maqsadda keldilaring, deb so‘rayapti. Bilgisi ke- layotgan emish.

– Nega javob bermayapsan unga, aytaver to‘g‘risini, – oshxonadan Elning zardali ovozi keldi.

– Xo‘sh, maqsadimiz nima, seningcha?

– Men qaydan bilay.

– O‘ylab top-chi?!

Gaplashayotgan chog‘da Maks dam-badam ko‘zguga qarab qo‘yar edi.

– Sira topolmayapman.

– Eshitdingmi, El, nimaga kelganimizni sira topolmayotgan emish?

– Baqirmasang ham eshityapman gapingni, – deya javob qildi El ichkaridan. U ovqat uzatiladigan darchani ko‘tarib, pomidor qaylasidan bo‘shagan shishani tirab qo‘ydi. – Menga qara, senga aytyapman, – dedi Jorjga qarata, – ozgina o‘ng tomonga surilgin. – Sen esa, Maks, sal chapga suril. – U xuddi suratga olayotgan suratkashdek ularni joylashtirgan bo‘ldi.

– Bir otamlashib qo‘yaylik, donolar donosi, – dedi Maks. – Qisqasi, seningcha, nima qilmoqchimiz biz?

Jorj churq etmadi.

– Bo‘lmasa eshit, o‘zim aytib beraman. Biz bita shvedni o‘ldirish uchun keldik. Ole Andreson degan novcha shvedni taniysanmi?

– Taniyman.

– U har kuni kechki payt shu yerda ovqatlanadimi?

– Goho-goho kelib qoladi, ovqatlanishga.

– Rappa-raso oltida keladimi?

– Agar keladigan bo‘lsa.

– Xo‘p. Buni o‘zimiz ham yaxshi bilamiz, – dedi Maks. – Boshqa narsalar haqida gaplashaylik. Kinoga borib turasanmi?

– Kamdan kam boraman.

– Tez-tez borib tursang yomon bo‘lmasdi. Bilasanmi nega? Kino aynan senga o‘xshaganlar uchun ishlanadi.

– Nega Ole Andresonni o‘ldirmoqchi bo‘lyapsizlar? Nima yomonlik qildi sizlarga?

– Hozircha hech narsa qilgani yo‘q. U bizni tanimaydi. Bir marta ham ko‘rmagan.

– Bir marta ko‘radi, xolos, – oshxonadan ilova qildi El.

– Qisqasi, nega o‘ldirmoqchisizlar, sababi bormi? – deb so‘radi Jorj yana.

– Bitta tanishimiz iltimos qildi. Do‘stning gapini yerda qoldirish yaxshi emas, endi tushungandirsan?

– Tilingni tiy, – dedi El oshxonadan. – Shunaqayam og‘zi bo‘sh bo‘ladimi odam.

– Suhbatdoshni zeriktirmay o‘tiribman-da, to‘g‘rimi, donolar donosi?

– Og‘zing bo‘sh judayam, – deya takrorladi El. – Menikilar o‘zini zeriktirmayotibdi, qara, yonma-yon yo‘tishibdi, qo‘l-oyoqlari bog‘langan, xuddi monastir maktabida saboq olayotgan dugonalardek.

– Sen monastir maktabini ko‘rganmisan?

– Ko‘rgan bo‘lsam kerak.

– Yahudiylarnikini ko‘rgansan, bilding!

Jorj soatiga qarab qo‘ydi.

– Agar bitta-yarimtasi kirib qolsa, oshpaz ketgan deysan, mabodo, bu kor qilmasa, oshxonaga kirib o‘zing biron nima tayyorlab berasan, tushundingmi? Aqllisan-ku o‘zing.

– Tushundim, – deb javob qildi Jorj. – Keyin-chi, keyin bizni nima qilasizlar?

– Vaziyatga qarab hal qilamiz, – dedi Maks. – Oldindan bir narsa deyish qiyin.

Jorj soatiga ko‘z tashladi. Oltidan o‘n besh daqiqa o‘tgandi. Ko‘cha eshik ochildi. Tramvay haydovchisi kirdi.

– Horma, Jorj, qalay ishlar? – dedi u. – Ovqatlangan o‘ladimi?

– Sem ketgandi, – dedi Jorj. – Yarim soatda keladi.

– Nachora, boshqa yerga borib ko‘rarman, – dedi El amvay haydovchisi.

Jorj soatiga qaradi. Oltidan yigirma daqiqa o‘tibdi.

– Yasha, azamat, – dedi Maks. – Qoyilman fahming.

– G‘ing desa, peshonasidan darcha ochib qo‘yishinchi iladi-da, – dedi El oshxonadan.

– Yo‘q, buning uchun emas. O‘zi zo‘r yigit. U merdona ta‘qul.

Besh daqiqa kam yettida Jorj:

– U endi kelmaydi, – dedi.

Shu orada tamaddixonaga yana ikki kishi kirdi. Bitirib o‘zim bilan olib ketishga, deb taom so‘ragan edi, Jorj to‘chqa yog‘i bilan tuxum qovurib bergani oshxonadan o‘tirib ketdi. Qarasa, El boshidagi telpagini ensasiga surib darcha oldidagi kursida o‘tiribdi, kesma miltig‘i derazaning o‘rtasida yotardi. Nik bilan oshpaz orqama-orqa qilib o‘tiribdi, og‘lab qo‘yilganча kunjakda yotishardi. Ikkovini o‘ziga sochiq tiqib qo‘yilgandi. Jorj taomni pishirib berib, arqog‘ozga o‘rab xaltaga soldi-da, oshxonadan chiqib o‘randa haqini to‘lab olib ketdi.

– Xudo farosatdan siqmagani sezilib turibdi – bilgan narsasi yo‘g‘-a, – dedi Maks. – Ovqat pishiradi, namalarni ham qotiradi, qoyil. Uylansang, xotinchangning o‘rnini kiradi.

– Balki, shundaydir, – dedi Jorj. – Siz kutayotgan (shahar) andreson kelmasa kerak.

– Yana o‘n daqiqa kutamiz, – dedi Maks.

Maks goh ko‘zguga, goh soatiga qarab o‘tirdi. Soatning sillari yettini ko‘rsatardi. Yana besh daqiqa o‘tdi.



– Ketdik, El, – dedi Maks. – Kutishdan foyda yo‘q. Kelmaydi baribir.

– Yana besh daqiqa kutaylik-chi, – dedi oshxonadan El.

Shu besh daqiqa ichida yana bir xo‘randa keldi, Jorj unga oshpaz kasal bo‘lib qoldi, dedi.

– Tobi qochgan bo‘lsa darrov boshqasini topmay-sizmi? – dedi xo‘randa.

– Tamaddixonami bu yo boshqa joymi?

U chiqib ketdi.

– Ketdik, El, – dedi Maks.

– Mana bu ikkovi bilan habashni nima qilamiz.

– Nima qilardik, hech narsa.

– Seningcha, hech narsa qilmaganimiz ma‘qulmi?

– Albatta. Bu yerda hech narsa qilolmaysan ham.

– Shu menga yoqmayapti, rosti, – dedi El. – Noto‘g‘ri ish bo‘lyapti. Senam bulbuli go‘yodek sayrading rosa.

– Hech narsa qilmaydi, parvo qilma, – dedi Maks. – Loaqal, ozgina ko‘ngilxushlik ham qilish kerak-ku.

– Shunday bo‘lsa ham, ko‘p narsani gullab qo‘yding, ochig‘i, – dedi El. U oshxonadan chiqib keldi. Kesma miltig‘i belidan pastroqda, uzun paltosining ostida do‘p-payib turardi. U qo‘lqopli qo‘li bilan paltosining etagidan pastga tortib qo‘ydi.

– Bo‘pti, xayr, donolar donosi, – dedi u Jorjga. – Omading bor ekan.

– To‘g‘ri aytyapti u, – dedi Maks. – Shu omadingni poygada sinab ko‘rsang bo‘lardi.

Ular ko‘chaga chiqishdi. Jorj derazadan to fonus yonidan o‘tib muyulishda burilishgunga qadar ortlaridan qarab turdi. Qora kastum bilan gavdalariga yopishib turgan tor paltolarida ular bir juft estrada raqqoslariga o‘xshar edi.

Jorj oshxonaga kirib, Nik bilan oshpazning qo‘l-oyog‘ini yechdi.

– Yetar, chidayolmayman, – dedi Sem. – O‘lay agar alam qilyapti.

Nik o‘rnidan turdi. Uning og‘ziga shu choqqacha bir marta bo‘lsin sochiq tiqishmagan edi.

– Menga qara, – dedi u. – Padariga ming la‘nat, bu qanaqasi, a? – U hozirgina ro‘y bergan hodisani pisand qilmayotgandek tutmoqchi bo‘lardi o‘zini.

– Ular Ole Andresonni o‘ldirish uchun kelishgan ekan, – dedi Jorj.

– Ovqatlangani kelib qolsa, otib tashlashmoqchi edi.

– Ole Andresonni-ya?

– Ha.

Habash boshmaldog‘i bilan miyiqqlarini silab qo‘ydi.

– Daf bo‘lishdimi? – deb so‘radi u.

– Ha, – dedi Jorj, – daf bo‘lishdi.

– Judayam ko‘ngilsiz ish bo‘lyapti-da, – dedi habash. – Meni aytdi dersiz, juda ko‘ngilsiz ish.

– Menga qara, – dedi Jorj Nik sari yuzlanib. – Ole Andresonning oldiga borib kelasanmi?

– Mayli.

– Esing bormi, aralashma bu ishga, – dedi Sem. – Nariroq yurganing ma‘qul bu g‘avg‘odan.

– Agar borging kelmasa, borma, – dedi Jorj.

– Oqibati yaxshi bo‘lmaydi, – dedi Sem. – Ko‘nglim sezyapti, aralashma.

– Albatta, boraman, – dedi Nik Jorjga qarab. – Qayerda turadi u?

Oshpaz yuzini burdi.

– Kelib-kelib, yosh bolani aralash tirasanmi shunaqa ishga, – deya to‘ng‘illadi habash.

– U Girshning jihozlangan uyida yashaydi, – deya javob qildi Jorj.

– Xo‘p, men ketdim.

Ko‘chada chiroq daraxtlarning yalang‘och shoxlari aro yo‘lkani yoritardi. Nik tramvay izlari yoqalab ketdi, keyingi fonus yonidan tor ko‘chaga burildi. Muyulishdan to‘rtinchi uyda Girshning jihozlangan xonalari joylashgan edi. Nik zinadan chiqib qo‘ng‘iroq tugmasini bosdi. Eshikni ayol kishi ochdi.

– Ole Andreson shu yerda turadimi?

– Unda ishingiz bormi?

– Ha, uydami o‘zi?

Nik ayolning ortidan zina orqali yuqoriga ko‘tarildi va uzun yo‘lakning oxirigacha bordi. Ayol eshikni taqillatdi.

– Kim u?

– Sizni so‘rab kelishibdi, janob Andreson, – dedi ayol.

– Bu men – Nik Adamsman.

– Kiring.

Nik eshikni ochib ichkariga kirdi. Ole Andreson kiyimini yechmasdan karavotda yotardi. Bir zamonlar u og‘ir vaznli bokschi bo‘lgan, yotgan karavoti uning gavasiga kichiklik qilardi. Boshi ostiga ikkita yostiq qo‘yib olgandi. U Nikka qaramadi ham.

– Nima ish bilan kelding? – deb so‘radi u.

– Men Genrining tamaddixonasida edim, – dedi Nik. – Ikki kishi kelib, men bilan oshpazning qo‘l-oyog‘imizni bog‘lab tashlashdi, keyin sizni o‘ldirishga kelganlarini aytishdi.

Bu xabar ahmoqona bir aljirashga o‘xshab chiqdi. Ole Andreson indamadi.

– Ular bizni oshxonaga qamab qo‘yishdi, – deya davom etdi Nik. – Siz ovqatlangani kelganingizda ular sizni

otib tashlashmoqchi edi.

Ole Andreson devordan ko‘z uzmasdan churq etmay yotaverdi.

– Sizga shuni aytib qo‘yishim uchun Jorj yubordi meni.

– Har holda, biron chorasini topish amri mahol, – dedi Ole Andreson.

– Ularning ko‘rinishi qanaqa ekanini tasvirlab beraymi?

– Menga kerakmas ularning qanaqaligi, – dedi Ole Andreson. U hamon devorga qarab yotardi. – Ogohlantirgani kelganing uchun kattakon rahmat.

– Arzimaydi.

Nik karavotda yotgan gavdali odamdan sira ko‘zini ololmasdi.

– Politsiyaga borib aytish kerakdir balki?

– Kerak emas, – dedi Ole Andreson. – Foydasi yo‘q baribir.

– Sizga biron yordamim tegishi mumkinmi?

– Yo‘q. Hech kim yordam berolmaydi.

– Balki, oddiy hazildir bu?

– Yo‘q. Oddiy hazil emas.

Ole Andreson yonboshiga o‘girildi.

– Hamma gap shundaki, – dedi u devorga tikilib turib, – men o‘zimni sira qo‘lga ololmay yotibman, ko‘chaga chiqolmasdan, kun bo‘yi mana shu ahvol – yotganim-yotgan.

– Shahardan chiqib ketsangiz bo‘larmidi?

– Yo‘q, – dedi Ole Andreson. – Ulardan qochib yurish jonimga tegdi. – U haliyam devorga qarab yotardi. – Endi kech, g‘isht qolipdan ko‘chdi.

– Biron yo‘lini qilib tinchitishning iloji yo‘qmi?

– Yo‘q, endi kech. – U o‘sha-o‘sha jonsiz ovozda

gapirardi. – Hech narsa qilib bo‘lmaydi. Hozircha yota turaman, o‘zimni qo‘lga olgan kunimoq ko‘chaga chiqib ketaman.

– Mayli, menga javob, Jorj kutib qolgandir, – dedi Nik.

– Yaxshi bor, – dedi Ole Andreson. – U Nikning ko‘zlariga qaramasdi. – Rahmat, kelganing uchun.

Nik chiqib ketdi. U eshikni yopayotgan chog‘da kiyimlarini yechmay, devorga o‘girilib yotgan Ole Andresonga yana bir bor nazar soldi.

– Erta-yu kech xonadan chiqmaydi, – dedi ayol pastga tushganlarida. – Tobi yo‘qmi deb ming xayollarga boraman. Unga, janob Andreson, ko‘chaga chiqib bir aylanib kelsangiz bo‘lardi, havo biram yaxshiki, desamam befoyda, o‘jarlik qilib yotaveradi.

– Uydan chiqqisi yo‘q uning.

– Tobi kelmayapti, shekilli, – dedi ayol. – Achinar-kansan kishi, u shunaqayam yaxshi odamki. Bir zamonlar u bokschi bo‘lgan, bilasiz-a?

– Bilaman.

– Yuz-ko‘zi aytib turibdi, uning qanaqaligini, – dedi ayol. Ular ko‘cha eshik oldida gaplashib turishardi. – Shunaqayam xushmuomala.

– Mayli, yaxshi qoling, Girsh xonim, – dedi Nik.

– Men Girsh xonim emasman, – dedi ayol. – Girsh xonim uyning bekasi. Men bu yerda xizmatchiman, xolos. Ismim Bell.

– Xayr, Bell xonim, – dedi Nik.

– Xayr, – dedi ayol.

Nik qorong‘i tor ko‘cha orqali muyulishdagi fonus oldiga bordi, so‘ng tramvay izi yoqalab tamaddixona tomon ketdi. Jorj peshtaxta ortida turardi.

– Oleni ko‘rdingmi?

– Ko‘rdim, – dedi Nik. – U xonasidan chiqmay yotibdi.

Nikning ovozi eshitib oshpaz oshxona eshigini qiya ochdi.

– Menga keragiyam, qizig‘iyam yo‘q bu gaplarning, dedi u va eshikni qarsillatib yopdi.

– Hamma gapni aytdingmi unga?

– Albatta, aytdim. O‘zining ham xabari bor ekan.

– Nima qilmoqchi endi?

– Hech nima.

– Uni o‘ldirishadi.

– Ehtimol, o‘ldirishar.

– Chikagoda bironta janjalga aralashib kelganga o‘xshaydi.

– Bo‘lishi mumkin.

– Juda chatoq bo‘pti.

– Chatoq ham gapmi, rasvo ish.

Ular jim bo‘lib qolishdi. Jorj sochiq olib peshtaxtani artdi.

– Nima qilgan bo‘lishi mumkin, seningcha?

– Lafzida turmagandir, balki. Bunaqa ish uchun ular kechirishmaydi.

– Men bu shahardan bosh olib ketaman, – dedi Nik.

– To‘g‘ri qilasan, – dedi Jorj. – Bu yerda tinch yashab bo‘lmaydi.

– Sira miyamdan ketmayapti, ajali yetganini bila turib o‘sha uyda qanaqa yotibdi, hayronman. O‘ylashga qo‘rqadi odam.

– Sen esa o‘ylama, – dedi Jorj.

## YOMG'IRDA QOLGAN MUSHUK

Mehmonxonada bor-yo'g'i ikki nafar amerikalik bor edi. Ular o'z xonalariga chiqib ketayotganlarida zinada uchragan odamlarning birontasini tanimasdilar. Ularning xonasi ikkinchi qavatda joylashgan bo'lib, derazalaridan dengiz ko'rinib turardi. Undan tashqari odamlar dam oladigan bog' bilan urush qurbonlari xotirasi uchun o'rnatilgan yodgorlik ham ko'zga tashlanardi. Bog'da baland-baland palmalar o'sar, bu daraxtlarning tagida yashil rang o'rindiqlar bor edi. Havo ochiq kunlari u yerda doim biron-bir molbertli rassom o'tirgan bo'lardi. Musavvirlarga palmalar bilan derazalari bog' va dengizga qaragan mehmonxonaning muhtasham ko'rinishi yoqardi. Italiyaliklar urush qurbonlari xotirasi uchun o'rnatilgan yodgorlikni ziyorat qilgani uzoq-uzoqlardan kelishardi. Bronzadan ishlangan bu haykal yomg'irda yaltillardi. Yomg'ir yog'moqda edi. Sharros quyayotgan yomg'ir suvlari palma yaproqlaridan shir-shir oqib tushardi. Shag'al to'shalgan yo'lkalarda xalqob-xalqob ko'lmaklar hosil bo'lgandi. Yomg'ir ostida to'lqinlar uzun tasma hosil qilib qirg'oqqa borib urilib, parcha-parcha bo'lib sochilib ketar, so'ng orqaga qaytib yana yomg'ir ostida oldinga yugurar hamda qirg'oqqa to'sh urib osmonga sapchirdi. Yodgorlikka yaqin maydonchada bitta ham avtomobil yo'q edi. Ro'paradagi

qahvaxonaning eshigi oldida turgan ofitsiant ayol bo‘m-bo‘sh maydondan ko‘z uzmasdi.

Amerikalik ayol oynadan bog‘ni tomosha qilardi. Shundoqqina derazalari tagida, yomg‘ir suvi tomchilayotgan yashil stol ostida bir mushuk yashirilib olgan edi. Jonivor badaniga suv tushmasin uchun g‘ujanak bo‘lib olgandi.

– Men pastga tushib mushukni olib chiqaman, – dedi amerikalik ayol.

– Men tushib chiqa qolay, – dedi karavatda yotgan eri.

– Yo‘q, o‘zim tushaman. Bechora! Yomg‘irdan qochib stol tagiga kirib olganini-chi.

Eri ustma-ust qo‘yilgan ikkita yostiqqa suyanib olgan cha kitob o‘qirdi.

– Ehtiyot bo‘l, yomg‘irda qolib ivib yurmagin tag‘in, – dedi u. Ayol zinadan tushib, vestibuldan o‘tib borayotganda. Mehmonxonaning xo‘jayini o‘rnidan turib ayolga ta‘zim qildi. U o‘tirgan xona vestibulning narigi kunjagida joylashgandi. Mehmonxona xo‘jayini baland bo‘yli mo‘ysafid edi.

– Il, piove<sup>1</sup>, – dedi amerikalik ayol.

U mehmonxona xo‘jayinini o‘ziga yaqin olardi.

– Si, si, xonim. Brutto tempo<sup>2</sup>. Bugun havo juda chatoq.

U kunjakdagi nimqorong‘i xonaning oldida turardi. U ayolga yoqardi. Unga shikoyatlarini tinglayotgan mahal o‘zini haddan ziyod jiddiy tutishi yoqardi. Uning nuroniy chehrasi yoqardi. Ko‘nglini topishga harakat qilishlarini yaxshi ko‘rardi. Mehmonxona xo‘jayini degan nomiga sirayam dog‘ tushirmaslikka intilishi yoqardi. Uning qarimsiq, vazmin yuzi va katta qo‘llari yoqardi.

---

<sup>1</sup> *Il, piove* – O, yomg‘ir yog‘yapti (*italyan.*).

<sup>2</sup> *Brutto tempo* – Ha, ha, xonim. Havo rasvo juda ham (*italyan.*).



Shularni ko'nglidan kechirgancha ayol ko'cha eshik yoniga bordi. Eshikni ochdi-da, boshini chiqarib hovliga qaradi. Yomg'ir yanayam kuchaygan. Rezina plash kiyib olgan bir yigit bo'm-bo'sh maydon bo'ylab qahvaxona tomon kelardi. Mushuk shu yaqin atrofda, chamasi o'ng tomonda bo'lishi kerak. Balki, peshtoq ostidan borsa bo'lar. Ayol ostonadan endi chiqib turganida birdan shirq etib boshi uzra shamsiya ochildi. Uning ortida xonalarini supurib tozalaydigan xodima turardi.

– Yomg'irda ivib yurmang yana, – dedi u jilmayib italyan tilida. Uni shak-shubhasiz mehmonxona xo'jayini yuborgan.

Amerikalik ayol boshi uzra shamsiya ko'targan mehmonxona xodimasi bilan birga derazalari tagidan o'tgan yo'lkadan yurdi. Yomg'ir yuvgan yashil stol joyida turibdi, lekin mushuk ko'rinmasdi. Amerikalik ayolning hafsalasi pir bo'ldi. Xodima unga yuzlandi.

– Na perduta, qualche cosa,<sup>1</sup> xonim?

– Hozirgina shu stol tagida mushuk turgandi, – dedi amerikalik ayol.

– Mushuk?

– Ha, ha, mushuk. Si, il gatto<sup>2</sup>.

– Mushuk? – xodima kulib yubordi. – Yomg'irda qolgan mushukmi?

– Ha, – dedi amerikalik ayol, – shu yerda – stol ostida edi. Uni biram ko'targim, biram erkalagim keluvdi.

Ayol ingliz tilida gapirayotganida xodimaning afti bujmayardi.

– Yuring, xonim, – dedi u, – yaxshisi, qayta qolamiz... Ivib ketdingiz.

---

<sup>1</sup> *Na perduta, qualche cosa*, – Biror nima qidirayapsizmi, xonim? (*italyan.*).

<sup>2</sup> *Si, il gatto* – Ha, shunday, mushuk. (*italyan.*).

– Nachora, yuring, – dedi amerikalik ayol.

Ular mayda shag'al to'shalgan yo'lka orqali izlariga qaytishdi va binoning ichiga kirishdi. Xodima soyabonni yopish uchun bo'sag'ada qoldi. Amerikalik ayol vestib-yuldan o'tib borayotganda, xonasida o'tirgan padrone<sup>1</sup> odati bo'yicha o'rnidan turib, ta'zim qildi. Ayolning beixtiyor o'pkasi to'lib, tomog'iga bir nima tiqilgandek bo'ldi. Padroneni ko'rganda u o'zini juda ojiz, lekin ayni chog'da hurmat-e'tiborga loyiq xonimlardek sezardi. Hozir esa bir zumga favqulodda hurmatga sazovor ayol ekanini his qildi. U zinapoyadan asta-asta chiqib, xonalarining eshigini ohista ochib, ichkariga kirdi.

Jorj hamon karavotda kitob o'qib yotardi.

– Xo'sh, mushukni olib keldingmi? – deb so'radi u kitobdan bosh ko'tarib.

– U ketib qopti.

– Qayoqqa ketadi? – dedi Jorj.

Ayol karavot chetiga omonatgina o'tirdi.

– Uni biram erkalagim keluvdi! – dedi u. – Negaligini o'zim ham bilmayman, lekin bechora mushukni bag'rimga bosib biram erkalagim keluvdi. Bunaqa yomg'irda boyoqish qiynaladi.

Jorj yana o'qishga tutindi.

Ayol pardozi stoli yoniga bordi, toshoyna qarshisiga o'tirdi va oynakni olib avval so'l, keyin o'ng tomondan aft-angorini ko'zguna solib qaradi.

Aloha ensasi bilan bo'ynini ko'zdan kechirdi.

– Sochimni o'stirsam nima deysan? – deb so'radi u yana yon tomondan o'zini kuzatar ekan.

Jorj boshini ko'tarib, uning qizaloqlarnikidek kalta sochlari yashirolmagan bo'yniga tikildi.

---

<sup>1</sup> *Padrone* – Xo'jayin. Mehmonxona xo'jayini ma'nosida. (tarj.).

– Menga shu turishi yoqadi.

– Mening esa jonimga tegib ketdi, – dedi ayol. – O‘g‘il bolaga o‘xshab yurish shunaqayam jonimga tekkanki...

Jorj narigi yonboshiga o‘girildi. Xotini gapira boshlagandan beri unga qarab yotar edi.

– Bugun judayam boshqachasan, – dedi u.

Ayol oynakni stolga qo‘yib deraza oldiga bordi-da, bog‘ni kuzata boshladi. Qosh qoraygan edi.

– Sochimni yig‘ib, turmaklab olgim kelyapti, qaniydi silliq qilib tarasam, – dedi u, – keyin, mushugim bo‘lishini xohlayman, silayotganimda tizzamda xur-xur qilib yotsa...

– Ih-hm, – deb tomoq qirib qo‘ydi Jorj.

– Keyin o‘zimning uyimda, stolimda ovqat yeyishni istayman, qoshiq-sanchqilar o‘zimniki bo‘lsa, shamdonlarda sham yonib tursa. Bahor kelishini istayman, toshoy-na oldida sochimni tarab o‘tirsam deyman, o‘zimning mushugim bo‘lishini istayman, yangi ko‘ylak olib kiygim kelyapti...

– Bo‘ldi-ye! Kitob o‘qi undan ko‘ra! – dedi Jorj. U yana o‘qishga tutindi.

Ayol derazadan qaradi. Qorong‘ilik quyuglashib, palma yaproqlari aro yomg‘ir shovullab yog‘ardi.

– Nima bo‘lgan taqdirda ham, mushukni erkalab o‘tirgim kelyapti, – dedi ayol. – Menga hoziroq mushuk kerak. Sochlarimni uzun qilib o‘stirishning, xursandchilik qilishning iloji bo‘lmasa, loaqal mushuk olib kelish mumkindir?!

Jorj uning gaplarini eshitmadi. U kitobga mukkasidan ketgandi. Ayol derazadan chiroqlar yonayotgan maydonchaga qaradi.

Eshik taqilladi.

– Avanti<sup>1</sup>, – dedi Jorj.

U kitobdan boshini ko‘tardi.

Ostonada boyagi xodima ko‘rindi. U kattakon ola-bu-  
la mushukni bag‘riga mahkam bosganicha turardi.

– Afv etasiz, – dedi u. – Xonimga buni raagope berib  
yubordilar.

---

---

<sup>1</sup> *Avanti* – Kiring, kiravering (*italyan.*).

## URUSH, QO'SHIQ VA RAQS ORASIDA

Ayol tashqarida ko'cha chirog'i xira yoritib turgan yo'lak bo'ylab izg'irin va qor ichida ohista ketib borardi.

Ichkarida esa Y.V.S.A. binosining oltinchi qavatida joylashgan Nafis San'at Tashkilotida, 1020-Makji ko'chasida Funston lageri va Fort Livenorsdan kelgan bir guruh xushchaqchaq askarlar to'dasi San'at oliygohining qizlari bilan shod-xurram o'yinga tushib, goh otdek yo'rtib chopishar, shu paytda ularga hamohang holda hushyor bir yigit o'ynayotganlarga mahliyo bo'lganCHA eng oxirgi jaz musiqasini zo'r berib chalardi.

Bir burchakda alohida yana bir jamoa allaqanday Vistler bilan unga ro'yxushlik berib yurgan qorasoch mahbubasi to'g'risida bir-birlariga gap bermay tortishar edi.

Bu o'tirganlar urush e'lon qilinmasdan avval Chikagodagi san'at guruhining a'zolari hisoblanardi.

Funston dan kelgan uch nafar erkak devorlardagi Kanzas Siti rassomlari yaratgan asarlarga bir-bir termilganCHA zal ichida tentirab yurishardi. Nihoyat, pianino sadolari tindi. Raqqoslar zo'r mamnuniyat bilan chapak chalib yuborishdi, musiqachi bu olqishlardan battarroq erib, „Uzun,uzun yo'llar“ degan jangovar kuyni baralla boshlab yubordi. Qizil ko'ylakli sho'x-shaddod qiz bilan o'yinga tushayotgan piyoda kapral raqs davomida boshini u tomonga egib, Chautaquadagi allaqanday qiz haqida-

gi sirini xuddi fosh etganday taxlitda shivirlab soʻzlardi. Zal koridorida bir guruh qizlar yoshgina artilleriyachini oʻrab olishgan va ular bu harbiyga maxsus parolni hadeb eslatishga urinayotgan Bil ismli joʻrasini qoʻllab-quvvatlashardi. Shu vaqt ichkarida musiqa ovozi yana toʻxtadi, ochiqkoʻngil pianinochi yigit oʻrnidan qoʻzgʻaldi-da, ogʻzini hoʻllab kelish uchun tashqariga chiqib ketdi.

Bir gala erkaklar vaqtni boy bermaslik uchun shosha-pisha boyagi qizil koʻylakli xonimning yoniga uchib borishdi-da, undan keyingi raqs uchun oʻtinib izn soʻray boshlashdi.

Tashqarida esa hamon oʻsha notanish ayol sovuq va nam yoʻlak uzra jimgina ketib borardi.

Bu oʻyin-kulgilar Urush Lageri jamiyati xizmatining askarlarga bergan eng birinchi imtiyozi edi. Sanʼat oliygohining qirq nafar qizlari maktab kotibasi mis Uinfred Sekston hamrohligida bu yerga olib kelingan boʻlib, zalga missis J.F.Binni mezbonlik koʻrsatardi.

Koʻngil ochish gʻoyasi oʻsha jamiyatda faoliyat yur-gizuvchi J.P.Robertson tomonidan rejalashtirilgan va eʼlonlar Funston lageri hamda Fort Livenvorsdagi komandirlarga yuborilib, barcha askarlarni joʻnab ketishlari oldidan taklif qilish buyurilgan edi. Afishalarni qizlar tayyorlashib, eʼlonlar Livenvorsning hamma yeriga osib tashlangandi.

Yosh jangchilarning ilk raqsi keyinchalik ham turli klub va maktablarda davom etishi butun shahar boʻylab koʻzda tutilgandi.

Pianinochi yana oʻz joyini egalladi, u kelishi hamon askarlar ham oʻz sheriklari bilan juft-juft boʻlib oldilar. Ular tanaffus paytida qizlar bilan meva solingan gʻaroyib sharbatdan lazzat olishgandi.

Qizil libosdagi qiz raqs tushaverib holdan toydi, u sekingina borib pianino yonidan joy oldi, u ketishi bilan qizga oshiq bo'lgan bir to'p erkak yana qizni o'rab olishdi-da, hammalari qoq yarim tungacha jo'r bo'lib qo'shiq aytib chiqishdi. Oxiri, zal lifti ham harakatdan to'xtadi va ana shundan keyingina bu baxtiyor olomon binoning oltita qavatidagi barcha zinalarni ko'tarinki kayfiyatda bosib tushdilar-da, tezroq mashinalarga chiqib olish uchun yeldek yugurib ketishdi. Eng oxirgi mashina ham ko'zdan g'oyib bo'lgach, qor ivitgan yo'lak ustida ketib borayotgan ayol g'amgin boshini ko'tardi va oltinchi qavatning qorong'i derazalariga ma'yus ko'zlarini tikkancha turib qoldi.

---

## MUNDARIJA

Nashriyotdan .....	3
<b>Stiven KING. Bo‘ri-odam yili</b>	
<i>Dilshod Asqarov tarjimasi</i> .....	5
„Chekishni tashlang“ korporatsiyasi	
<i>Dilshod Asqarov tarjimasi</i> .....	49
„Go‘sh tqiy malagich“	
<i>Rustam Obid tarjimasi</i> .....	73
Yo‘loyoq	
<i>Rustam Obid tarjimasi</i> .....	111
<b>Ernest XEMINGUEY. Qotillar</b>	
<i>Olim Otaxon tarjimasi</i> .....	135
Yomg‘irda qolgan mushuk	
<i>Olim Otaxon tarjimasi</i> .....	149
Urush, qo‘shiq va raqs orasida	
<i>Qandilat Yusupova tarjimasi</i> .....	155



*Adabiy-badiiy nashr*

STIVEN KING

## **BO‘RI-ODAM YILI**

*Hikoyalar*

„Ziyo nashr“ nashriyoti  
Toshkent – 2020

Tarjimonlar:

**Olim OTAXON va b.**

Muharrir	<i>Abdurahmon Jo‘rayev</i>
Badiiy muharrir	<i>Xojiakbar Saydaliyev</i>
Musahhih	<i>Gulandom Umarova</i>
Sahifalovchi	<i>Habibulloh Haydarov</i>

Nashriyot litsenziyasi AA № 0008, 27.03.2019  
18.05.2020 da bosishga ruxsat etildi. Qog‘oz bichimi 84x108 <sup>1/32</sup>.  
Ofset qog‘ozi. „Times“ garniturasida ofset usulida bosildi.  
Shartli bosma tabog‘i 8,4. Adadi 5000. Shartnoma № 101–20.  
Buyurtma raqami 429-20.

„Ziyo nashr“  
Mas‘uliyati cheklangan jamiyat  
Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 23-mavze, 42-uy.

«Credo Print» MChJ  
Kitob fabrikasida chop etildi  
Toshkent sh., Bog‘ishamol k. 160.  
Tel.: 71 234-44-01/05  
[www.credoprint.uz](http://www.credoprint.uz)

**King, Stiven.**  
K 43 **Bo'ri-odam yili.** [Matn]: hikoyalar / Stiven King; tarjimonlar: Olim  
Otaxon va b. – T.: „Ziyo nashr“ nashriyoti, 2020. – 160 b.

ISBN 978-9943-6341-2-1

**UO'K: 821.111(73)-32**  
**KBK 84(7AQSh)**

STIVEN  
KING

BO'RI-ODAM  
YILI



ZIYO NASHR



[t.me/ziyonashr](https://t.me/ziyonashr)



[fb.com/ziyo.nashr](https://fb.com/ziyo.nashr)



[ziyonashr@mail.ru](mailto:ziyonashr@mail.ru)



ISBN 978-9943-6341-2-1



9 789943 634121